

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

O'zbek adabiyoti kafedrası

"MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI XALQLARI ADABIYOTI"
fanidan

MA'RUZALAR MATNI

Bakalavriyatning "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi uchun

Tuzuvchi: Allambergenov H

NUKUS - 2010

KIRISH

Reja

1. Turkiy xalqlar kimlar ekanligi va yashash tarzi.
2. Turkiy xalqlarning madaniyati va fani.
3. Turkiy xalqlarning og'zaki ijod namunalari:

Tayanch tushuncha: Millat, hudud, qardosh xalqlar, Mustaqil hamdustlik Davlatlari xalqlari adabiyoti.

Istiqlol barcha fanlar qatori suz san'atiga asoslangan adabiyotning asl mohiyatini uzgartirdi. Birinchidan, adabiyotning haqqoniylik, izchillik tamoyillarini uz urnida ishlatish kunikmasini shakllantira .boshladi. Ikkinchidan, adabiyot yakkahokimlik, zuravonlik, millatlarni kamsitish va birgina millat mafkurasiga xizmat qilish quroli emasligini isbotladi. Uchinchidan, millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi, chegara hududidan qat'iy nazar bani basharning orzu - yinig tashvishu quvonchlarini aks ettiruvchi vositaligi ravshanlashdi. Shuning natijasi ularoq,, Oliy va urta maxsus ta'lim muassasalarining uquv dasturlari, davlat standartlari tamoman yangilandi. Unda millatning uzligini namoyon etuvchi milliy meros, madaniyat, qadriyatlar xolisona uz tahlilini topdi. Bunda boshka millat va elatlarning ham manfaatlari faromush qilinmadi. Zikr etilganlar sirasida bir vaqtlar zur berib, majburan uqitilgan "Shuro xalqlari adabiyoti" keyinchalik "Qardosh xalqlari adabiyoti" deb yuritilgan fan mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq yolg'on, soxta goyalarga asoslangani uchun iste'moldan chiqib qoldi. Achinarli jihati shuki, mazkur fan asosida urganilgan xalklarning adabiyoti asl mohiyati bilan tahlil etilmagan. Aksincha, shuro tuzumini maqtagan, dohiylarni alqagan shoir va yezuvchilarning asarlari yuz-yuzaki talqin etilgan, shu asosda bir xalqning adabiyotiga baho berilgan, xolos. Mazkur xalqning milliy uziga xosligi, milliy an'ana va qadriyatlari bilan hech kim hisoblashmagan.

Xush, yangilanish, yasharish natijalarini surayotgan ozod Vatan kishilariga mazkur fanni ukitishning ehtiyoji bormi? Bor. Avvalo, biz millat va xalklarning erkinliklari kafolatlangan, xoxlagan ilmni urganishga imkoniyat yaratilayotgan, ma'naviy - ma'rifiy, siyosiy -iqtisodiy jihatdan mustahkamlangan mamlakat quryapmiz. Ikkinchidan, yurtimizdagi barcha xalqlar uz an'ana va merosini qayta tiklab, batafsil urganish hamda targib etish imkoniga ega. Uchinchidan, yillar davomida xalqlarga hamnafas, hammaslik bulib kelgan xalqlar bilan nafaqat iqtisodiy-siyosiy, balkim ma'rifiy jabhalarda ham mustahkam aloqalar urnatilgan. utkazilayotgan turli tadbirlar, anjuman va simpozumlar fikrimiz dalili bula oladi. Turtinchidan, mustaqil hamdustlik mamlakatlari xalqlarining uziga xos va mos osori-atiga, an'ana hamda merosini urganish tafakkurimizni boyitadi, adabiy aloqalarning yangi jabhalarini kashf etishga zamin hozirlaydi. Aslida adabiy aloqalar tizimi sha yakkahokimlik zamonidayoq ubekning zahmatkash olimlari - Gaybulla Salom, Natan Mallayev, A'zam Shermatov, Najmiddin Komilov, Abduqodir Hayitmetov, Erkin Karimov, Laziz Qayumovlar tomonidan shakllantirilgan edi. Ammo barcha aytiladigan fikr va goyalar qogozga uralib, silliqgina bayon etilardi. Beshinchidan, zamon uzgarishi bilan yangi-yangi fikr, goyani aytish zarurati paydo buldi. har bir qardosh xalqning adabiyoti asl mohiyatdan ajratyalimay urganilsa, tahlil va tadqiq. etilsa, mazkur goyalar yaqqol kuzga tashlanadi.

"Mustaqil hamdustlik Davlatlari xalklari adabiyoti" fani buyicha utkaziladigan darslarda Markaziy Osiyo va Qozogiston, Kavkaz va Kavkazorti, Sharkiy Slavyan va Moldrvan, Volga va Uralbuyi, Boltiq buyi, Shimol, Sibir va Uzok. Sharq xalkdari adabiyotining uziga xos xususiyatlari, rivojlanish tarixi va tamoyillari tahlil etiladi. Eng muhim jihat nazardan qolmasligi kerakki, har bir xalqning faqat uziga xos xususiyati bulishi barobarida muayyan goyalar va muammolarni yechish asnosida mushtarakligi, uyg'unligi ham mavjud.

2-mavzu

I- BOB MARKAZIY OSIYO VA QOZOGISTON XALQLARI ADABIYOTI

Reja:

1. Tojik adabiyoti
2. Abu Abdullox Rudakiy
3. Sa'diy Sheroziy
4. Amir Xusrav Dehlaviy
5. Hofiz Sheroziy
6. Abdurahmon Jomiy

Qadimdan Markaziy Osiyo va qozogiston tuprogida yashab kelayotgan uzbek, tojik, turkman, Qozoq, Qirgiz, Qoraqalpoq xalqlari adabiyotini uz ichiga olgan mazkur guruh iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy taraqqiyotidagi umumiylikdan tashqari, juhrofiy yaxlitlikka ega. Markaziy Osiyo va Qozogiston xalqlari adabiyotining bir necha xususiyati bor, Avvalo, mazkur xalqlar katta manbaga ega bulgan va keyinchalik yozma adabiyotning rivojiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir etgan xalq ogzaki ijodiga ega.

Ikkinchidan, utmishda va hozir ham nasrdan kura nazm adabiyetda yetakchi mavqe egallagan, Shu sababdan nazm va nasr uzaro uyqash bulib ketgan.

Uchinchidan, bu adabiyotlar urtasidagi uzaro ta'sir va aloqa kup yillik tarixga ega. Ulug fors-tojik adabiyoti namoyondalari Abulqosim Firdavsiy, Umar Xayyom, Hofiz Sheroziy, Sa'diylarning ijodi urta Osiyo xalqlarining boyligi sanaladi. Yoxud, ulug mutafakkir Alisher Navoiyning ijodi, yaratgan asarlari kupgina xalqlar adiblari uchun katta ijod maktabidir. Birgina Gulxaniy, Maxmur, Sadridin Ayniy, Hamza Hakimzoda Niyoziyar fors-tojik va uzbek tillarida baravar qalam tebratishgan.

Shuro hukumati uz tazyikini urnatgach, mazkur xalqlarning azaldan shakllanib kelgan an'ana va qadriyatlariga ancha putur yetdi. Mazkur xalqlar adabiyotiga realizm tamoyili va demokratik tendensiyalar majburlab kiritildi. Aslida sh roviy realizm va insonparvarlik yolg'on, soxta, ku zb yamachilikdan boshqa narsa emasdi. Shuro hukumati bu xalqlar adabiyotiga "shakllangan milliy, mazmunan sotsialistik" tus berdi. Ayni shu mayoq ostida Hamza, Ayniy, Oybek, Mirzo Tursunzoda, Muxtor Avezov, Sobit Muqoiyov, Berdi Kerboboyev kabi ijodkorlar "qullar", "qutlug jon", "Alisher Navoiy", "Abay yuli", "Dadil qadam", "Buta kuz" singari asarlarini yozishdi. Yana bir jihatga tuxtalish joiz. Ulug "oga"larimiz ijodiga hamohang tarzda asarlar yozish an'ana darajasiga yetdi. Masalan, V.Mayakovskiyning uzinapoya shaklidagi she'rlariga tahliddan Gafur Gulom ham "Turksib yullarida" she'rini yozgan edi. Undan keyin Hamid Olimjon shu yunalishda bir necha she'rlar yozgan.

Shuro imperiyasi barham topgach, hamdustlik mamlakatlari birin-ketin mustaqillikka erishdi. Ular faqat iqtisodiy - siyosiy jihatdan emas, ma'naviy -ma'rifiy jihatdan ham mustaqil buldi. uz - uzidan adabiyotda ham yangi - yangi yunalishlar, goya va maslaklar asta- sekin ifodasini topa boshladi.

TOJIK ADABIYOTI

Tojik adabiyotining tarixi tojik xalqining tarixi kabi boy va qadimiydir. uzining kelib chiqishi va til xususiyatlari jihatidan tojiklar Eronda yashovchi forslarga vobasta. Shu bois fors - tojik adabiyoti atamasi tez - tez qullanadi. Ulug mutafakkirlar Abulqosim Firdavsiy, Umar Hayyom, Sa'diy Sheroziy, Hofiz Shiroziy, Abdurahmon Jomiyning ijodiy merosi bani basharga bir xil darajada taalluqlidir, qadim tojik adabiyotini qardosh xalqlar adabiyoti jumladan, uzbek adabiyoti bilan boqllovchi an'analar mavjud. Bu ikki xalq vakillari ikki tilda bimalol gaplashish barobarida ikki tilda ijod ham qiladilar.

Xalq ogzaki ijodi namunalari, "Avesto", "Guruhli" siklidagi dostonlardan ma'lum buladiki, yozma tojik adabiyoti IX asrdan boshlanadi. Shunga qarab tojik adabiyotini quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Qadimgi tojik adabiyoti
2. IX-XV asrlar adabiyoti
3. XVI-XIX asr tojik adabiyoti
4. Shurolar davri tojik adabiyoti (1917-1991)
5. Hozirgi zamon tojik adabiyoti

Qadimgi tojik adabiyotining bizgacha yetib kelgan ilk namunalari: "Avesto", "Rustam" tugrisidagi dostonlar, parfian tilidagi "Assiriya tarixi", "Zorer haqida" asarlardir.

Arab istilosidan sung to IX asr boshigacha davlat tili arab tili edi. Somoniylar davlati paydo bulgach esa jonli til - "dari" (forsiy) hisoblanib, yozma adabiyot shakllanadi, Abutoqiylar Abbos ibn Tarxon Samarqandiy, Abuqafs Samarqandiy, Xanzol Bohdisiy, Mas'ud Marvoziy, Feruz Mashriqiy, Muhammad ibn Vosif Sahziy, Abusoliq Gurgoniylar, Abbos Marvaziy, Bassom Kurd Xorijiy, Muhammad ibn Muhallidlar mazkur adabiyotning vakillari hisoblanib, ularning ijodida xalq ogzaki ijodining ta'siri kuchli edi. Tojik yozma adabiyotining asoschisi sifatida Abu Abdulloh Rudakiy tan olingan.

V-XI asrlarga kelib tojik mumtoz adabiyotida ruboiy (Ibn Sino, Umar Xayyom), gazal (Unsuriy, Farruxiy, Manuchehriy), qashida janrlari bilan bir qatorda dostonchilik ravnaq topdi. Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma", Asadiyning "Gurshaspnoma", Faxriddin Gurgoniylarning "Vis va Romin" dostonlari mazkur janrning yetuk nishonasi edi. "Zol va Rudoba", "Bijan va Manij", "Bahromi Chubina", "Temirchi Kova" kabi bir necha dostonlarni uz ichiga olgan "Shohnoma" asarida turli toifa kishilarining murakkab munosabatlari ifodasini toptan, Rustam va Isfadiyorlarning qahramona hayoti tasvirlangan.

X-X asr fors-tojik she'riyatida Nosir Xisrav va Umar Xayyomning alohida urni bor. Nosir Xisravning "Xudo bilan aytishuv" qasidasi, "Safarnoma", "Rushnoyinoma" asarlarida mumtoz adabiyotning an'ana va hoyalari bir muncha yangilangan bulsa, Umar Xayyom ruboiy janrining katta salohiyatga ega ekanini namoyish etdi.

Nazira, tatabbu' janrlarini XII asrda Sobir Termiziy uz asarlari bilan boyitgan bulsa, ijtimoiy hayotning illatlarini hajv kulgi asosida Suzaniy kalamga oldi.

XSh-XIU asrlar tojik adabiyoti ravnaqi uchun alohida mavjega ega. Aytish mumkinki, to Abdurahmon Jomiygacha tojik adabiyotini yuksak chuqqiga olib chiqqan Jaloliddin Rumiy, Xusrav Dehlaviy va Sa'diy Sheroziylar ayni shu davr mahsuli edi. Xusrav Dehlaviy Nizomiy an'anasini davom ettirib, mohiyatan yangi bulgan "Xamsa" yozdi. "Buston", "Guliston" asarlari bilan dunyo adabiyotiga hissa qushgan Sa'diy Sheroziy gazalchilikni yuqori pogonaga kutardi. Ulug mutafakkir Alisher Navoiy "Xamsa" dostonida ham, "Xazoyin ul-maoniylar" kulliyotida ham hazadda uch kishini tan olishini zikr etgan edi; Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiy.

XIII-XIV asrlarda urta Osiyo va Eronning shahar hamda kishloklari muqullar istilosida toptaldi. jonli urushlar va xalqqa qilingan zulm, ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning ogirligi shoir va yozuvchilarning ham ijodiga ta'sir qildi, Hofiz Sheroziy, Kamol Xujandiy, Nosir Buxoriylar fors-tojik adabiyotidagi gazal va ruboiy janrlarini takomillashtirishga harakat qildi, Ubayd Zakoniylar "Risolai axloq-ul-ashrof", "Yuz nasihat", "Sichqon bilan mushuk" asarlari bilan hajviy satirani rivojlanishiga munosib ulush qushdi. XV asrga kelib Samarqand, Buxoro, Hirot kabi shaharlarda adabiy hayot qaytadan jonlandi. Kupgina shuaro zullisonayn ijodkor tarzida faoliyat yurita boshlashdi. Ayniqsa, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy urtasidagi dustona munosabatlar mazkur masala buyicha namuna bula oladi. Fors-gojik adabiyotini Abdurahmon Jomiy uzining "Haft avrang" va "Baqoriston" asarlari bilan shakli ravishda yuksak chuqqiga olib chiqqan bulsa, Husayn Voiz Koshifiy uzining "Kalila va Dimna" (qayta ishlaydi), "Anvori Suhayliylar", Davlatshoh Samarqandiy, "Tazkirat-ul shuaro" asarlari bilan mavjud an'analarni takomillashtirdi. XV-XVI asrlarda fors-tojik adabiyotini Zayniddin Vosifiy "Bedoye-ul vagoye", Binoiy, qiloliy, Abdurahmon

Mushfiqiy "Taqsimi meros" asarlari bilan takomillashtirgan bulsa, XVII asrda asli hunarmand bulgan Mulham Buxoriy, Fitrat Zard uzi Samarqandiy, Sayido Nasafiylar alohida salohiyatga ega buladilar. Ayniqsa, Sayido Nasafiylar hayvonlar timsolida ijtimoiy hayotni real tasvirlashga intildi. Masal janrida yaratilgan "Hayvonotnoma" asarining tili sodda, vazni ynoqi, mazmunan tushunarli. Sher va chumoli, navvoy va musavvir siymolarida shoir tazod, tarse', jonlantirish, mubolaha san'atlaridan umumli foydalanadi. XVIII-XIX asrlar tojik.-she'riyatida Mirzo Abduqodir Bedil ijodining ahamiyati katta. Uning she'rlarida tasavvufiy goyalar barobarida zamonaning mavjud hayoti, odamlar orasidagi har xil munosabatlar ishonarli tarzda ifodasini

topgan. Ayni shu davrga kelib gariyb shakllanib bulgan tojik adabiyetida gazal, ruboiy, qita, masnaviy, hasida, doston, nasriy memuarlar -tamsiliy asarlar, tazkira kabi kuyalab janrlarda ijod etildi. Tojik ma'rifatparvarlik adabiyotini yalovbardori - Ahmad Donish. Xuddi Mirzo Fatali Oxundov, Abay Qunonboyev, furqat, Zavqiy kabi ziyo tarqatishga bel boglagan Ahmad Donish xalqni haflatdan uygotib, atrofga teranroq nigoh bilan qarashga, ilm olishga undaydi. Keyinchalik uning goyalarini Savdo, Shohin, Voze, Qayrat, Asiriy, Sadriddin Ayniy davom ettirishdi.

Shuro davrida tojik adabiyotining yetakchi janri she'riyat buldi. Sadriddin Ayniy, Pulat Sulaymoniy, Majid Razimiy, Loqutiy turli ijtimoiy masalalarni kuylashga harakat qildilar. "Buxoro jallodlari", "Odina", "qullar" asarlari bilan Sadriddin Ayniy tojik nasrchiligini boshladi, desak mubolaga bulmaydi. Maksim Gorkiy, Mayakovskiy, Sadriddin Ayniy, Lohutiylarning adabiy maktabida tarbiya olgan M.Tursunzoda, A.Dehotiy, .Yusufiy, M.Mirshakar, R.Jalil, J.Ikromiy. S.Ulutzoda, F.Niyoziy, B.Rahimzoda kabi iste'dodli qalamkashlar adabiyot maydoniga kirib keldi.

Fashizmga qarshi kurash yillarida Sadriddin Ayniy "Temur Malik", Loqutiy "Tanya galabasi", "Mardiston dostoni", Tursunzoda "Vatan uli", Mirshakar "Baxt kaliti", Niyoziy "Vafo", Ulutzoda "utda", Ikromiy "Nodirning uyi" asarlarini yozdi.

1950 yillardan sung tojik adabiyoti yangi ovozlari bilan boyidi. Shukuqiy, Mirzo, Ansoriy, Farxat, F.Muhammadiyev, B.Ortiqov singari unlab shoir, dramaturg, yozuvchilar ustozlar an'anasini davom ettirishdi. Bundan tashqari, Sayfi Saroyi, qutb, Alisher Navoiy, Hamza, Ashad Muxtor, Sharof Rashidov, Abdulla Qahhor, Oybek kabi uzbek mutafakkir, adiblarining asarlari tojik tiliga girildi. Shu barobarida uzbek kitobxonlari Lohutiyni "Evropa safari", "Baxt parisi", Mirzo Tursunzodaning "Hasan aravakash", "Hindiston qissasi", R.Jalilning "Pulod va Gulru", Jalol Ikromiyni "Olov qizi", Sotim Ulugzodaning "Yoshligimiz tongi" asarlaridan baqramand bulishdi.

Abu Abdulloh Rudakiy (858-941)

Abu Abdulloh Rudakiy fors-tojik adabiyotining asoschilari: bulib, Somoniylar podsholigi zamonida Buxoroda tugilgan. Zamonasining mashhur tarixchi, faylasuf. olimlaridan muntazam tahsil olgan Abdullohni saroyga chakirishadi. Rudakiy yozgan asarlarning oz miqdori bizgacha yetib kelgan. Unda shoir haqiqiy xayotni tasvirlashga harakat qiladi. Ayniqsa, "qarilikdan shikoyat", "May onasi" qasidalar va unlab ynoqi, ravon, sermazmun gazallari kishini uziga maftun etadi, Shoir ijodini ilmiy urgangan olimlar uning "Kalila va Dimnavni nazmga aylantirganini qayd etadilar. Somoniylar saroyidagi muhitga urganolmay qolgan Rudakiy uzi tugilgan Panjrudak qishlogiga qaytadi. 941 yilda sha yerda vafot etdi. 1957 yili dunyo buyicha Rudakiyning 1100 yilligi keng nishonlandi. 1963 yilda Tojikiston hukumati eng yaxshi badiiy asar uchun Rudakiy nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etdi.

"qarilikdan shikoyat" asari shoir Rudakiyning kasbi qoli tarzida qabul qilinadi. Uzbek tiliga Gafur Gulom judda sodda, ravon tarjima qilgan. Shoir qarilik holatini tishining tukilishi, sochini oqarishi, haddining xam bulishi tarzida tasvirlaydi:

Tyshim bari tukilib ketdi, durri galton edi,

Ularni tish dema, balki charogi tabon edi

Oqish kumush edi-yu, xuddi durri marjon edi.

Bulokning qatrasi yoinki tongda chulpon edi.

Dunyoning bevafoqligini uqtirgan shoir yoshlik kezlarini eslaydi. Shod-xurram yurganiyu gajak-tajak qora sochini, atlas kabi yuzining tinikligiyu bir kup kanizaklar unga oshikdigini zavq bilan qalamga oladi:

Sen, ey yuzi tulin oydek guzal, ne bilgaysan?

Besh-olti kun nari qulim nechogli shodon edi?

Kupincha sen gajaging birla menga maktanasan?

Gajak-gajak qora sochim misoli chavgon edi

Yuzim tekisligi atlas kabi zamoy utdi,

Mening sochim u zamonda qaro-yuqatron edi.

Rudakiy yoshligidagi ijodiy shijoatni tasvirlarkan, she'riy tilining burroligini alohida uktiradi.

shanda u uzini eng boy inson deb biladi:
 Ailim xazinasini suz gavhari-la limmo-lim,
 hayonga xatki yozibman she'r muhr-unvon edi
 Kurib turibsan uzing Rudakiyni, oy yuzlim,
 Kurolmading uni, attangki, u boy inson edi.
 Hoir uzining yigitlarning yigiti, she'rlari olamga manzur, devon tuzgan Xuroson shuarosi deb
 bilib, mazkur yuksalishning ulug' manbai Somoniylikiga alohida urg'u beradi:
 Butun she'rlari manzuru tinglamish olam,
 Butun she'rlari uz- uzigacha devon edi
 Uning she'rlarini tinlagan jahon utdi, Kechib zamonaki, ul shoiri Xuroson edi Tuyin-tukin, bu
 ulug'lik sabablarini surasang, Bu n'batu bu ulug' manbai oliy Somon edi. Asar oxirida shoir
 xulosalaydi: avvalo, umr utdi, tishlar
 tukilib, sochlar oqardi, qarilik uz haqqini oldi. Yoshlikdagi
 qiziqishu quvonchlar utdi-yu ketdi. Ikkinchidan, biz yashagan yoshlik
 damlari va quvonchlarining vaqti zamoni utdi, ya'ni endi
 Somoniylar davlatining zamoni emas:
 Zamona aynadi, men ham tamoman uzgardim, Asomni qulga ber endi, u boshqa davron edi
 Xullas, Rudakiy mazkur asarida tug'ilishidan to qarilikkacha
 bulgan davrini real tasvirlashga intiladi.
 Rudakiy qit'alarida kutarilgan mavzu ijtimoiylikdan odamiy
 munosabatlarga tadi, ya'ni zamonadan noliyotgan shoir birdan
 samimiy ishqqa utadi.
 Zamona menga juda qimmat nasihat etdi,
 Agar bilsang, zamon tula nasihat erur
 Dedi: uzidan balandroqni kurib ham yema.
 Kup kishi bor, sen bulishni orzu qilur
 Uning fikricha, ishq manidan bir tomchi Nil daresiga tushsa, hidi naxangni mast qiladi. Agar
 sahroda chankagan kiyik bir qatra ichsa, uzini arslonday tutib, sherni nazariga ilmaydi. Ishqqa
 muhtalo oshiqqa har qanday tusiq pisand emas:
 Bu maydan bir tomchi Nil ichra tushsa,
 hamisha mast qilur hidi nahangni
 Kiyik bir qatrasin sahroda ichsa,
 Arslondek kuziga ilmas palangni
 Rudakiyning "Jahonni shodligi yiqilsa bugun..." matla'i bilan boshlanadigan masnaviysini
 Muinzoda guzal tarzda tarjima qilganki, kattadan kichik barchasi yod olgan:
 Jahonni shodligi yigilsa butun,
 Dustlar diydoridan bulolmas ustun
 har qancha bulsa ham olamda achchiq,
 Achchiqroqdir dono dustdan ayriliq
 Odamdan yuqori turarkan olam,
 Byalim oshirmoqqa muhtojdir odam
 Aqli kishilar har qaysi tilda,
 har qanday zamonda, har qaysi xilda
 Bilimlarni tuplab, hurmat etdilar,
 Toshlariga naqsh etib, bitib ketdilar:
 Odamlar qalbining chiroqi bilim
 Yomondan saqlanish yarog'i bilim,
 Agar menga birov dushmanlik qilsa
 Doimo dustlikni kuzlayman unga,
 Muloyimlik bilan suzlayman unga
 Sa'diy Sheroziy (1189-1292)
 Musharafiddin ibn Muslihiddin Abdulloh taxallusi Sa'hasidagi ma'lumotlar turli tazkirada

turlicha keltiriladi. Shu bo'kupgina olimlar uning hayoti va ijodi tugrisida fikr bildirganda shoir asarlaridagi qaydlarga suyanishadi. U 1189 yilda Sherozda amaldor oilasida tugilgan. Otasi Sa'd binni Zangiy yulida ishlagan. Bu yakda Sa'diy "Guliston"ida yozadi:

Maya on goh sari tochvar doshtam,

Ki cap dar kanori padar doshtam

Sa'diyning oilaviy ahvoli haqida tuliq ma'lumot yuq. Ammo fors hokimi Shamsiddin Toziguyiga murojaaat kilganidan yaqqol kurinadiki, Sa'diyning oilasi ogir ahvolda yashagan:

3-ahvoli barodaram ba tahlil,

Donam, ti turo xabar naboshad

Az goyati fikr doim uro,

Shalvor ba yaoy dar naboshad

Sherozda siyosiy ahvol notinch bulgani uchun Sa'diy Bahdodga yul oladi va u yerda Nizomiya madrasasida tahsil oladi. Ilk ustozi Abdulfaraj Abdurahmon ibni Javziy (1186-1257) edi. Eng muhimi tasavvuf ta'limotining asoslarini urganish niyatida Sa'diy 30 yil safar qilib, Arab, Eron, Turk va Rum mamlakatlarida buladi. Sa'diyning mazkur yurtlardagi sayru sayohatining batafsil bayoni yuq. Ammo undagi tafsilotlar "Buston" va "Guliston"da aks ettirilgan. 1257 yili 68 yoshida bulgan Sa'diy dunyo buylab sayohatini tugatib, Shayx Abu Abdulloh ibni hafif xona hoqida gushanishinlik qila boshladi. Zamonasining ulug' murshidi Shamsiddin Juvayniy uni uz xonahohiga chorladi. Ammo Sa'diy pirning taklifini qabul qilmadi. 1292 yili shoir 103 yoshida vafot etadi.

"

Mumtoz adabiyotning barcha janrlarida ijob qilgan Sa'diy Sherozga kaytgach parokanda she'rlarini jamlab, 1257 yilda "Buston: 1258 yilda "Guliston", turt devondan iborat kulliyotini yezdi devonlar:

1. "Tayibot"

2. "Badoye"

3. "Xavotim"

4. "Gazaliyoti qadim"

Sa'diyshunos olimlar shoirning qalamiga mansub asarlarni quyidagicha tartib beradilar: "Buston", "Guliston", "Qasoid", "Tarjebband", "Devoni Tayibot", "Devoni badoye", "Devoni xavotim", "Gazaliyoti qadim", "Qit'alar, ruboiylar va fardlar", "Chor risola" (maktublar va javoblar), "Soqibnoma".

Kalom falsafasini rivojlantirib, uni mumtoz adabiyotga olib kirgan shoir Sa'diydir. U olam va odamni yukdan bor qilgan Tangri

Taoloning qodiru tanholigini tan olib, insonning oliy xilatiga iymon keltiradi. Bir she'rida yozadi:

Ba umrash vu\$ud az adam naqsh bast,

Ki donad chuz u kardan az nest qast

Digar raj ba kapur adam darbarad,

V-az on chr ba saqroi mahshar barud

Sa'diy-sufiy shoir. U tasavvufdaga aqoidlarni muttasil urganib, uni "Buston" va "Guliston" tarkibidagi hikoyat va she'rlarda singdira oladi. Ayniqsa,- nafs, nafsni tiyish, kibr, manmanlik kabi sufiylarga illat bulgan xususiyatlarni taxlil etarkan Sa'diy shunday xulosa qiladi: sufiy uchun yeyish, ichish muhim emas. Eng keraklisi - kungildan Ollohga siyinish, odamlar orasida yashab ularga foyda keltirish, nafsini tiyish, riyedan saqlanish:

Na chandon bixur, k-az daxrnat baroyad,

Na chandon ki az za'f chG'emat baroyad

Adolatli shoh masalasini Sa'diy ilk bor badiiy tarzda ifodalagan. Uningcha, davlat adolatli podshoh bilan rivojlanadi. Adolat va ma'rifat shohning asosiy tamoyili b lishi kerak. Keyinchalik shu goya Alisher Navoiyning "Xamsa"sida, tutrirogi, "Sa'diy Iskandariy"da guzal tarzda ifodasini topdi. Sa'diy yozdi:

Vagarna roin (chutgon) xalq ast, zahri morash bod,

har on chy mexurad az chiz'yai musulmonist

"Gulistonmda dunday hikoyat bor. Bir kuni Sulton yuldan utib ketayetsa, bir darvesh yul ustida tirardi. Darvesh podshoh (Sulton)ga salom bermadi. Sulton ranjib dedi: "Bu xirhapushlar hayvonga uxshaydi, odamgarchilikdan asar ham yuq". Vazir darveshning oldiga kelib dedi: "Ey gumroh javonmard, zaminning podshosi sening oldingdan tayapti-yu, sen nega yugurib borib uning xizmatni qilmading, xurmatini joyiga quymading ?". hech kimdan tama' qilmaydigan darvesh javob ayladi: "Sultonga yetkazingki, odamlardan umidvorlik yunilmasin, mulkiga kup oshufta bulmasin. Odamlar mulkka emas, mulk odamlarga xizmat qiladi".

Podshoh posboni darvesh ast,

Garchi romish ba farri davlati ust

Gusfand az baroi chupon nest,

Balki chupon baroi xidmati ust (Romish - rohat - farohat; Farr - sha'nu shavkat). Pandu hikmat - xalqning yillar davomida tuplagan aqliy zakovati. Sa'diyning "Guliston" va "Buston" idagi pand - nasihat, mav'izalar mavzu jihatdan turlicha: ilmu hunar urganish, jasorat, qahramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, sabr - qanoat, halollik, poklik.

Ilm olish har bir kishiga farz. Ammo unga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Sa'diy yozadi: "Du kas ranchi behuda burdand va sa'yi befoida kardand: Yake on ky mol anduxtu naxurd va digare ilm omuxtu amal nakard". Fikrini davomida shoir uxtiradiki, ilm olih dahru dunyodan voz kechish, uzlat qinish emas, aksincha, dunyoni urganish. Ilmning asosi - takror va mubohisa, uning xusni - sabr, andisha hamda odob, ilmga illat - manmanlik, kibr, riyokorlik, tama'. "Guliston"da Sa'diy tasavvufning asosiy tamoyili sanalgan qanoatga alohida bob keltiradi. Uningcha, qanoat insonga ma'naviy kuch beradi:

qanoat tavongar kunad mardro,

Xabar deb qarisi chahongardro

Sabr qilgan odam uz murodiga yetadi. Lekin bu dunyoning ishlari shunchalar haliz, tushunarsizki, uni yo qanoat, yo tuproq tuldiradi.

Guft: Chashmi tangi dunyodorro,

Yo qanoat pur kunad, yo xoki gur

Aruzning mutagoribi musammani mahsur (faulun, faulun, faulun, faul) vaznida yozilgan "Buston" quyidagicha tartiblangan:

1. Kitobning yozilish sabablari

2. Kirish va ilova qayudda

3. Kitobxonga murojaat

4. Unta bob

Boblar quyidagicha: adl, ehson, ishq, tavoze', rizo, qanoat, tarbiyat, shukur, tavba, munojot. "Buston" asari yagona syujet va kopozitsiyaga ega emas. Boblar alohida - alohida xulosa va hikoyatga ega bulib, muayyan bir goyaga xizmat qiladi. "Guliston" Sa'diyning ikkinchi asari bulib, hijriy 656 (mil. avvalgi 1258) yilda yozilgan. U debochadan tashqari sakkiz bobni uz ichiga oladi: podshohlar, darveshlar axlohi, qanoat fazilati, xomushlik qoidalari, ishq va yigitlik, qarilik va zaiflik, tarbiya ta'siri, suhbat odobi. Shoirning uzi qayd etganidek, "Guliston"ning asosi pand - nasihat

Murodi mo nasixat budu guftem

havolat bo xudo kardemu raftem

"Guliston"da ham yagona syujet yuq. ?ar bir bobga alohida hikoyat keltiriladi. Asarning badiiy qimmatini ta'minlovchi asosiy omil nazm va nasr vobasta etilgan. Ifodalarning jonli, ishonchli bulishi uchun Sa'diy hajv, tazod, tarse', mubolaha va boshqa badiiy san'atlardan foydalangan. Sa'diy adabiy merosining asosiy qismini nazm tashkil qiladi. Masnaviy, ruboiy, qita, fard, gazal, tarje'band kabi janrlarda ijod qilgan Sa'diy gazalchilikda Firdavsiy va Anvariyni alohida hurmat bilan tilga oladi.

Dar she'r se tan payambaronand,

garchand ki lonabiya ba'dy

Avsafu qasidavu hazalro:

Firdavsiyu Anvariyo Sa'diy

(lonabiya ba'dy-Nabidli bosh? a tuqilmaydi; Avsaf-vasf).

Chor devonga kirgan asarlarning asosiy qismini 632 gazal tashkil qiladi. gazallarning asosiy mavzusi - ishq. Mumtoz

adabiyotda tasnif etilganidek, ishq haqiqiyini xuddi Sanoiy, Attor, Jaloliddin Rumiy kabi Sa'diy gu zal tarzda kuylaydi:

Suxan berun mag y az ishq, Sa'dy,

Suxan ishq astu digar qilu url ast Yana bir rinda ma'shuhani shunday chizadi:

Mah ast on yo malak ye odamizodi

Tuy yo oftobi olamafr uzi

She'riy satrlarni tazod, tashbeh, istiora, mubolaga, tajnis, mullama' - shiru shakar kabi san'atlar bilan ziynatlagan Sa'diy mahorat borasida Hofiz Sheroziyga ustoz buldi,

1) Tazod san'ati:

Balo'i ishki tu bar man chunon asar kardast, Ki pandi olimu churil namekunad asaram

2) Mubolaga san'ati:

Fap gussai ruzgor guyam,

Bas qissai beshumor guyam

Yak umri hazor sol- boyad

To man yake az hazor guyam

3) Talmeh san'ati:

Man avval ruz donistam, ki bo Shirin daraftodam, Ki chun Farhod bond shust dast az chnri Shirinam

4) Mulamma' san'ati:

Ey sh urai shahru fitnai xayl, Fi manzarik annahoru vallayl (arabcha tarjima: ruyi tu safed astu zulfat siyoh)

5) uxshatish san'ati:

Garchi tu amiru mo asirem,

V-ar chi tu-buzurgu mo--a.hirem

Garchi tu ganiyu mo fakirem,

Dildorii duston savob ast

Amir Xusrav Dehlaviy (1253-1325)

Xusrav Dehlaviy Keshdd yashagan hazorai Lochin turk havmidan b Agan. To mugullar istilosigacha ular Poimurh va Keshda tirikchilik utkazgan. Mugullar bostirib kirgach mazkur havm Hindistonga kuchib boradi va uning otasi Sayfiddin Mahmud Dehlidagi bir Sultonning qulida xizmat qiladi. Otasi 1261 yilda (hijar 651) Hindistonda mugullarga qarshi kurashda halok buladi. Maktab va Madrasa tahsilini olgach u 1273 yili Sulton Mamluk xizmatiga utadi. Keyinchalik Dehlida Giyosiddin Balban, 1281 yili Qiyosiddin Muhammad Sulton uni xizmatiga oladi. 1286 yili u Patyoliyga onasi va ukasini oldiga qaytadi. Amir Xusrav Dehlaviy tasavvuf ilmini urganib, darveshlikni ixtyayor qildi va Shayx Nizomiddin Dexdaviyga murid tushdi. 1299 yilda uning boshiga musibat tushdi, ya'ni onasi va ukasi vafot etdi. Bu gamni u "Majnun va Layli" asarida ham tilga oladi. Tarixiy manbalarda keltiradiki, Amir Xusraviyning yetgi farzandi bulgan:

1. Mastura

2. Ma'sud

3. Xizr

4. Rukniddin

5. Afifa

6. Ayniddin Muborak

7. Malik Ahmad

Dexlaviy merosini quyidagilar tashkil qiladi: "Chor devon"

1. "Tuhfat - us - sigar" (yoshlik ayyomi, 1272}

2. "Vasat ul - hayot" (urta yosh, 1286)
3. "Gurra ul - kamol" (kamolot davri, 1302)
4. "Baqiyat - ul - naqiya" (qarilik, pirlik, 1314)
Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa"siga javoban "Panj ganj"i yozadi:

1. "Matla' - ul - anvar" "Maxzan - ul - asror"ga javob tarzid? bitilgan,
2. "Shirinu Xusrav" - "Xusravu Shirin"
3. "Majnun Layli" - "Layli Majnun"
4. "Hasht biqisht" - "Haft paYkar"
5. "Oinai Iskandariy" - "Iskandarnoma"

Tarixiy mavzularda quyidagi asarlarni yozgan:

1. "Duvalrony va Xizraxon"
2. "Qiron - us - sa'dayn"
3. "N ? sipehr"
4. "Tuhluqnoma"
5. "Ruh ul - oshigin"
6. "Mantiq ul - ushshoq"
7. "Xazoin ul - futuh"

Xusrav Dehlaviy maktublarini yigib, "E'ch-ozu Xusraviy"ni tuzgan bulsa, insholarini "Inshoi Amir Xusraviy" sarlavhasi bilan tartib berdi. Amir Xusrav yozgan "Xamsa"ning besh dostonini tuluq taxlil etishning iloji yuqligi boi "Matla' - ul - anvar"dagi boblarning mavzularini kurib chiqamiz. Mazkur asarni shoir ikki hafta ichida yozgan. U 3310 baytdan iborat bulib, musaddasi mahsur vaznida yozilgan. Avvalgi maholat baland daraja va martabaga ega inson haqida. Muso paygambar tugrisdagi hikoyat fikrlarining isboti yanglig kuzga tashlanadi;

Charx turo bagri sharaf soxta,

Tu tani xud degi alaf soxta

Dil, ki zi pasti suy bolo shitof,

har chy furu did, hama hech yoft

Ikkinchi mahola ilm fazilati va johillik xususida bulsa, uchinchisi qalb, ruh va shuurga ma'naviy ta'sir etuvchi suxan, turtinchisi Olloxning yagonaligi hamda musulmonchilikning 5 asosi, beshinchisi pokiza axloh, oltinchisi s fiylik va tarkidunyochilik, yetginchisi nafs pokizaligi, sakkizinchisi ishq ,martabasi, tuqqizinchisi dustlik, ninchisi ota-ona va farzand hamda xesh taborlarning munosabati, un birinchisi javonmardlik, saxovat, husumat, un ikkinchisi islom goziylari - podsho-ari, un uchinchisi-mamlakat hukmdorlari, un turtinchisi - diyonat, un beshinchisi-shaxsning adabi, un oltinchisi - insonning surat va siyrati, un yettinchisi umrning uch fasli - yoshlik, yigitlik, qarilik, un sakkizinchisi vahdat ul - vujud, -un, tuqqizinchisi dunyoi dundan shikoyat, yigirmanchisi farzandga nasihat xususidadir. Ayni shu "Matla' ul - anvor"ni yezayotganda shoir yetmish yoshda bulib, asarni qizi Masturaga nasihat bilan xotimalaydi.

Ey ruhi tu chahmu charogi dilam,

Xubtarin meva uzi bogi dilam

Garchi ki ixvoni tu nek axtarand,

Ne zi tu dar didai man behtarand (Ixivon - barodaron - birodarlar).

Xusravning mazkur nasihatlarini faqat qizi Masturaga tegishli deb tushunish xato bulardi. U barcha farzandlarga taalluqli. har qanday farzand uchun qanoat, sabr-gohat, munosib axloh bezak sanaladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Xusrav Dehlaviy suz san'atkori, shoir, nosir, olim, tarixchi. Garchi Hindistonda yashgan bulsa da, XIII-XIV asr fors-tojik adabiyotining yetuk vakili sifatida kupgina janrlarda ijod qildi. Xamsachilik an'anasini davom ettirib, besh mustaqil dostonidan iborat "Panj ganj"ni tartib berdi.

Hofiz Sheroziy (1320-1389)

Sharhning yetuk vakili, shoir, mutafakkir Hofizning tarjimai quli haqida tuluq ma'lumot yuq. Ba'zi she'riy baytlarda shoir uz tarjimai qoli haqida gapiradi, xolos Shamsiddin Muhammad

Hofiz Musallo mahallasida (Sheroz shahri) savdogar oilasida tugilgan. Uning avlodi savdogar-tijjorlarga mansubligi uchun "Xoja" taxallusi berilgan. Shoirning bobosi asli Isfaqonlik bulib Sherozda hunarmandchilik va savdo-sotiq qilardi. Shoir oilasida uch gil bulgan. Hofiz Sheroziy kattasi edi. Otasi vafot etgach Hofizning oilaviy ahvoli qiyinlashadi. 1882 yilda Bombeyda nashr etilgan Hofiz kulliyotida uqtiriladiki, Hofiz tirikchilik vajidan nonvoyxonada ishlagan. U bir qism topgan puliga onasi va uzini boqqan, bir qismini madrasaga sarflagan, yana bir ulushini beva-bechoralarga tarqatgan. Keyinchalik ilmni mukammalroq urgangach, madarasada mudarrislik qila boshladi. Asta-sekin Hofizning obr yi osha boshladi. Forsu Iroq, Ozarbayjonu Eron, Hindiston, Movaraunnahru Xuroson shoir aigyorlaridan bahramand bula boshladilar. Bir baytida Hofiz yezadi:

Ba she'ri Hofizi Sheroz mexonandu merahsand,
Siyahchashmoni kashmiriyu turkoni samarqandy

Hofiz Sheroziyning adabiy merosi unchalik katta emas, bor-iuti bir devon-kulliyot. uzi devon tuzishga ragbat kursatmagan bulsa-da, jamoatchilik uning she'rlarini jamlab, hijriy 827, melodiylar 1423 yilda tartib berishgan. Mazkur kulliyotga 4 kasida, 495 gazal, 34 qit'a, 2 masnaviy, 41 ruboiy jamlangan. She'rlarning asosi gazal. Unda jamiyatning turli qatlami, hayot tarzi, dunyoqarashi 3 ifodasini topgan. Shoir suzadi:

Ustodi gazal Sa'dist peshi qama kas, ammo,
Dorad suxani Hofiz tarzi suxani Xoch-u

Shoir ijodini shartli ravishda ikkiga bulish mumkin: avvalo-davrayi javoni-yoshlik, yigitlik to qirq yoshigacha. Ayni shu davrda zahmat va qiyinchilik, ilm tahsili, mayxurlik, aysh-ishratu ulfatnamozlik paytlari;

Mo aybi kas ba rindivu masti namekunem,
La'li buton xush astu may xushguvor ham

Hofiz yozadiki, yigitlikda mayu sharob, zebo majlislar yarashadi, qarilikda toatu ibodat. Ammo hamma vaqt inson qilgan ishdan xulosa chiqarib, gunohlari uchun tavba qilishi kerak:

Gar mayfurush qochati rindon ravo kunad,
Ezid gunah bubaxshadu avfi xato kunad

Hofizning ishq va sufiylik tutrisidagi fikrlari, ayniksa, sufiylarning tabahalanishi alohida diqqatga molik. U ham kishilarni uch tabaqaga buladi:

1. Zohidlar - karomat va ilohiy ilmdan bexabar, faqatgina
dunedan tarki invizo qilgan xudoj ylar, ya'ni ibodlar.

2. Sufiylar - hamma ishni xudodan bilib, zuhdu --gahvo bilan
band muddaiyonlar. Ularni "malomatiylar" deb ham
atashadi. Shoir yozadi:

Vafo kunemu malomat kashemu xush boshem, Ki dar tariqati mo kofirist ranCh(I dan
Ammo Hofiz zohidlikning qotib qolgan akridlariga qarshi bulsa-da, dinsiz emas.

May na on urindam, ki taroy shohidu sogar kunam, Muhtasib donad, ki man in korho kamtar
kunam

3. haq oshiklari - odamlar orasida yashab, toat-iboda'
unutmagan holda halol, pokiza tirikchilik utkazadiganla]

Visoli uzi umri chrvidon be?, Xudovando, maro on deb, ki on beh!

Hofiz lirikasidagi eng muhim tushuncha - may. Gazallarda quyidagi ma'noni anglatadi:

1. Ijtimoiy hayotga nafratni ifodalash vositasi: Sohiye barxezu dar deb chrmro, Xok bar cap
kun gami ayyomro

2. Odamlarni ogohlikka chaqiruvchi kurol:

Bar mehri charxu ishvai u e'tibor nest, Ey voy bar kase, ki shud emin uzi makri vay

3. May Hofizning "men"ini ifodalovchi asosiy omil. Masalan,
ba'zi bir ahidaparastlar musixa va nahmani insoniyatga makruh
deb bilishadi:

Zohid sharobi kavsaru Hofiz piyela xost, To dar miyona xostqi kirdigor chisth Hofiz tu to ba kay
gami molu jahon xury, Bisyor ham maxur, ki ch-hon nest poydor.

Ma'naviy va lafziy san'atlar Hofiz gazallarida uzining guzal ifodasini topgan.

Tashbeh:

Subhi davlat medamad, ku ch-omya hamchun oftob,

Fursate uz-on beh kujo boshad, bideh chomi sharob!

Tajoqli orifona:

Bogi maro chy qoch-ti sarvu sanavbar asti

Shamshodi soyaparvari man az ky kamtar ast?

Tazod:

Zi podshoku gado foriram, bihamduldoh,

Gadoi xoki dari dust podshohi man ast

Talmeh:

Man az on qusni ruzafzun, ki Yusuf dosht, donistam,

Ki ishq az pardai ismat burun orad Zulayxoro

Laffu nashr:

Fared, ki az shash ch-ihatam roh bubastand,

On xodu xatu zulfu ruhu orazu hurmat.

Hofiz Sheroziy ijodiyoti nafaqat fors - tojik adabiyoti namoyandalari balkim jahon adabiyoti vakillari uchun ulut manba sanaladi. Agar Hazrat Navoiy Hofiz she'rlariga tatabbu' bitib, uz shogirdlik mehrini ifodalagan bulsa, nemis klassigi Iogan Volfgang Gyote "Garb va Sharq" asarini Hofizdan urganib, Hofizona usulda bitdi.

Abdurahmon Jomiy (1414 - 1492)

XV asr fors - tojik adabiyotiyaing rivoji uchun eng muhim davr buldi. Temuriylar saltanatining takomili, temuriyzoda hukmdorlarning fan va san'atga homiyligi misli kurilmagan darajadagi yutuqlarga olib keldi. Qirot, Xuroson, Movarounnahr, Shom, Samarqand ulkan madaniyat va ma'rifat maskaniga aylandi. Tasviriy san'atda Kamoliddin Begzod, Mirak Naqqosh, qosimali, Muhammad Muzahqib, Muhammad Naqqosh, Shoh Muzaffar, naqqoshligu hattotlikda Amir Ali Tabreziy, Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Ali Xandon, Mir Ali Hilqalam, Darvesh Muhammad Buxoriy, Rafiqiy, musiqada Abduqodir Nay, Najmiddin Kavkabi, Husayn Udiy, Xoja Yusuf, Darvesh Ahmad Gijjak nom chiqargan bulsa,

adabiy muhitda bir qator adibu ulumolar qalam tebratishdi. Shoir

Ashraf - Shohruh Mirzo zamonida hirotida yashagan. Nizomiyning

"Maxzan ul-asror"iga javob tarzda "Minhoj ul-afror", "haft

paykar"iga "haft avrang", "Layli va Majnun"ga "Riyoz ul-oshigin",

"Xusravu Shirin"ga "Ishqnoma" asarlarini yozgan. Beshinchi asarni

ham bitgani haqida ma'lumot bor, xolos. Ali Osiy "Layli va

Majnun"ga javob tariqasida "hayol va visol", Fase? Rumiy "Xamsa", Xoja Imomiddin Lohuriy "Layli va Majnun", Amir Shayxim Suhayliy "Layli va Majnun", Abdullo qotifiy "Xamsa", Kotibi Turshezi Nishopuriy "Gulshani abror", "Nazir va Manzur", Kotibiy "Synoma", Mavlono Orifiy "G yu Chavgon", Mavlono Muhammad Axlii Sheroziy "Sham'u parvona", "Sehri xalal" asarlarini yozgan. Shu bilan birga Qosim Anvar, Jamoliddin Hamzai Azuriy, Oga Malik Shohiy, Sirojiddin Bisoti Samarqandiy, Buruhduhi Buxoriy kabi shoirlar gazal janrini baland mavqega yetkazishdi. Ayni shu davrda yashagan Husayn Voiz Koshifiyning "Anvori Suhayliy" asarini, Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" tazkirasini ta'kidlash joiz.

Abdurahmon Jomiy hijriy 817 yilning 23 sha'boni melodiy 1414 yilning 8 noyabrida Jom shahrida tugilgan. Otasi Ahmad ibni Muhammad Dashtiy uz zamonasining yetuk ziyolilaridan edi. Uning avlodi Isfahondan Jomga kuchib tadi. Otasi bilan hirotga kelgan Jomiy Nizomiya madrasasida Junayd Usuliydan ilk saboqni oladi. Keyinchalik zamonasining ulug mudarrisarlari Mavlono Xojali Samarqandiy, Sayid Sharif Jurjoni, Shahobiddin Muhammad Jojarmiy, Sa'diddin Taftazoniylardan saboq oladi, suhbatlaridan bahramand buladi.

Jomiy Nahshbandiya tariqatining buzurg murshidlaridan. Uning tariqatdagi ilk ustoz Sa'diddin Qoshqariy, ikkinchisi Xoja Ahrori Valiy edi. Hayot davomida Jomiy yetti marta safar qilgan: Avvalo, Jomdan hirotga; Ikkinchisi, Shohruhmirzo zamonida ilm olish maqsadida Samarqandga;

Uchinchi, Samarqanddan hirotga; Turtinchi, Xoja Ahrorni kutib olish maqsadida hirotidan Marvga; Beshinchisi, 1466 yilda Xoja Ahrori Valiy suhbatlariga yetishish uchun Samarqandga; Oltinchisi, Samarqandga. Ayni shu safar chogida Toshkand atrofida 1469-1470 yillarda Xoja Ahror bilan uchrashadi. Yettinchisi, 1472 yilda hirotidan mijozga, Makkaga. Safar chogida Jomiy Nishopur, Sabzavor, Bastom, Domgon, Simnon, Hazvin, Hamadon, Kurdiston, Bagdod shaharlarida ham buladi 1473 yil Jomiy Hirotga qaytib, umrining oxirigacha tu joyni manzil qiladi. U 1492 yil 25 noyabrda (hijriy 898, 17 muharram) hirotida vafot etadi. Ulug' murshidning ulimi Navoiy kabi shogirdlarga juda ohir zdi. Hazrat Alisher ustoziga bagi ilab "Xamsat ul mutahayyirin" asarini yozgan edi.

Jomiy adabiy merosini quyidagilar tashkil etadi:

1. "haft avrang" (haft sitora, haft tuxt)

- "Foteh - ush - shabob" (1479)

- "Vasat ul - aql" (1480)

- "Xotimat ul - hayot" (1491)

- "Silsilat - uz - zahob" (1485)

- "Tuhfat ul - ahror" (1481)

- "Solomon va Absol" (1485)

- "Suhbat ul - abror" (1481)

- "Yusuf va Zulayho" (1483)

- "Layli va Majnun" (1484)

- "Xiradnomai Iskandariy" (1484)

2. "Bahoriston"

3. "Nafahot ul - uns"

4. "Risolai muammoi kabir"

5. "Risolai mutavassit"

6. "Risolai tugrisi xojagon"

7. "Manohibi xoja Abdulloi Ansory"

8. "Risolai hofiya"

9. "Favoidi Ziyoiya fi sharhi hofiya"

10. "Sarfi forsii manzum va matssur"

11. "Risolai ar z"

12. "Risolai musihy"

13. "Munshaot"

14. "Risolai tarihi s fiyon"

15. chAsh'at - ul - lamaot"

16. "Sharhi ruboiyot"

17. "Sharhi bayte chand az masnavii Mavlavy"

18. "Risolai tahlili mazgabi s fy va mutakallim va hakim"

19. "Tarchutai arabayni hadis"

Olimlarning fikricha, Jomiyning barcha asarlari 96 nafarni tashkil etadi. Uning tasavvuf tarihatiga mansubligi gazallarida ham uz ifodasini topgan. Shu barobarida asarlar qat - qatida xalq ogzaki ijodining namunalari singdirklgan. J.omiy gazalchilikda Xayyom va urfiz yulidan borsa, qit'ashz-slikda Ibn Yamin, dostonchilikda Sa'diyni ustoz deb biladi. Masalan, "Bahoriston"da boblarni tartib berish, hikoyatlarni joylashtirshda "Guliston" an'anasidan foydalanadi,

3-mavzu (2 -soat)

XIX - XX asr tojik adabiyoti

Reja:

1. Ahmad Donish

2. Sadriddin Ayniy

3. Mirzo Tursunzoda

Bu davr adabiyotiga baho berish har tamonlama mantiq bilan ish yuritishni talab qiladi. Avvalo, 1860 yillardan boshlab Rusiya imperiyasi yurtimizni bosib oldi. uz- uzidan barcha narsalar shu buyuk davlat ravnaqiga sarflandi. Xalqning hayotiga, ma'naviy dunyosiga batamom uzga xalqning urf-odatiyu udumlari zurlab kiritildi. Ziyoli qatlami mazkur holatdan chiqittshing birdan - bir yuli deb ma'rifatni tushunishdi. Shu bois ma'rifatparvarlar bir bayrom ostida birlashib, ijod qilishdi. Afsuski, mazkur ma'rifatparvarlarning ijodi faqatgina isgilochilar nuqtai nazaridan tahlil etildi.

Ahmad Donish (1827 - 1897)

Ahmad Mahdum ibn Nosir Donish (Ahmad Kalla) 1827 yilda Buxoroda tugilgan. Buxorodagi madrasada ilmini charxlagach, ijtimoiy - falsafiy fanlarni mustaqil ravishda uzlashtirdi, Sharq mumtoz adabiyotining namoyandalari - Hofiz, Sa'diy, Ubaydiy, Umar Xayyom, Alisher Navoiyning asarlarini chuqur urgangan Ahmad Buxoro amiri saroyida munajjimlik vazifasida ishlay boshladi. Asta-sekin Ahmad rus tilini urganib, uz obr yini saroyda yanada mustahkamladi. Buxoro amirining elchilari qatorida 1857, 1869, 1874 yillarda Peterburgga boradi. shanda u ruslarning ijtimoiy hayeti, mamlakatni idora qilish usullari, rus yozuvchi va shoirlarining ijodi bilan yaqindan tanishadi. Buxoroga qaytgach uzining kurgan bilganlarini qogozga tushirgan Ahmad Donish davlatni idora qilishning usullarini tartibga solib, amirga tavsiya qiladi.

Ahmad uzining demokratik va ma'rifatparvarlik qarashlarini "Navodir ul - vahoye", "Buxoro mangit amirlarining tarixi" nomli tarixiy - biografik asarlarida real tarzda ifodalashga haraxat qilgan.

"Abdulqodirbekning elchiligi hamda Rusiyaning tuy bazmlarida kurilgan ajoyibotlar haqida" asarida shoir Peterburgdagi tuy tasviri bahonasida real hayotni tasvirlaydi. Avvaliga shaharning guzal kentlar sirasiga kirishi, Peterburgdagi shoh saroyining guzal tarzda bezatilganini tasvirlaydi.

Peterburg shahri senga poytaxt,
Aning chun anga yordur ikki baxt
Eram bogi bu shahardek bulmagay,
Buni kurgan kishi ani suymagay

Tuy bazmi utkaziladigan saroy olti qavat, qar vaqtda odamlar qat-qat, udi naylar, dutori tanburlar ovozi tinmaydi, devorlarda ipak gilamlar, oltin handillar osilgan.

quloqqa kirar udi naylar uni,
Dutori, setorlar cholur tanburi
qurilmish edi bu bino olti qat,
hama ustma-ust erdi, qatma-qat
handillar oltin osilmish edi,
Ipakdan gilamlar solinmish edi

Tuyga tashrif buyurganlar juft - juft bulib kelishgan. Ayollari nozik, ulardan xushbuy hid taraladi, tanlari xuddi tulin oydek, bellari ingichka.

Turar anda minglarcha qur qizlari,
Buyinga taqishgan asl durlari
Kuringay libos ostidan tanlari,
Etar yuz qadamdin alar hidlari
Bosh uzra solmish mush'abid turi,
Etak gulga tulumish, bel- kokili
Beli qil kabi kup ingichka edi,
Suzi shakkaru, lablari bol edi.

Bir qaraganda tasvirda hech qanday nomutanosiblik yuq. Ammo shoir uz maqsadini parda ichiga rab, "Kosa tigida nim kosa" qabilida ifodalaydi, ya'ni sha vaqtda Peterburg ayollari uzlariga zeb berib, oppoq, badannamo kiyimlar kiyishganini bir muncha tanhid qiladi. Chunki shoir ma'naviyati uchun badanni kursatish, yarim yalangoch yurish nomaqbul sanalgan.

Ahmad Donishning "Rusiyaga qilingan yana bir safar haqida" asari haqqoniylik, real tasvirlash

jihatidan alohida tahlilga loyiq. Voqea muallif tilidan bayon qilinadi. Tasvirlanishicha, Amirning xos elchilari Said Abd-'lfattoh tura Abdulqosimbey bilan birga Ahmad Buxorodan Rusiyaga ; ul oladi. U yerda qabul qilingan qoidaga binoan elchilarga shaharning diqqatga sazovor joylari, zavod va fabrikalar, maktab va ku-ubxona, xazina va uriqxonalar kursatiladi. Shoirning eng avvalo. diqqatini tortgan joy har bir shahardagi bazmxona - kechki kafelardir. Xuddi oldingi asarida tanhid qilinganidek bazmxonala'.-dagi holatlar real tasvirlanadi:

"Rusiyadagi har bir shaharda bazmxona bulib, ularda har kech soat 12 gacha turli yinlar bulib turadi. Hamma -navolar qilgan, raqsi samoga tushgan parichehra xotinlar sochlari sunbuldek sochilib, yuzlari qizil guldek ochilgan sarv qomat qizlar tomoshabinlarning kizlariga jilva berib, _ kungillariga rohat yetkazib, majlisni qizdiradilar. Bulardan tashqari bu bazmxonalarda har turlicha 'bada nayrang yinlari (illyuziya) ham utkaziladi. yinxonalariga xohlagan kishilar kirib, uz qollariga yarasha belgilangan joylarda tiradilar. yin tarqaganda tomoshabinlar tirgan urinlarga qarab haqini tulab chiqadilar",

Tasvirlar davomida shoir turli jabha mutaxassislariga uxshab fikr yuritadi. Muzeyni tasvirlaganda etnograf, uyning ichki va tashqi kurinishlarini tavsif etganda arxitektor, musiqa va qushiqnlarni tasvirlaganda musiqashunos, ayollarning kiyimlari tugrisidagi fikrlar ifodasida modeler-dizayn, saxna kurinishlari tahlilida teatrshunos, shahar rayetalarining uziga xosligini tahlil etishda yuqori mavqeli muhandis sifatida gavdalanadi. U biron-bir detalni esdan chiqarmaydi, mayda-chuydasigacha chizib beradi. Ayniqsa, ayollar kiyimlar tugrisidagi fikrlarga nazar solsak:

"Bu mamlakat xotinlarining liboslari bellarigacha tor bulib, beldan pasti esa kengdir. Etaklari shunday kengki, uning kengligidan uzlari uyga kirsalar, etaklari hali daqlizda qolur edi. Beliga ipakdan tugilgan belboglar boglangan bulib, undan yangi oyga uxshash ikki shohcha chiqarilgan. Belbogni qattiqroq tortib boglasalar, u shoxchalar bel atrofidagi ipak kiyimlarning kutarganligidan kupirma bulib kurinadi. Uning-ustidan qizil. qora kuk-gurlarni boshlariga. yelxalariga yopadilar. Yana boshlariga yangi uzilgan guldek bir dasta yasama gul qilib, uni yosh chetlaridad kelishtirib boglaydilar. Xurmo donasi uzunligida bulgan gavhar kuzli oltin sirha taqadilar: qorongi kechalarda uning shu'lası tushib, yarqirab yonib turadi. Mahbubalarning quloq uchlari nihoyatda tiniq bulganligidan, undagi qonning qizilligi va uning harakati sirtidan kurinib -turar edi, Shunday zeb-ziynatli nozaninlar urinlaridan turganlarida aql dimoq tokchasidan uchib chiqishga intiladi. Ajabo, bu qanday nafis san'at-va-ulug qudratki, inson togining bulogidan chiqqan bir qatra palid suvdan bunday ajoyib gullar__bu qora tuproq ustida ochilmishdir!"

Xullas, Ahmad Donish uz davrining ma'rifatparvari sifatida odamlarni ilm olish va dunyoning siru-sinoatini anglashga undaydi. Shu barobarida uz yurtining istiqloli uchun ilm olish, uzini ustirishi kerak degan fikrda qat'iy turadi. Bu goya sha vaqtdagi barcha ma'rifatparvarlarga xos edi.

XX asr tojik adabiyoti

Murakkabligi va kup qatlamligi bilan XX asr tojik adabiyoti namoyandalari sermahsul ijod qildilar desak mubolaha bulmaydi. Sadridin Ayniy, Mirzo Tursunzoda, Abdullays Lohutiy, Mirsaid Mirshakar kabi adibu shoirlar garchand shuro davrini kuylagan bulsa-da, asarlarining qat-qatida yashirin ma'nolar ham mavjud.

Sadridin Ayniy (1878 - 1954)

XX asr tojik va uzbek adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri Sadridin Ayniydir. U uzining "Doxunda", "qullar" romanlari, "Odina", "Etim", "Sudxurning limi" singari qissalari, turt qismdan iborat "Esdaliklar" asarlari orqali yangi xildagi, zamonaviy tojik adabiyotiga asos soldi, shuningdek, qardosh uzbek madaniyati, adabiyoti va san'ati taraqqiyotiga sezilarli ta'sir kursatdi. Shu sababli Ayniy ijodi ikki xalq uchun ham qadrlidir. U XX asrdagi uzgarishlarning shohidi sifatida milliy ozodlik harakatchang ham, Oktyabr tuntarishining fojeali oqibatlarini ham kurdi.

Sadridin Ayniy 1878 yil 15 aprelda Buxoro viloyati Gijduvon tumanidagi Soktare qishlogida tugilgan. un yil davomida Mir Arab, Olimjon Badalbek, Xoji Zoxid, Kukaldosh maadrasalarida

tahsil oldi. Firdavsiy, Jomiy, Rudakiy, Navoiy kabi buyuk suz san'atkorlarining asarlarini kunt bilan uqidi. Uning ilk she'ri 1895 yilda "Guli surx" sarlavhasi bilan dunyo yuzini kurdi. shu vaqtdagi siyosiy axvolga tugri baho berishda Sadriddin Ayniyga ma'rifatparvar shoir Ahmad Donishning "Navodir ul -vahoye", Xoja Marogiyning "Ibrohimbekning sayohati" asarlari katta dasturilamalb ddi. Sadrkddin Aynshshing asryamiz boshlaridagi faoliyati xalqni ilm- ma'rifatli qilishga bagishlagandir. U Buxoroda yangi usuldagi maktab ochib, "Yoshlar tarbiyasi" nomli darsligini tuzdi. Adibning "Odina" (1924), "Qulbobo yoki ikki ozod" (1928) qissalari, "Doxunda" (1930), "qullar" (1934) romanlari uning nomini jahonga tanitdi. Keyinchalik "Etim", "Sudxurning limi" qissalari, "Esdaliklar" asari tojik va uzbek adabiyetinyng sezilarli yutuklaridan biriga aylandi.

Sadriddkn Ayniy Tojikiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, Uz.RFA faxriy a'zosi etib" saylangan. Uning "Tojik adabiyotdan namunalar", "Firdavsiy va uning "Shohnoma"si", "Kamol Xujandiy", "Shayxurrais Abu Ali ibn Sino", "Ustod Rudakiy", "Alisher Navoiy", "Mirza Abdulqodir Bedil" singari ilmiy tadqiqotlari hanuz uz ahamiyatini yuqotgani yuq. Ayniy Tojikiston Fanlar akademiyasining birinchi Prezidenti sifatida qardosh xalqi ilmi, madaniyati rivojiga samarali qissa qushdi. U Fitrat, Abdulla Qodiriy, Chulpon, Oybek, Gafur Gulom, Hamid Olimjon kabi uzbek san'atkorlari, talay tilshunos va adibkyotshunoslari bilan samarali ijodiy hamkorlik qildi. Ayniyning deyarli barcha asarlari uzbek va chet tillarga nashr etilgan. uzbek tilida adibning 8 jilddik mukammal asarlari tuplami nashr etildi. U 1954 yil 16 iyulda Dushanbeda vafot etdi. Uning xotirasi ikki xalq orasida abadiylashtirildi.

Mirzo Tursunzoda (1911 - 1977)

Tojik adabiyotining atoqli arbobi, shoir va dramaturg Mirzo Tursunzoda Shahrinav rayondagi qoratog qishlogida duradgor oilasida tugilgan. Dastlab qishloq maktabida, sungra Dushanbe va Toshkekt shaharlarida uqib, oliy ma'lumotli buldi. Uning ilk ijodi 1929-1930 yillarda boshlangan. Sekin-asta unlab she'riy tuplamlarini nashr etgan shoir "Xazon va bahor" (1937), "Vatan aqli" (1942), "Hasan aravakash" (1960), "Jonginam" (1961) kabi dostonlarini bitdi. Mavzu va ifoda nuxtai nazaridan shoir she'rlarining tematikasi nihoyatda keng. U yaratgan qahramon bir qarashda halol pokiza inson, bir tasvirda zulmkor, yana bir talqinida mustamlakachilikka bosh kutargan xalqiing suyiklisi. Bir suz bilan aytganda, shoir qahramoni zamona bilan hamnafas qadam tashlaydi. U "Vose quzgoloni" (1939), "Toxir va Zuxra" (1944), "Kelin" (1947) kabi librettolarni yozib, dramaturgiyaning rivojlanishiga bipmyncha ijobiy ta'sir qildi.

Yigirma yil davomida Tojikiston yozuvchilar uyushmasi raisi bulib ishlzgan Mirzo "Hindiston qissasi", "Hasan aravakash" asarlari uchun Davlat mukofotiga sazovor buldi. Mirzo Tursunzodaning she'rlari uzbek tiliiga tarjima qilingan.

"Ozod Sharhdan men" asari 1950 yilda yozilgan. Shuro davrining eng ashaddiy vaqtida bitilgan mazkur asar tahlili ikki tomonlama ahamiyat kasb etadi. Birinchi mutolaadan shunday fikr kelib chiqadiki, Mirzo Tursunzoda ozod Sharh va tutqun Sharhning ijobiy hamda salbiy jihatlarini tasvirlaydi. Tutqun Sharh vakiliniag qoli parishon, nigohlari sulqin, xayoli beharor, unga xayol surih odat, qora zindonda azob chekadi, Ozod Sharhlikning boshi baland, qolib, osmonda qushday uchadi, saodat doim unga yor.

Dustim, nega qoling buncha parishon,
Suzlaring aytilmay qoldimi pinhona
(Nega, nega sulgin nigoh tashlaysan),
Nega, hasad bilan qariysan ba'zai
Tutilgan lkangda. shahringda zotan,
Menga xshashlarni kurmaganmisang
Chuqur qarashingdan qanday ma'no bor,
Ne uchun xayoling buncha beharor
Ne uchun men golib va boshim baland?
Nega sen bechora qaygularga band
Ne uchun menga yor doim saodat,

Senga faqat xayol surishdir odat
Nega men uchaman qushday osmonda?
Sen azob chekasan qora zindonda?

Ayni shu satrlarni teskariga aylantirsangiz, muddao ravshanlashadi, ya'ni Ozod Sharqlikning dardi ichida, garchand uziga saodatni yor deb bilsa, aslida uning xayoli parishonu rangi za'faron. Yashash uchun u majbur mavjud tuzumni maqtashtan. Mana bu satrlarga e'tibor bersangiz maqsad yanada oydinlashadi:

Sen ham ulug Sharqning haqiqiy ugli,
Qadim el farzandi ekaning tutri!
Sening ulkangda ham har sahar yuvosh,
Ufqdan jilmayib chiqadi quyosh
Sening lkangda ham bahor kuladi,
Tabiat jamoli nurga tuladi
U bahor quyoshi sochsa-da ziyo,
Umidlar daraxti kukarmas aslo
Undan mehnat aqli kurmaydi rohat,
Zolimlar chuntagi tuladi faqat
Bu xilda yashashlik sen uchun odat,
Kelgindilar esa topadi rohat

Darhaqiqat, millat uzligidan, millat merosu an'ana- urf odatlaridan mahrum etilgach, uning boshida nur sochgan quyosh qalbidagi muzni erita olmaydi, umidlar daraxtini kukartirmaydi. "Kelgindi"lar uchun bu hayot rohat. Shoir qarshilantirish usulidan foydalanib, yana uzining "ozod" yurtini, farovon hayotini maqtaydi:

Mening diyorimda uzgacha bahor,
Bahorki, er-ayol yashar baxtiyor
Tabiat yashnab, gul ochilishidan,
Kukatdan turli hid sochilishidan
Dare, soylar tulib mavjlanishidan,
Qushlarning sayrashi avj olishidan
Guzalroq bahor bor-mehnat bahori,
Elim qozongan shon-shavkat bahori

Ikki Sharqlik kishining siymosi sh ro davrida jabrdiyda va jabr zulm qiluvchi tarzida talkin etilgan. Aslida shoirning dardi, maqsadi uzga. U dust niqobini kiyib, terisini shilgan, vahshiy, ochkuz. tekinxur, doimo uning don-dunini yiqadigan "dustini tasvirlaydi. Shu bois "Nyu-Yorklik", "Londonlik" zolim deya murojaat etadi:

Dust niqobin kiyib, bosib yeringni,
Shilib oladilar qotgan teringni
Kunu tun vahshiydan ochkuz tekinxur,
Eringdan don yiqib, qiladi huzur
Nyu-Yorklik, Londonlik zolimlar mudom,
Xalqingga qiladi ajalni "in'om"
Shu sabob kuzingda tinmaydi yoshing,
Baland k tarilmes ham bosgan boshing

"Shuro Sharqi"ning yutuqlari kup, ya'ni xalqlar bir-biriga mehribon, bir Vatanda, bir ulug oilada, xavf-xatar yuq, insonning qadri baland, bu yurtida har narsa muqaddas, guzal qand kabi shirin. "Kosa tagida nim kosa" qatlidagi fikrlarda zikr etilganlarning teskarisini ifodasini topadi. Ayni shu Moskvaning gamxurligi bois azaldan bir-biriga mehribon, quda- anda bulib kelgan xalqlar alohida jumguriyat niqobi ostida ajratildi, bir oila deb yashash garchi tarqib ham bir millatning manfaati, qarashlar, yu fikri yuqori mavqini egalladi. Shu sabab shoir "Shunday farq qiladi ikki Sharqimiz" deb alohida urg u beradi.

"Osiyo ovozi" asari lirik janrning eng guzal namunasi bulish barobarida Mirzo Tursunzodaning salohiyati baland shoirligidan dalolat. Birinchidan, unda Sharq mumtoz

adabiyotining azaliy an'anasi uz ifodasini topgan. Ikkinchidan sharqning azaliy kuhna va adabiy tmishi ta'sirchan ifodalangan. Uchinchidan, shiru shakar, uslubi asarning mavqeini kutargan. Turtinchidan, fors-tojik adabiyoti, qolaversa dunyo adabiyotining guzal shoirlari Sa'diy, Hofizlarning uslubiy uziga xosligi aks ettirilgan. Asarning nomlanishi-"Osiyo ovozi"da ham ayrica ma'no bor."Osiyo ovozi"-Osiyoning azaliy, kuhna tarixi, buguni. Asrdan-asrga sayhal topadigan tarixiy merosi qadriyatlari.

Osiyo gayairar, tinglang ovozin!

Jushqin daryo mavjin, hayqiriq sozin!

Osiye- uygondi.. uxlamas uygoq,

Buldi rostlik, dustlik u bilan urtoq

Shoirning fikricha. Osiyo hamma vaqt uygoq, jushqin daryoga uxshaydi. U hech vaqt uxlagan emas. Shu bois unga qorongi kecha, qaykiriqli tulqin ta'sir qilmaydi, Uygoklikka ishonmasaqq Hofizning baytlarini esga ol:

Hofiz she'rin eslang-Shuro faryodin,

Chekkan nolasin, oxu dodin:

"Shabi toriku bimi mavju girdobe chunin qoil

Kujo donad qoli mo sabukboroni sohilqo"

(Tarjima; Tun krrongu, tulqin xavfi, girdob tusigi kuz oldimizda, qirgokdagi yuki yengil kishilar bizning ahvolimizni qayoqdan bilsinlar).

Osiyoni uzining onasiday bilgan Mirzo Tursunzoda uni hech bir mamlakatga mengzita olmaydi. Sabab u tengsiz, ta'rifga zor emas. Uning obod bogi, mevali daraxtlari bor. Bu bogni hech kim gorat qilolmaydi. Asar oxirida shoir lirik chekinish qilib, uzining guzal qishlogiga nazar tashlaydi:

Shu onda qishlogim yodimga tushdi,

Zilol suv, irmohim yodimga tushdi

Yuksalgan toglari tushdi yodimga,

Qaynar buloqlari tushdi yodimga

Suvi kiyikdan ham chaqqonrok. yurar,

Tunda unda yulduz kurinib turar

Garchand muallif asarida Moskvani ham kiritgan bulsa-da, uzining baxtli yashayotganini satrlarga singdirsa-da, mohiyat mazmunida erksevarlarning irodasini hech narsa yengolmaydi, Osiyo xalqlari shubhasiz mustaqillikka erishadi, degan goya mavjud.

Lekin irodani hech kim bugolmas,

Erksevarlar yulini hech kim tusolmas

Erk! Deb yangramoqda Osiyo sasi,

qayna, ey Osiyo xalqin nafasi!

Adabiyotlar:

.E.E.Bertels. Istoriya persidsko-tadjikskoy literaturo'

Izbronno'e trudo', T. 1. M- "Nauka" 1960

2."Istoriya tadjikskogo naroda" M. 1963

Z.A.Mirzayev. Sayido va mahomi u dar ta'rixi adabiyoti to.
Dushanbe 1947

4.S.I.Braginskiy, "Iz istorii tadjikskoy literaturo'" M. "Na
1972

Z.N.Mallayev, Abulkrsim Firdavsiy T. 1972

b.Sh.Shomammedov. Fors-tojik adabiyoti klassiklari. T, "Fan" 1964

7.?.?omidov. "Shohnoma"ning shuhrati. T, Uzbekistan 1991

b.Rudakiy. T. Uzdavnashr. 1957

9.Umar Xayyom. Ruboiylar. T. 1976

Yu.Sa'diy she'riyatidan. T. 1976

P.Firdavsiy "Shohnoma" Toshkent

12.Jomiy. Gazallar, T. 1983

Z.Jomiy. Dostonlar, T. 1989

N.Jomiy, Bahoriston, T. 1978

4-mavzu (2-soat)

.TURKMAN ADABIYO TI

Reja:

1. Turkman xalq ogzaki ijodi.
2. Maxtumluli
3. Berdi Kerboboyev

Turkman xalqi urta Osiyoda qadimdan yashab kelayotgan turkiy tilda suzlapguvchi xalqlardan biridir. Ochiqini tan olish kerakki, turkman xalqi uz milliy sofligini, milliy adabiyoti va madaniyatini saqlab qolgan. Turkman xalq ogzaki ijodi miloddan avvalgi asrlardan to hozirgacha mazkur xalqning hayotidan ma'lumot beruvchi asosiy manbadir. Xalq ogzaki ijodida ertak, ashula, qushiq va doston janrlari keng tarqalgan. Xalq dostonlarining bir qismi Sharq klassik adabiyoti asarlari va diniy kitoblar ("Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayxo"), mazmunini qamrab olgan bulsa, bir qismi uchun ertak va rivoyatlarning syujetlari asosiy manba bulib xizmat qilgan ("Shainam va Garib", "Zuxro va Tohir", "Asli va Karam").

"Gur ugli"i, siklidagi dostonlar alohida urin tutadi. Unda hikoya qilinishicha, qadim zamonlarda Chambil mamlakatining hokimi Jigalibek qarigan chogida hokimiyatni uzining sevimli ugli Adibekka topshiradi. Adibekning sevimli xotini farzand qurishi oldindan vafot etadi. Tez orada Adibek ham dunyodan tadi. Oradan kup utmay bir chupon Adibekning otasi Jigalibekka podadagi echkilardan biri kunda qabristonga borib, u yerda nimaningdir bolasini emizib qaytishini xabar qiladi. Tekshirib kursalar, echki Adibekning xotini qabridagi bir qil bolani emizib kelarkan. Gurda tugilgan bu bolaga birovlar Ravshan, boshkalar Gur ugli deb nom quydilar. Yoshlikdan bu bola soglom, shux bulib sadi. Oradan bir qancha vaqt tib, u bobosi bilan Xunxor nomli podsho saroyida yashab yurgan paytlarida Jigalibekka yaxshi toy tanlashani buyuradi. Jigalibek kurimsizgina, nimjon toyni tanlaydi. Jahli chiqqan podsho Jiqalibekning ikki kuzini uyib oladi. Bobosi tanlangan Girotni parvarishlab, Gur ugli yurtiga qaytadi. Tez orada amakisining urniga Hokim buladi. Xalq dostonlarida Guruhli hamma vaxt adolatli, dono hukmdor tarzida tasvirlanadi. U kup yurishlarda, janglarda marddik, qahramonlik kursatadi. "Gur gli" dostonlari qisman she'riy, qisman nasriy usulda yaratilgan.

Yozma adabiyot XI-XII asrlarda dastlab Ahmad Yassaviy va Ali singari shoirlarning ijodi ta'sirida turkiy (chigatoy) tilida yuzaga keldi. XIV asrda turkman yozma adabiyotining yirik vakillari Burhoniddin Sivosiy va Sayyid Imoniddin Nasimiylar yashab ijod etdilar. Agar Sivosiy birinchi bulib aruz vaznini she'riyatga olib kirgan bulsa, Nasimiy zining tasavvufiy she'rlari bilan haqiqatni aytishga harakat qildi. Turkman adabiyotining dastlabki boskichlarida nasihatguylik motivi yetakchilik qilardi. Keyinchalik Ozodiy, Maxtumluli, Mullo Napas kabi shoirlar mavzuni davom ettirishdi.

XVIII-XIX asrlar turkman adabiyotining eng taraqqiy etgav davri hisoblanadi. Bu davrning mashhur vakili Nurmuhammad Garib Andalib Alisher Navoiyning an'analarini saqlagan holda "Layli va Majnun" dostonini yozadi. Nasr bilan nazmni vobasta etgan mazkur doston shoir vafotidan sung ogizdan-ogizga kuchib, xalk. orasida keng tarqaldi. Andalibning zamondoshi Mamatsayid Ozodiy "Va'zi Ozodiy" asarida turkman va fors-gojik tillarida ajoyib asarlar yaratgan bulsa, Maxtumluli uzining bir-biridan guzal she'rlari bilan turkman adabiyotini yuqori chuqqiga olib chiqdi. Xivadagi Sherqozixon madrasasida tahsil olgan Maxtumluli Sharq mumtoz adabiyotining yozishmalarini chuqur urganib, turkman poeziyasini shaklan va mazmunan yangi pohnaga olib chiqdi. Gazal, ruboiy, qit'a kabi janrlarda yezilgan asarlarda bir-biridan teran mavzular kutarildi. sha vaqtdayoq turkman xalqining ozodligini kuylashga intilgan Maxtumluli "Chaqiriq" she'rini yozgan edi. XVIII asr boshlarida yashab ijod etgan Saidiy va Zeliliy Maxtumluli an'analarining davomchisi edilar. Mullo Napas uz asarlarida turkmanlarning tarqoq qabilalarini birlashib, ozodlik kurashiga otlanishini baralla kuylaydi. "Gelmisham" dostonida bu

goya oshiq Nepes va uning ma'shuqasi misolida uz ifodasini topgan bulsa, "Zuhro va Tohir"da turkman xalqining an'anasi, urf-odatlarini, uziga xosligi yorqin tasvirlangan. Ammo bu asarlarga yondashuv, ularning talqini Shuro davrida batamom uzgacha edi. Kupgina adabiyotlarda yezilgan ediki, mazkur qaxramonlar eski urf-odat va zuravonlikning qurboni bulgan edilar. Boboxonga uxshagan qonxur podsholar sevgi uchun kurashgan sevishtganalarning uz qoliga quymaydi. Bu xildagi talqin zamonasozlikdan boshqa narsa emasligini butungi hayot shiddati yaqqol kursatdi.

Oktyabr tuntarishidan sung ijodini davom ettirgan Miskin , qilich, Bayram, Shoir, Kurmullo, Mullo Murt, Durdi qilich kabi shoirlar zamonaga qarshi chiqa olmay barcha kuylagan mavzularda asarlar yozishdi. Kurmulloning "Bolshevik", Durdi qilichning "Zolimlar", "Kambagallar", Mullo Murtning "Turkmaniston uchun azizsan", "Ozodlik", Alamishevning "Sona", "Qizlar dunyosi", Verdi Kerboboyevning "Odatning qurboni" singari asarlar shu davr maqsulotidir.

Anton Chexov, Lev Tolstoy an'analarini davom ettirgan O.Durdiyev, N.Sarixonovlar "Orzu", "Ok, uy", "Shirin", "Kuyov", "Boyning gazabi", "Shukur baxshi" kabi asarlarini yozib, turkman adabiyotidagi yangi qirralarni namoyon etdi.

Vatan urushi yillarida turkman xalqining front va front ortidagi hayotni tasvirlovchi Berdi Kerboboyevning "Dadil qadam". romani, K.Burunovning "Keymir kur", T.Esanovning "Shammat", O.Kavpgutovning "Juma", A.Karlijevning "Oyna" asarlari yaratildi- Ammo sof shuro hukumatining soxta vatanparvarligini ifodalagan, an'anaviy qahramonlik asarlari ham yozildi. Ular sirasiga

B.Kerboboyevning "Aylar", Ya.Nasirlining "Leytenatning ugli", Sh.Kekirovning "Ivan toqa", O.Kavshutovning "Kopegdog yon -bagirlarida", Beki Saytoqovning " qilning sovgasi" asarlari mansubdir.

Maxtumquli

Turkman mumtoz adabiyotining yirik vakili, uz asarlari bilan mumtoz janrlarni adabiyotga tula-t kis olib kirgan shoir Maxtumqulidir. U Sharq mumtoz adabiyotining yirik vakillari-Sa'diy, Hofiz, Umar Xayem, Alisher Navoiylarning asarlarini mutolaa qildi. Buvdan tashqari, turkman xalq ogzaki ijodini ham izchil urgandi. Ayni shu ikki jihat u yaratgan asarlarda ifodasini topgan. Kupchilik Maxtumqulining axloq-odob, nasyahat tarzidagi she'rlarini yoddan bilishadi. She'rning usulubi ravon, suzlari tushunarli.

Har ahmoqqa aytma dardu suzingni,
Hasrat uti jisming yoqqancha bulmas
Gussa bilan dona-dona kuzingdan,
Achchiq yoshlarini uti oqqancha bulmas.

Qanoatli odam tama'dan xoli. Birovga rangini sargaytirmaydi, nomardga dust tutinmaydi.

Qanoatda, izzatda tut uzingni,
Tama' qilib, sargaytirma yuzingni
Har nomardga kayf aylama suzingni,
Suzingning binosin yiqqancha bulmas
Magrur bulib kezma umring guliga,
Duch bularsan bir kun xazon yeliga
Yuz yil yashab tushsang ajal quliga.

Chapingdan unginga boqqancha bulmas

Kumir-qora, kungli egri odam kumirday qora. Kumirga qancha izzat-ikrom qilsang ham qulingga tegdimi qoraytiradi. qulingni banogoh yuzing va peshonangga surtsang hamma joyingga qora surtiladi.

Kungli qora bilan bulmanglar ulfat,
Yuqar undan turli-tuman kasofat
Kumirga har necha aylasang izzat,
Manlayga qorasi yuqqancha bulmas
Maxtumquli hargiz topmadi omon,
Yomon tilning zahri tiqlardan yomon

Yomon til yonida zahri kup ilon, -

Chaqsa-da, bir chivin chaqqancha bulmas

Maxtumqulining "Bularsan", "Bormi?", "Boshladi", "Elingni" kabi asarlarini hib, shoir faqat pand-nasihat bilan cheklanadi degan fikrga kelish yaramaydi. Ayni shu pand-nasihat mohiyatida ijtimoiy hayotning barcha muammolari-ishq, muhabbat, Vatanga sadoqat jamlangan.

Baland tog'lar, buyuklikda gerdayma, Xumchada suv bulgan zardek bularsan Teran daryo, haybatingta kekkayma, Vaqting yetsa, qurib yerdek bularsan

Bu dunyo foni. Foni olamdagi barcha narsalar utkinch hayvonotu nabotot, ulkan daryo-yu xududsiz tog'lar bir kun kel yemiriladi. Shunday ekan odamzot ham tirikchiligiga rej manmanlik qilmasligi shart.

Toglarning arsloni, bobir, falangi,

Oxir teng bular fil, pashsha jangi

Jayhur daryosi-yu, Nilning nahangi,

Quloqdan urilgan xardek bularsan

Yaxshi bedov mingan, xub guzal quchgan,

Birga eltgan bormi bogiga kuchgan

Haqiqiy nomarddir imonsiz kechgan,

Imon bilan borsang nordek bularsan

Lukmoni hakimdek dono, Rustamdek devlarni qiyqiratadigan,

Iskandardek yer yuzini olsang ham oxir-oqibat tuproqqa qaytasan,

tuproq bulasan.

Luqmondek har ishning chorasini bilsang, Rustamdek davrlarga farmonlar bersang Iskandardek yerning yuzini olsang, Yakson bulib, baribir yerdek bularsan "Bormi?" she'ri garchand barmoq vaznida yozilgan bulsa-da, suzlarni tushunarli ifodalash jihatidan u Mashrabning gazallarini eslatadi. Shoir ritorik suroq berish asnosida maqsad-mohiyatni teranroq ifodalashga harakat qiladi, Jahongashta devonalar, Men kabi xech yongan bormi? Ishq qurboni, parvonalar, U olovdan ?rngaya bormi? Boli sabo kelar buldi, har joyda bir qolar buldi qiyo nazar solar buldi, Adolatli sulton bormi?

Maxtumqulining "Boshladi", "Elingni" she'rlarida ham tilni asrash, halol mehnat qadriga yetish, aql bilan duneni anglash, nafsni tiyib, harom narsalardan or qilish kabi mavzular yanada boyitildi. Kel, kungil, men senga ugit berayin: Yiroq qilma kurar kuzing - elingni qimmatini ketkizma, urnida suzla, Ravo kurma har nokasga tilingni

Shoir millatning fojeasini oldindan kura boshladi. Shurolar yurtini bosib olgach biz uchun milliy qadriyat darajasiga kutarilgan an'ana, urf-odat hamda uziga xosliklarimizdan judo eta boshlashdi. Hoyar mazkur she'rida odamlarni husher bulishga da'vat etadi.

Kumildi daryolar, yiqildi tog'lar,

Etimlar kuz yoshin tuka boshladi

Yaramas farzandi haromxur beklar,

Yurtini bir yonidan yiqi boshladi

Xullas, Maxtumqulning bir-biridan teran, guzal, uynogi she'rlari hamisha odamlarga ezgulik bagishlab, yaxshi, xayrli ip ularni qilishga da'vat etib keladi.

Berdi Kerboboyev (1894 -)

Turkman adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Berdi Kerboboyev Tjen rayoniga karahli Revkizarom qishlogida mehnatkash oilasida tugilgan. Dastlabki taqsilni madrasada olgan Berdi keyinchalik yangi usuldagi maktabda savodxonligini mustahkamladi. Shuro davrida u "Qizlar dunesi" (1927), "Odatning qurboni" (1930), "Lmudare" (1937}, " Aylar" (1943), "Turkmaniston" (1948) she'riy tupamlarini, 1940-1947 yillarda "Dadil qadam" tarixiy romani, 1949 yilda "Oysulton" povestini, 1941-1945 yillar orasida "Maxtumkuli", "Vatan gli", "qurbondurdi", "Abadan" pesalarini yozdi. Turkmaniston neftchilari hayotiga bagishlab yozilgan "Nebitdog" romani Berdi Kerboboyevga katta shuhrat keltirdi. Adib uzining yaxshi tarjimon ekanini ham isbotladi. U Maksim Gorkiyning "Ona", Lev Tolstoyning "Hojimurod", M.Sholoxovning "Ochilgan quriq", A.Griboyedovning "Aqlilik balosi", Pushkinning "Evgeniy Onegin" asarlarini

me'yoriga yetkazib turkman tiliga kirdi. Berdi Kerboboyev Turkmaniston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi bulishi barobarida uzoq yil Yozuvchilar uyushmasining raisi bulib ishladi. uzbek kitobxonlari adibning "Dadil qadam", "Nebitdog" romanlari, "Oysulton" povestlarini uzbek tilydi qishga muyassar bulishdi

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Turkman mumtoz adabiyotining taraqqiyot tendensiyalari qanday kechdi?
2. Turkman yozma adabiyoti qachon yuzaga keldi, uning taraqqiyoti uchun kimlar xizmat qildi?
3. Mulla Napas qanday asarlar yaratdi? Uning asarlari kimlar manfaatlarini himoya qildi?
4. Maxtumquli ijodi haqida so'zlang.
5. Maxtumquli o'z asarlarida qanday g'oyalarni ilgari surdi?
6. Uning ijodidagi qarama-qarshiliklar xususida so'zlang.
7. Shoir qo'shiqlarining tematikasi qanday edi?
8. Maxtumquli o'z xalqini nimaga chaqirdi?
9. Maxtumquli o'zbek xalqi uchun ardoqli ekanligining boisi nima?
10. Shoirning muhabbat bilan kuylagan asarlari qaysilar edi?
11. Turkman adabiyoti taraqqiyotiga B. Kerbobev qanday hissa o'qishdi?
12. Kerboboyev asarlarining asosiy xususiyati to'g'risida so'zlang.
13. Kerbobev prozasi bilan turkman xalqiga qanday xizmat qildi?
14. Kerboboyev qanday poema va dostonlar yaratdi?
15. Kerboboyevga shuhrat keltirgan sirik asari qaysi edi? Unda qanday g'oya ilgari surildi?
16. U qaysi asari uchun Davlat mukofotiga erishdi?
17. "Dadil qadam" asari xususida suzlang

TAYaNCh ATAMALAR:

1. Maxtumquli - didaktik shoir.
2. Maxtumquli va Mengli.
3. Maxtumquli va o'zbek adabiyoti.

ADABIYOtlAR:

1. Kollektiv. Istoriya mira narodov Sredney Azii i Kazaxstani. M., 1975.
2. Quramboyev K. Maxtumquli she'riyati O'zbekistonda. T., 1964 yil.
3. Abdullayev H. Maxtumquli va o'zbek adabiy muhiti. T., 1983 yil.
4. Maxtumquli. Tanlangan asarlar. T., 1960.
5. Qosimov B., Jumayev N., Olim S. O'zbek adabiyoti (majmua) X-sinf. T., 1993 yil.
Qosimov B., Jumaxo'ja N. O'zbek adabiyoti (10-sinf uchun), T., 1999 yil.
6. Karriyev B.D. Epicheskiye skazaniya o Ker-oglo' u Tyurkoyazo'chno'x narodov. M., 1968
7. Turkman poeziyasining antologiyasi, Ashxabod, 1958
8. Izbranno'e proizvedeniya (vstupitelnaya statya o Kamine i. Molle-Nepes). Leningrad. 1959
9. Maxtumquli. She'rlar. T. 1971
10. Klassiki turkmenskoy poezii. M. 1955

5-Mavzu (2-soat)

QOZOQ ADABIYOti

Reja:

1. Abay Qunonboyev
2. Ijas Sulaymon

Qozoq xalqining kup asrlik tarixi va milliy madayaiyati bor. Savdo-hunarmadchilik markazlari, hosildor ekin maydonlari barobarida milliy madaniyat namunalari XIII asrda mugul bosqinchilari tomonidan yakson qilindi. Kuchmanchi tarqoq chorvadorlar, XVI asrlarda tashkil topgan kattajuz, urtajuz, kichikjuz deb atalgan urug uyushmalari 1723 yilda mamlakatga

yopirilib kelgan jungorlar (holmiklar) hujumiga bardosh berolmadi Bu Rossiya imperiyasining osongina qozoq. xalqini bosib olishga imkon yaratdi.

qozoq yozma adabiyoti ancha kech shakllandi. XIX asrgacha urzoklarda adabiyot, asosan, xalq ogzaki ijodiyoti shaklida rivojlandi. Ogzaki ijoddagi qushiq, ertak va dostonlar turdi mavzularni qamrab olgan, Ayniqsa, qahramonlik dostonlari salmokli urin tutadi. "Qublandi botir", "qambar botir", "Ertargin" gular sirqsiga mansub, qozoq folklorida "Qizjibek", "quzi kurpesh va Bayan suluv", "Suluv shash" unshqiy-lirik dostonlari juda mashxur bulib, kattadan kichik barchasi uni yodlashga harakat qilgan.

XVIII-XIX asrlarda ogizdan-ogizga kuchib yurgan dostonlarni kuylovchi xalq okinlari, jirovlari yetishib chiqdi. Buxor jirov, Nisanboy, Dusxuja, Maxambet Utemisov, Xoliboy Mamabetovlarni kursatish mumkin. uzining ijrochilik mahorati bilan shuhrat qozongan oqinlardan biri Jambul Jabayev Jambul toq etagida kambagal oilasida tugilgan. Ustozi Suyumboy tarbiyasini olgaya oqin "Kambagalning shuri", "Shaltaboyga", "Mirzobek volostiyaing boshligiga", "Qodirboyning iti?> kabi asarlarda xalqning hayotini real tasvirlashga intildi.

Shuro adabiyoti rivojining ilk davrida qozoq yozuvchilaridan

I.Kubeev, S.Turaygirov, S.Donentayev, I.Shonsugurov,

S.Sayfullinlar ijod qilgan bulsa, ikkinchi davrida Muxtor Avezov, Sobit Muqanov, Gabit Musrepov, Gabidin Mustafin, Toir Jarokov, Abdulla Tojiboyev, Gali Urmonovlar samarali ijod etishdi.

Qozoq romanchiligi I.Kubev, M.Avezov, S.Muqanov, G.Musrenov, G.Mustafinlar ijodi bilan chambarchas bogliq. Sobit Muqanov "Temir tas", "Butakuz", "hayot maktabi", "Polvon chuloq", Muxtor Avezov "Enlik-Kebeke", "qora kuz", "Xon kene", "Abay", "Chegarada", "Yalangoch qilich", "Olma bogida", "Izlar", "Elkama-elka", "Burgutli ovchi", Gabidin Mustafin "hayot yoki Mamot", "Shiganan Bersiyev", "Millioner", "Qozoq soldati", "Uygongan ulka", S.Sayfullin "qizil burgutlar" asarlari bilan yangi pogona kutarildi desak mubolaga bulmaydi. Albatta, bu asarlarning talqin va taxdilida tafovut bor.

Qozoq va uzbek adabiyotlari orasidagi aloqa va hamkorlik uzoq tarixga ega. Alpomish va Guruhli, qublandi Botir va Ertargin, mullo Nasriddin bilan Aldar Kusadan tortib Alisher Navoiy va Abaygacha dustlik rishtalari mustahkamlangan. Uzbek kitobxonlari uchun Muxtor Avezovning turt jildlik "Abay", G.Mustafinning "qarahanda", "Chiganoq", Jamul Jabayevning she'riy tuplamlari, S.Begalining "Ona mehri" hikoyalar tuplami nashr etildi. Shu barobarida uzbek yozuvchilaridan Hamza, Oybek, Ashad Muxtor, Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Ibrohim Rahim, shoirlardan Uygun, Ramz Bobojon, Mirtemir, Huqrat, Zulfiyalarning asarlari qozoq tilida chop etildi.

Abay Qunonboyev (1845 - 1904)

Qozoq adabiyotining asoschilaridan biri shoir va ma'rifatparvar Abay (Ibrohim) Qunonboyev Semipalatinsk uyezdiga qarashli Chingiztov romanida chorvador oilasida tugilgan. Dastlabki ta'limni madarsada olgach, yangi usuldagi maktabda tahsilni davom ettirdi. U Sharqning buyuk vakillari - Firdavsiy, Nizomiy, Sa'diy, Hofiz asarlarini chuqur urganib, Ovrupo adabiyotini tahlil etishga kirishdi. A.Pushkin, L.Tolstoy, M.Saltikov - Shchedrin ijodini tadqiq etish bahonasida Sharq va Garb adabiyotining bogliq jihatlarini mukammal urgandi. U yoshlik chogida she'r yozish bilan birga ulan aytish buyicha nom qozondi. Ma'rifatparvar shoir asarlari tarqoq qozoq xalqini birlashishga chaqirib, ilm urganish, ma'rifat olish yuksalish va ozod bulishning eng ma'qul yuli ekanini uqtiradi. Abay Qozoqlarning birinchi kompozitori edi. U uz she'rlariga xalqona usulda musiqa bitib, kuylardi. Qozoq xalqiga rus adabiyotining eng zur asarlarini tarjima qilib yetkazgan ham Abay edi.

Hoirning " lan"lari tarjima qilinib maktab darsliklari va uquv qullanmaalarga ham kiritilgan.

Qozogim, shurlik yurtim, vayron yurtim!

Qoronguda yul topmay, hayron yurtim!

Yomon bilan yaxshini farq qilolmay,

Ogzida ham qon, ham moy, sarson yurtim

Biy buldi qiyqim boylar bosh-boshiga,

Dor soldi, zahar soldi yurt oshiga
 Qurqaman hassasi yuq kur singari,
 Elim unar buzuqlar aldashiga
 Gadoy shurlik yuradi poda boqib,
 tini yuq isinsa olov yoqib
 Xotin urchuq yigirar, yung savalab,
 Chakman tuqir sovuqda yelka qoqib
 Soyaday qam urni yuq boy uyida,
 Sarqitga ham ilinmas tu kuyida
 Lekin uzoq keta olmas, chorasi yuq,
 Yo rabbiy, har kim kulsin uz tuyida
 Tugri suzlik lanim, uzing kurkam!
 Mayli, tatimasa ham suyla bardam
 Bu yurt suz oshigimas, mol oshigi,
 Roziman, mingdan biri tushunsa ham
 Ammo aql chaqirilmagan mehmon emish,
 Akli borga bunday umr zindon emish
 Kechiring, nodonlarga tegib utsam,
 Bu elda tugri aytgan yomon emish
 Abay "Nasihatlar"ning uttiz birinchi suzida shunday yozadi: "Kishi eshitgan narsasini unutmash uchun turtta shart bor: avvalo, zehnli bulmoq kerak; ikkinchidan, buyr narsani kurganda yo eshitganda - unga chin yurakdan ixlos quyib, fahm-farosat bilan uqib olmoqlik lozim; uchinchidan, epgitganlarini ichida bir necha marta takrorlab, kungliga joqilmoq kerak; turtinchidan, kungliga boshqa narsalarni mutlaqo keltirmash kerak".

Ijas Sulaymon (1936 yilda tugilgan)

Zamonaviy qozoq adabiyotining yetuk vakili Ijas Sulaymon 1936 yil 18 mayda Olma Ota shahrida tugilgan. Uning otasi harbiy xizmatchi edi. urta ta'limni rus maktabida olgan Ijas qozogiston Davlat Universitetining geologiya fakultetiga qishga kirdi. Badiiy ijolga bulgan qiziqish uni 1961 yil Maksim Gorkiy nomidagi adabiyot institutiga yetakladi, 1962-1971 yillar orasida u "Qozogim" studiyasi bosh muharriri, "Prostor" jurnali bulim mudiri, 1972 yildan boshlab Qozoqiston Yozuvchilar uyushmasi kotibi, qozoqistonning italiyadagi elchisi sifatida faoliyat kursatdi. Uljas Sulaymon qozoq xalqiga kos milliy xususiyatlarni, urf-odatlarini, shonli va ogriqlik nuqtalarini yaxshi biladi. Shu bone uning asarlarida qozoq xalqining milliy ruhi teran ifodalanadi. 1961 yilda shoirning ilk asari -"Arhumoqlar" chop etildi. Shundan sung "quyoshli tunlar", "Ajoyib tun", "Sharofatli vaqtlar", "Maymun yili", "Loy kitob", "Olovning kuchishi", "Yumaloq yulduz", "Az i Ya" kabi unlalab she'riy, nasriy, ilmiy kitoblari nashrdan chiqdi.

Ijas Sulaymonning badiiy asarlarida qozoqning uziga xos turmush tarzi, uy-fikrlari, his-tuygulari aks etgirilsa, ilmiy asarlarida turkiy xalqlarning dunyo madaniyati taraqqiyotidagi ulkan urni tarixiy dalillar asnosida kursatilgan.

"Az i Ya" asari yevropapaparastlar aytganiday, turkiylar yovvoyi va madaniyatsiz qavm emas, balki dunyoning eng qadimiy millatlaridan biri ekanini isbotladi.

Uljas Sulaymonning "qoyilmisan . insonga, zamin" deb nomlangan dostoni inson imkoniyatlari va irodasi haqida bitilgan madhiya yangliq dunyoga yangradi. Unda koinotni zabt etgan va jahon taqdirida yangi bosqichni boshlab bergan odamzot tugrisidagi mushoqadalar hoyat ta'sirchan ifodalangan.

Shoir she'riyatidagi qahramon gururli, uz qadrini biladigan, ayni vaqtda uzgalarning ham hurmatini joyiga quyadigan shaxsdir. Ular fe'li keng, tanti, falsafiy mushoqadalarga moyil, chapani va jumard kishilar sifatida yorqin buyokdar, kuchli she'riy timsollar vositasida jozibador tasvirlangan.

Argumoq (Azim Suyun tarjimasi) Yilqisi bilan mashhur, qadim qipchoq yerida Oqib boradi uyub, Kuygan utlar selida

Tomirimda qaynar qon,
Tulporidan saylab ber
Eldiray misli buron,
Ostin-ustun bulsin yer
Yellar alanga olsin,
Argumoqnyang qonda
Qiyot, alafklar qursin,
Tuyoqlar tuzonida
Yashash, kurash nimadir
, Bilib quysin argumoq
Jasorat bizda taqdir,
Guldirab ketsin suqmoq

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Qadimgi qozoq xalq og'zaki ijodining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Qozoq oqimlari va ular ijodining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'zlang.
3. Abay Qo'nonboyev ijodi haqida so'zlang. Uning yoshlik yillari qanday kechdi?
4. Abay qaysi mavzularda ijod qildi? Uning ilmiy ma'rifiy qarashlarini izohlang.
5. Abay lirikasida qaysi g'oyalar ifoda etildi?
6. Abay nasihatlar mohiyati haqida nima deya olasiz?
7. Abay satirasida kimlar fosh etiladi?

Adabiyotlar:

1. Istoriya literatur narodov sredney Azii i Kazaxstan. M, Izd-vo MTU. 1960
2. Pesni stepey. Antologiya kazaxskoy literatury. M. 1940 Z. Abay Qunonboyev "lanlar". T. 1954 4, Kedrina Z.S. Iz jivogo istochnika. M. 1960 5-Lizunova Ye, V. Sovremenniy kazaxskiy roman. Alma-ata, 1964 b. Auezov M. Velikiy poet kazaxskogo naroda Abay Qunonboyev. M. "Znaniye", 1954 U. Silchenko M.S. Abay (Ocherk jizni i tvorchestva) Alma-ata, 1964

6-mavzu (2-soat)

.QIRGIZ ADABIYOTI

Reja:

1. "Manas" eposi
2. Tuxtagul Sotilganov
3. Chingiz Aytmatov

Tyan-shan vodiysi va tog'larida joylashgan Qirgiz ulkasi bir tomondan Qozoqiston, Uzbekiston, Tojikiston, ikkinchi tomondan Xitoy xalq respublikasi bilan chegaradosh. qirgizlar haqidagi eng qadimgi yozma adabiyotlar meloddan ilgari XII asrga oid manbalarda uchrayli. utmishda asosan chorvachilik bilan shugullangan bu xalq VIII asrda arablar, VII asrda kura xitoylar, XVI asrda maqul. XVIII asrda rus bosqinchilarining azob-uqubatlarini tortgan. Qirgizlarning ota-bobolari qadimdan urta Osiyo, Tyan-chan, Yettisuvda yashagan xunn, sak va skif qabilalari bilan yaqin aloqada bulib, ularning madaniyati, dini va urf-odati ta'sirida uni kechirishgan, "Buyuk ipak yuli" qirgiz xalqining madaniyati, ilm-fanini bir pogona kutardi. Sekin-asta savdo-sotiq bahonasida fors va yunon madaniyatining eng sera jihatlar uzlashtirib olindi. Qirgiz xalq ogzaki ijodida "Kurman yek", "Ertobildi", "Ertushtuk", "Jonil Mirzo" kabi qahramonlar orasida "Manas"ning uziga xos urni bor, Doston Qirgiz xalqining kup asrlik hayoti va bosqinchilarga qarshi qahramonona kurashini she'riy usulda aks ettiruvchi asardir. Dostonning hajmi besh yuz ming baytni tashkil etadi. "Manas"da Qirgiz xalqining urug-aymoqchilik munosabatlari afsona, ertak. ashula va qushiqlar asnosida yorqin tasvirlangan."Manas" dostoni uch qismdan iborat. Birinchi kismda xalq qahramoni Manas, ikkinchi qismda Manasning utli Semetey, uchinchi qismda Manasning nabirasi Seytekning hayoti, sarguzashta, qahramonliklari tasvirlangan.

"Manas" eposining syujeti murakkab, U juda kup dostonlarns uz ichiga oladi. Ularda dustlik, vatanparvarlik va qahramonlik goyalari olga surilgan. Manasning qalmoq xoni yuborgan Alvesti

Kojart alp, Kuchku, Joloy kabi paxlavonlar ustidan galaba qozonishi, Fargona vodiysida Bobodeqqon bilan uchrashib, undan deqqonchilikni urganishi, turli ulkalardan kelgan Adjiboy, Chumak, Sergak va Almambet kabi bahodirlar bilai dustlashuvi, nihoyat, xalqni afgon va qalmoq xonlari zulmidan hut qazib qurilishi kitobxon kuz ungida ajoyib inson, xalq qahramoni va vafodor dust sifatida gavdalaniradi.

"Manasyaning Semetey va Seytek hayotiga bagishlangan qismlarida ikki avlod qahramonlarining janglaridan kura ularning oilaviy hayoti voqealari batafsil tasvirlangan. Qirgiz folklorida "Manas" eposini kuylovchi ijrochilar alohida e'tiborda bugan. Ammo bizgacha yetib kelgan dostonning variatlari har hil mazmun va badiiylikka ega. Masalan, mashhur manaschi Sayoqboy Qaralayev uzidan yozib olingan variantda Manas va uning safdoshlari kuproq xalq va vatan uchun xizmat qiladigan qahramon sifatida talqin etilsa, Saginboy Urazbekov ijrosidagi varianti Manasni kuproq xon qushinlarini bosib oluvchi sarkarda siymosida kuramiz. Yana bir jihatni esdan chiqarmaslik kerakki, turli tarixiy davrlarda ?ukmron doiralar "Manas" eposidan z manfaatlari uchun foydalanishgan.

XIX asr urtalarida xalq oqinligi Qirgiz adabiyotining rivojiga sezilarli darajada ta'sir kursatdi. Ayniqsa, Tugaloq Muldaning ijodi fikrimiz isboti bula oladi. U avval qirgiz manapi (boyi), keyin rus kulagi qulida matrablik qildi, qiyinchilik, azob-uqubatga qaramay u qozoq klassigi Abay va tatar shoiri Abdulla Tuqayning asarlari mutolaasi ta'sirida ogin darajasiga kutariddi. Dastlabki davrlarda u ertak-masal syujetlari ta'sirida "Jonbokti", "Kemchentoy", "Eshak va bulbul" masal va hajviy dostonlarni yaratdi. Tugaloq Mulda mamlakatda yuz berayotgan ijtimoiy hodisalarni sezgirlik bilan kuzatib, uni majoziy obrazlarga kuchiradi.

Qirgiz xalq oqini Tuxtagul Sotilganovning hayoti darbadalikda kechgan. Shu bois u hayotni uzicha talkim qiladi. Uning fikricha, mehnat insonga quvonch bagishlaydi, dustlik ob-havoday zarur, sevgi hayot bulogi. Xalq oqini uzining otashin chiqishlari bilan rus bosqinchilarini nokulay ahvolga solib quydi. 1898 yilda Tuxtagulni Andijon quzgalonida qatnashgan deb Sibirga surgun qilishdi. Yetti yillik surgun mashaqqatlarini kurgan oqin chuqur ijtimoiy

mazmundagi asarlar yeza boshladi. "Besh jobon" she'rida u "jobon" nomi bilan tanilgan beshta amaldorni tanqid qiladi:

Etim-esir, qolsizni,
Savalading, besh tungiz
Odam urnida yuqsulni,
Sanamading, besh tungiz
Eb-ichishdan boshqani,
Tan olmading, besh tungiz
Jahling chiqsa, kuturib,
Uy-joyimni talarsiz
Qonxurliging avju olsa,
Idirib, urnim yalarsiz
Tirnogi zahar besh jobon,
Yalinmayman hech qachon
Mayli, uldir, dunyoga
Qaytib kelmas chiqsa jon

Surgundan qaytgach siyosiy xarakterdagi "Alvido, xalqim", "Xayr, ona", "Surgunda", "Tor burguti", "Salom, mehribon xalqim", "Soginish", "Uch xuja", "Mungli kushcha" asarlari dunyo yuzini kurdi.

20-30 yillarda u yoki bu darajada qirgiz adabiyotiga K.Bayalinov, M.Takaboyev, K.Jontoshev, T.Sidiqbekov, A.Osmonov, T.Umetaliyev, ATuxtamishev, T.Shamshiyev qissa qushgan balsa, 40-60 yillar orasida J.Turusbekov, M.Eliboyev, S.Shimeev, N.Boytemirov, K.Akeev, S.Eraliyev, I.Uzoqboyev, K.Malikov, S.Jusuyev, R.Shukurbekovlar adabiyot takomiliga ayricha ta'sir kursatishdi.

Zamonaviy qirgiz adabiyotining asoschisi suzsiz - Chingiz Aytmatov. Uning "Oq yomgir", "Raqiblar", "Qizil olma", "Jamila", "Birinchi muallim", "Sarvqomat dilba-rim", "Butakuz",

"Yuzma-yuz". "Somon yuli", "Baydamtol sohillarida" asarlari uzbek kitobxonlari tomonidan sevib mutolaa qilinadi.

Tuxtagul Sotilganov (1864- 1933) I

Qirgiz xalqining ulug oqini va bastakori Tuxtagul Sotilgan gli 1864 yilda tugilgan. Yoshligidan qubiz chertib, xalq qushiq va dostonlarini aytib yurgan Tuxtagul sekin-asta original asarlar yaratib, kuylashga kirishdi. "Qizlarga", "Alimxon", "Eshon xalfa", "Qashshoq" kabi asarlarida ijtimoiy hayotning muammolarini keskin tanqid ostiga oldi. Rus istilochilari tomonidan Sibirga surgun qilindi. Olti yildan sung Krugo-Boyqol temir yuli qurilishiga yuboriladi. 1910 yilda u yurtiga qaytgach yana qamoqqa olinadi. Shunda yurtdoshlari uni kafillikka olishadi. Uz boshidan kechirgan azob-ukubatlarni shoir "Tutqunning jiri", "quvgindi", "Eshmabet bilan uchrashuv" asarlarida ishonarli tarzda tasvirleydi. Tuxtagul Sotilganov 1933 yilda vafot etadi. Uzbek kitobxonlari shoirning "Soginib keldim" she'riy tuplamidan 1964 yilda bahramand bulishdi. Etim-esir, qolsizni,

Savalading, besh tungiz

Odam urnida yuqsulni,

Sanamading, besh tungiz

Eb-ichishdan boshqani,

Tan olmading, besh tungiz

Bu satrlar shoirning "Besh jobon" asaridan bulib, unda Ahmad, Diqon, Otaxon, Risqulibek kabi boylar tanqid bahonasida yurtning qonini ichayotgan istilochilarning asl basharasi tasvirlangan.

unta otga tushurding,

urazali qarini

Yurt haqin yeb utkazding,

Umrining yarmini

Kurolmading kambagal,

Yaxshi ot minganin,

Ahmad, Diqon, Otaxon

Gurkovliging bul sening

Tentiratding sen, talab,

Buramboyning Sarisin

Kunda yulding ayblab,

Yurt topganin barisin

Chingiz Aytmatov

Qirgiz adabiyetining yangi pohnaga olib chiqqan yozuvchi, jamoat arbobi Chingiz Aytmatov 1928 yilda Sheker qishlogida tugilgan. urta maktabni bitirgach, qishloq xujaligi institutining zootexnika fakultetida uqiydi. Uning ijodi 1952 yilda kichik-kichik hikoya va poveet, ocherklar yozishdan boshlangan,

"Yuzma-yuz" (1957), "Jamila" (1958), "Birinchi muallim" (1960), "Sarvqomat dilbarim" (1961), "Butakuz", "Somon yuli ("Momo yer")" (1963) asarlari sha vaqt nasrida olamshumul unglanish edi. Shuro davrida adib uzining "Toglar va dashtlar qissasi" asari uchun davlatning eng oliy mukofotiga sazovor bulgan edi, Chingiz Aytmatov 1979-1980 yillar orasida "Asrga tatigulik kun", "Qiyomat" asarlarini kitobxonlarga taqdim etib, unda uzining ognr kechgan bolalik yillarini jo eta oldi. Ma'lumki, adibning otasi Turaqul Aytmatov uz vaqtida shuro hukumatining turli idoralarida mas'ul lavozimlarda ishlagan. qatagonning 30 - yillarida uni qamoqqa olishadi va yuq qilishadi. Odamlarni, hayotni hoyat yaxshi bilgan va chin yurakdan sevgan adib uz asarlarida kishilar uchun juda aziz, juda zarur bulgan tuygularni, holatlarni, mavzularni qalamga oladi. Adib asarlarida oddiy mehnat kishilari-ishchilar, chorvadorlar, dengizchilar, ziyolilarning obrazlarini chizadi. Lekin jamiyat faqat shulardangina iborat emas. Atrofimizda oddiy temiry elchi bilan birga tekinoxurlar, uz mexnati bilan kun kechiradigan deqqon, yuk tashuvchi, kosib, sut soguvchi, paxtakor, oshpaz, nonvoy bilan yonma-yon kasb-korining tayini bulmagan fosiq, aroqxur,

tovlamachi, firibgar, mu ttahamlar ham yetarlicha topiladi. Bundan kuz yumib bulmaydi. Ularning uz nuqtai nazari, a'mollari, uz e'tirdilar, uz manfaatlari bor. U qanday din, mazqab, siyosiy-ijtimoiy guruh yoki partiyalarga mansubligidan qat'iy nazar, shafqatli va shafqatsiz, diyonatli va diyonatsiz, insofli va insofsiz, oliyjanob va qabiq, samimiy va manfur odamlarni kuradi.

"Asrga tatigulik kun" romanida voqealar asosan Sari uzak chulida, Buronli temir yul bekatida bulib utadi. Gap butun ongli hayotini bekatda oddiy temiryulchi bulib yashagan Kazangapni vafotidan sung dafn etish taraddudlari tasviri bilan boshlanib, romanning nihoyasida marosim musibat ustiga musibat bilan tutaydi. "qiyomat"da Akbara bilan Toshchaynar romanning deyarli barcha syujet chiziklarini bir-biriga boglagan asosiy qoliplovchi syujet-vosita bulsa, "Asrga tatigulik kun"da qoranor mazkur vazifani bajaradi.

Shirali, favqulodda uziga xos maroqli va jozibador usul-uslub: utmish manzaralari, xalq donishmandligi, xikmatlar bilan omuxta kilingan real voqelik lavhalari, uzicha olganda aqlni lol qilishdan yiroq bulgan odmi-jun turmush tarzining tafsilotlari bilan "tuldirilgan", "bezatilgan", "tasdiqlangan" rivoyatlar muallifning hikoya qilish samimiyatini ta'minlaydi. Romanda har xil tiplar, turli-tuman xarakterlar yaratilgan. Kazangap-oqil, Edigey- sobit, Nayman ona - buyuk jabrdiyda, Oyzoda - mushtipar, Sobitjon-vaYs??i, leytenant Tansiqboyev-girt t pori. har bir personajning uz xulq - atvori, uz e'tiurdi va falsafasi, uz manfaati va ichki dunesi tabiiy ishonarli tarzda ochib berilgan. "qiyomat" romanida Akbara bilan Toshchaynar, Iisus Xristos, Avdiy Kallistratov, Guram J xadze, Buston urkunchiyev, Bolgariya xor kapellasi bilan boglik, voqea va manzaralarning har biri alohida roman, qissa va hikoyalarga arzigulik syujet bula oladi,

Chingiz Aytmatovning ijodi - yangicha tafakkur tarzining samarasi laroq, uziga nisbatan ongli munosabat, idrok, saviya va yuksak madaniyat soqibi b lishni talab etadi. Uning asarlariga eskicha andoza yo sxema bilan yondashib bulmaydi.

Chingiz Aytmatov uzbek xalqiga juda kungli yaqin yozuvchi. U quli qadoq xalqimizning taqdir va qismatiga munosabatdosh, uning baxtiga sarafroz, tashvishlariga teng sherik, musibatiga qaygudosh. uzini uzbekka uzbekning uz farzandiday yaqin oladi.

Adabiyotlar:

1.Jirmunskiy V.M. Vvedeniye i izucheniye eposa "Manas", (Kirgizskiy geroicheskiy epos). M. 1961

2.Borbogulov M. Puti razvitiya qirgizskoy dramaturgii. Bishkek, 1958

Z.Zelenskiy K. Ot folklora kuromanu. M. 1966

4.Baytiyev M. "Mening olti baliqcham", T. 1979 5.Istoriya qirgizskoy literaturo'. M. 1970
7-mavzu (2-soat)

QORAQALPOQ ADABIYO'T

Reja :

1.Xalq ogzaki ijodi.

2. Berdaq

3. Julmurza Oymurzayev

Yarim k chmanchilik bilan kun kechirgan qoraqalpoq xalq murakkab taraqqiyot yulini boshdan kechirdi. qoraqalpoq, xalqining uziga xos juda boy ogzaki ijodi bor. uz.R.FA qoraqalpoqiston ilmiy--gekshirish instituti fondida "Qirq qiz", "Alpomish", "Er qushay", "Mast podsho", "Shahriyor", "Oshik. Garib", "Yusuf va Zulayho", "Oshiq hamro", "Tohir va Zuhro", "Yusuf va Ahmad" dostonlarining variantlari saqlanadi.

Qozoq. xoni Abdulxayrga qarshi kurashda qoraqalpoqlar maglubiyatga uchrab, turt tomonga tarqaldi, Bir qismi Toshkent atrofiga - Chirchiq buylariga, bir qismi Fargona va Samarkand, yana bir qismi Qizilqum orqali Xorazmga - Orol dengizining janubiy soqillariga borib urnashadi. Xalq shoirlari Jiyan Jirav, Kunxuja, Berdaq, Qulmurod, Gulmurodlar real hayotni tasvirlashga harakat qilishgan. Kunxujaning " Uroqchilar", "Tuya ekansan", Ajiniyozning "Buzatov", Berdakning "Shajara", "Ernaazar biy", "Oyd st biy", "Ahmoq podto" asarlari fikrimiz dalilidir,

20-30 yillarda qoraqalpoq ijodkorlari "Erkin qoraqalpoq" gazetasi atrofida jamlanishdi. Adabiyotga kirib kelgan X.Axmetov, A.Matequbov, A.Utepov, J.Oymurzayev, ABegimov, AMusayev, A.Dabilov, S.Nurumbetov singari yozuvchilar yangi goya va fikrlarni surishdi. Ammo mazkur yozuvchilar mavjud tuzum doirasini yorib chiqisha olmadi, Ba'zi birlari harakat ham qilmadi. 1940-1950 yillar mobaynida J.Oymurzayev "Mening dustlarim". "Erboy botir", D.Nazirbergenov "Ikki qahramon", "Dushmanni yengamiz", AUtepov "Saidmurod dangasa", S.Xujaniyozov "Bizning qahramon", ABegimov "Balikchining qizi", X.Seitov "Mashaqqatli baxt", "Sunggi hujum" asarlarini yozgan bulsa, N.Dovqorayev "Qoraqalpoq adabiyoti tarixi ocherki" darsligini nashrdan chiqardi.

Bir-biriga qondosh, jondosh bulgan uzbek va qoraqalpoq xalqlari adabiyoti kup yillik tarixiy boglanishga ega. Uzbek yozuvchilaridan Oybek, Gofur Gulom, Abdulla qahqor, Uygun, Sharof Rashidovlarning asarlari qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan.

Berdaq(1827 - 1900)

Berdimurod Qargaboy ugli Berdaq. Muynoq tumanida baliqchi oilasida tugilgan. Yoshligida ota-onasi vafot etgach, shoir ovulma-ovul yurib tirikchilik qiladi. Dastlabki tahsilni ovulidagi maktabda, keyinchalik madrasada davom ettiradi. Berdaqning ijodi 18-19 yoshlarida dumbira chertib she'r aytishidan boshlangan. 25 yoshida iste'dodli shoir sifatida xalq orasida taniddi. Berdaq xalqning ahvolini yaxpsh tushunardi. Uning "Xalq uchun" she'rida mavjud hayot hech bir buyoqsiz tasvirlangan. Shoirning "Shajara", "Xorazm",

"Amongeldi", "Aydosbiy", "Aqmoq podsho" asarlarida ilk bor jafokash, munis ayollar siymosi chizilgan. Uzbek kitobxonlari 1961 yilda Berdaqning she'rlar tuplamidan bahramand bulishdi.

Yigit bulsang arslon kabi tugilgan,

Hamisha sen xizmat etgil xalq uchun

Yigit bulsang arslon kabi tugilgan,

Uzim deyman, gamxurlik hil xalq uchun

Shoirning nazdicha, yigit kishi el yurti uchun xizmat qilsa, murodi yetadi. Dushmanning dodini bersa, Vatanni himoya qilsa, ulus undan minnatdor buladi.

Etarsan murodga, gar xizmat etsang,

Eling yullaganda har hayon ketsang

har qachon dushmanning boshiga yetsang,

Kuch ayamay, xizmat ayla xalq uchun

Bilim insonni yuqori chuqqilarga olib chiqadi. Agar yigit bilimdon bulsa, ustiga ustak hunar egasi bulsa, xalqqa undan katta foyda keladi.

Yigit degan yaxshi bilimdon bulur,

Bilim, hunar yigit uchun shon bulur

Aqlsizlar ishi kup yomon bulur,

Aqmoqlar hech xizmat etmas xalq uchun

Berdaq uzining ogir ahvolda yashagani, yoshligida ovulma-ovul yurib ogir mehnat qilganini satrlarda jo etgan.

Bulmadi hech yerda manzil-makonim,

Zahru zaqhum buldi ichgan-eganim

Aytmas-da bulmadi mening deganim,

Kuyganlikdan jon qiynalur xalq uchun

Ammo shoir barcha qiyinchiliklarni xalq, el-ulus farovonligi yulidagi qiynalish deb qabul qiladi.

Ogir kunlar utib, yaxshi, farovon, ozod kunlar kelishiga ishonadi:

Shoir edim, kuzim kurganin yozdim,

Kunglimning bilganim, sezganim yozdim

Zamon jafosidan sargaydim.ozdim,

Kelurmi deb yaxshi kunlar xalq uchun

"Yoz kelurmi" asari Berdaqning siyosiy qarashlarini tuliq aks ettirgan, Unda istilochilar tomonidan ezilgan qoraqalpoq xalqining kuksiga qachon istiklol, ozodlik, quyoshi tegarkin degan

ilinj yotibdi.

Dovul turdi, tuman yurdi,

Fuqaroga yoz kelurmi?

Qushnimning qamishin surdi,

Fuqoroga yoz kelurmi?

Qish va yoz faslining qarama-qarshi quyish asnosida shoir aytmoqchiki, istilochilarning qatti-harakati kishga, fuqaroga ozodlik kelishi yozga mengzitetiladi.

Jon achitar qora sovuq,

Yoz kelmasdan buldi sovuq

Umr buyi shunday xurlik,

Fuqaroga yoz kelurmi?

Qishning qahri shunchalik qattiq keldiki, bechora fuqaroning ichishga yovqoni, yurishga ot ulovi, yoty pga tushak-<gushi qolmadi.

Yovqonim yuq, ichay desam,

Ot-ulov yuq, tushay desam

Tushagim yuq, tushay desam,

Shurlik elga yoz kelurmi?

Shoirning ozodlik haqidagi ilinjlari u yoki bu darajada boshqa asarlarida uz ifodasini topgan. Umr buyi haq va haqiqat deb kurashgan shoir ishonadiki, yashnab, yayrab yoz fasli keladi.

haq qayda, haqiqat qayda?

Hunday azob hamma joyda

Tuqlardan yuq, qittak foyda

Yashnab, yayrab yoz kelurmi?

Julmurza Oymurzayev (1910 yilda tugilgan)

qoraqalpoq adabiyotining yetuk vakili Julmurza Oymurzayev Chimboyda kambagal oilasida tugilgan. Yangi usuldagi maktabni tugatgach, Turtkuldagi pedagogika texnikumida tahsil oladi. Bir necha yil uqituvchilik qiladi. Keyinchalik gazeta va jurnal taqririyatlari. qoraqalpoqiston Davlat nashriyetida ishlagan. Adib ijodini 1927 yildan boshladi. 1935-1936 yillar orasida Moskvada shoirning ikkita tuplami chop etildi. 1938 yilda tuplamlarga qushimcha ravishda "Kurash", "Biz kurashda yengdik" dostonlari nashrdan chiqdi. Dramaturg sifatida bir qator pesalar yozib ulgurgan adibning "Oygulobod", "Amu qirgoqlarida", "Berdaq" asarlari bir necha yil qoraqalpoqiston Davlat teatri repertuaridan tushmadi.

J.Oymurzayev kichik hikoya, ocherk va feletonlar yozish barobarida "Qameqboy ishi" nomli romanini ham qalamdan chiqardi. Unda qoraqalpoq mehnatkashlarining hayoti uz aksini topgan. qoraqalpoq adabiyoti va san'atini rivojlantishga qushgan qissasi uchun Julmurza Oymurzayevga uzbekistonda xizmat kursatgan san'at arbobi unvoni berildi.

"Chupon sibizgasiida shoir qoraqalpoq chullarida tunu-kun xizmat qilib charchamaydigan Chupon siymosini quyidagicha chizadi:

Yangi kum-kuk yaylovda, Amu buyida,

Sibizga chalmoqda bir kekxa chupon

Biri un buladi bahor oyida ,

Har kuni uygonar tugmasdan chullon

Jahonni qamrab, nur toshgan kuzi,

Kungli kunday yorug-kirda tuy-tuylab

Bir tepa ustiga otilarkan uzi,

hayollari ketar Amuni buylab

Shoir ishonadiki, qoraqalpoq xalqining utmishn, qadriyat osori-atiqalari abadiy. Millatning ertangi kuni porloq. Bu goyani u "Oydin yul" asarida guzal tarzda tasvirlaydi:

Ertangi kun shunday porloq, shunday keng,

Eri cheksiz, suvi beman, davlat mul

Derlar: bu xalq bekor qurmabdi ekan -

Ertangi kun uchun yorug, oydin yul

Julmurza Amudaryo farzandi. U tulqinlanib, kupirib oquvchi Amuni maqtash asnosida butun qoraqalpoq xalqiga chuqur ta'zim qilganday buladi.

Ey erkin, dilrabo, qadrdon Amu, -
Jonajon ulkamning boyligi, xusni
Bagringda xushchaqchaq, farovon hayot,
Fypyp bilan tilga olinur isming

Albatta, shoir ijodi namunalari ichida shuro davlatini maqtab yozilgan asarlar ham anchagina. Bunga tabiiy yol deb qarashimiz kerak. Maqsadimiz shoir asarlarini yangicha nuqtai nazardan taxlil etishdir.

Adabiyotlar:

- 1-Aimbetov K. Svendeniye o jizni i tvorchestve Berdaxa. Vuknige Berdax. Poli. Sobr. Nukus. 1950
 - 2.Antologiya qoraqalpaqskoy poezii. T. 1963
 - Z.Voxidov ?. Berdakning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. T. 1962
 - 4.Aimbetov K. qoraqalpoq folklori. N. 1977
 - 5.Qurbonboyev. Berdaq ijodi. T. 1977
 - 6.Yusupov I. "Chul taragayi" T. 1975
- 8-mavzu (4-soat)

P-BOB KAVKAZ VA KAVKAZORTI XALQLARI ADABIYOTI

Reja:

1. OZARBAYJON ADABIYOTI
2. Nizomiy Ganjaviy
3. Mirzo Fatali Oxundov
- 4 Aliakbar Sobir
5. Samad Vurgun
- 6 Mehdi Husayn

Bu gururga Kavkaz va Kavkazortida yashovchi un beshga yaqin xalqlarning adabiyoti kiradi, Ulardan ozarbayjon, arman va gruzin adabiyotlari kup asrlik tarixga uzga bulsa, abxaz, lezgin, kabardin, osetin, ?.UMI?, lak, dargin kabi xalq-larning yozma adabiyoti nisbatan birmuncha keyin shakllangan. Shunga qaramay, bu adabiyotlar urtasida ularning bir-biriga boglovchi qadimiy an'analar mavjud. Ozarbayjon hamda humiq adabiyotlari bilan uzbek adabiyoti urtasida, lak va osetin adabiyotlari bilan tojik adabiyoti urtasida ancha mushtarak, uxshash xususiyatlar bor. Chunki ular bir tizimdagi qardosh milliy tillarda suzlashib, Sharq mumtoz adabiyotining qadimiy, boy xazinasidan baxra olganlar. Nizomiy-Ganjaviyning "Xamsa" siga kirgan dostonlar, Shota Rustavelining "Yulbars terisini yopingan paxlavon" eposi, Mxitar Gay, Vardan Gaykesi masallari goyaviy-badiiy jihatidan yetuk asarlar sifatida sha zamondayok. -loqsh- e'tirof etilgai edi.

Turln davrlarda Kavkaz va Kavkazorti xalqlari adabiyotida Voqif, Vidodiy, Sayat Nova, David Guramishvili, S.Orbeliani, X.Abovyan, M.Oxundov, G.Arstavi, G.Sandukyan, I.Chavchavadze, E.Ninapgaili, A.Sobir, J.Mamatqulizoda, A-Akopyan, A.Sulukidze, S.Shaumyan, S.Spandaryan, Sulaymon Stalskiy, Efendi Kaptev, Gamzat Sadasa, Rasul Gamzatov, M.Dishekov, Ladiko, Xusin Gashokov, A.Shortanov, A.NISHONOV, Dmitriy Gulik, Ivan Tarba, Ivan Papaskirilar barakali ijod kilishdi.

OZARBAYJON ADABIYOTI

Ozarbayjon xalqi eng qadimiy madaniyat tarixi va boy adabiyotga ega bulgan turkiyzabon xalqdir. Turli-tuman adabiy janrlarda yaratilgan ishkiy-qahramonlik dostonlari, ertaklari, marosim va muhabbat qushiq-lari, xalq latifalari hamda maqollaridan iborat folklor asarlari turli tarixiy davrda yaratilib, ogizdan-ogizga kuchib yurgan. Bular sirasiga "Kitobi dada Kurgut", "Kur ugli" e oslari, "Oshiq Garib", "Shog Ismoil", "Asli va Karam" dostonlari, Melik-Mamed va Kal Ahmad sarguzashtlaridan hikoya qiluvchi ertaklar, insoniy muhabbatni olqishlovchi turtlik-

bayotlar mansubdir.

"Kitobi dada Kurgut" eposi taxminan VTI-VHJ asrlarda ona tilida ijod etilgan yirik badiiy asar bulib, uning 12 qissasida guz-turkiy qabilalarshshg ozodlik uchun olib borgan kurashi ifodasini topgan. Ozarbayjonda VIbVIII asrlarda arab tili, asrdan boshlab esa fors tili rasmiy davlat tili hisoblangani uchun Ismoil Yassor, Ahmad Tabriziy, Baqmanyor Alii Bokuyi, Xatib Tabriziy, Xoqoniy, Shervoniy, Nizomiy Ganjaviy, Muhammad Fuzuliy asarlarini mazkur tilda bitishgan. hattoki, Mirzo Fatali Oxundov ushbu an'anani davom ettirgan.

Shuro tuzumi davrida turli ijtimoiy-siyosiy har xillikka qaramay O.Sayrivelli, A.Jamil, Z.Xalil, N.Rafibeyli, N.Saidzoda, K.Qosimzoda, A.Boboyev, G.Imomberdiyev, S.Rahimov, M.Huseyn, M.Ibrohimov, A.Valiyev, AAzizbekovlar ijod qilgan. Ozarbayjon romanchiligida Mirza Ibrohimovning "Shunday kun keladi", Manaf Ibrogimovning "Er osti sirlari", Iso Huseynovning "Tong yulduzi", dramaturgiyasida J.Jabramining " tukelini", "Olmos", Samad Vurqunning "Vohif", S.Rustamning "Qochoq Nabi", I.Efendiyevning "Yorqin yul", "Shifobaxsh suvlar" asarlari katta shuhratga ega buldi.

Uzbek adabiyotining rivojlanishiga qardosh ozarlarning ijobiy ta'siri bor. gariyb barcha ozarbayjon adabiyotining namoyandalari asarlari uzbek tilida chop ettirilgan, Adabiyotlar orasidagi munosabatlar davlatlarimiz orasidagi har tomonlama aloqalar bilan mustahkamlangan.

Nizomiy Ganjaviy (1141 - 1202)

Buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Ilyos Yusuf utli Nizomiy Ganja shahrida hunarmand oilasida tugilgan. Fors va arab tillarini chuqur urgangan Nizomiy astronomiya, matematika, falsafa, tibbiyot ilmini mukammal egallaydi. uttiz ming bantdan tashkil topgan "Xamsa" bilan shoir xamsanavislik an'anasiga asos soldi. Nizomiy-sufiy shoir edi, U shervoniy shahzodalarning saroyidan kura uzining kamtarona kulbasini afzal bilgan. Ammo "Xamsa"ga kirgan "Maxzon ul-asror", "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Haft paykar", "Iskandarnoma" dostonlarini podsholarning topshirigi bilan yezgan. Shoirning dostonlaridan ilqomlanib Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy va Xusrav Dehlaviylar beshlik yozishdi. "Maxzan ul-asror"da shoir yezadi:

Ogil agar suz bila suzni topar,
Orif shal suzda uzini topar
Ulki bilur suz guqari qiymatin,
Suzda topar suzlaguvchining otin
Aqli nazar shevasini suz bilur,
Nuri basar mevasini kuz bilur
Suz kuzidur ulki kurar qolni,
Uz suidur ulki surar qolni
Suzda kuz-u, suzlaguvchida nazar,
Yuq esa suz kezlaguvchida xabar
Zoqiru botin xabari suzdadur,
Har naki bor uzgada yuk, uzgadur
Ul kishikim, topmadi suz ganjini,
Qilmadi qabou qadar uz ranjini
Kimki nazar manzaridin yumdi kuz,
Quydi meros uzdin qayri suz
Umri garonmoya chu bulgay talaf,
Suzdur - u suz daynida qolgay xalaf
Mirzo Fatali Oxundov (1812 - 1878)

Ozarbayjon ma'rifatparvarlari orasida dramaturg va mutafakkir Mirzo fatali Oxundovning alohida urni bor. Yohligida eski maktabda savodini chiqarib, bir necha tilni mukammal egallagan Mirzo Fatali Tiflis shahridagi rus-tatar bilim yurtida qiydi. Ulug rus shoiri Pushkinning ijodi bulajak ma'rifatparvarni uziga rom aylaydi, Uning "Pushkin vafotiga" asari shu oshuftalik nishonasidir.

Mirzoning fikricha, ozarbayjon xalqining ayanchli ahvolda yashashiga asosiy sabab xalqning savodsizligi. Shuning uchun u zur berib ma'rifat tarqatish, kambagallar bolasini qitish, savodxon

qilishga intildi. Arab alifbosini lotin yozuviga qayta tuzib chiqti. hayotning illatlarini Mirzo komediyalar magziga singdyrishga

Harakat qildi. "Mullo Ibrohim Xalil Kimegar" (1850), "Xasis kishiniag sarguzashti" (1852), "Tabiatshunos Muse Jordan" (1850) komediyalari ozarbayjon adabiyotida maazkur janrni rivojlanishiga asos buldi. Mirzo Fatali xalq ogzaki ijodining lmas sarchashmalarini "Aldangan yulduzlar" povestiga singdirgan bulsa, V.Belinskiy, N.Chernishevskiy, N.Dobrolyubovlar falsafasini maktub shaklida yozilgan. "Hind shahzodasi Kamol ud-Davlaning Eron shahzodasi Jalol-ud-Davlaga yozgan uch maktubi va undan -olgan javobi" asarida davom ettiradi. Mirzo jamiyatdaga tengsizlik, jaholat, xasislik, farosatsizlik va nodonlikni 1855 yilda yozilgan "Tabrizlik quruq himoyachilari", "Lenkoran xonligining vaziri" komediyalarida real tasvirley olgan.

Mirzo Fatali Oxundovning "Pushkin vafotiga" asari ulut shoir Maksud Shayxzoda va Zohid Obidov tomonidan uzbekchalashtirilgan. Ammo tarjimalar orasida Shayxzodaning girmasi asliyatga yaqin, original matnning mohiyatini saqlab qolgan, Asarda shoir kungli bilan suhbatlashadi. Gamgin, xomush kunglining aytar suzi, dardi bor.

Kungil menga javob berdi: "Ey yolgizlik sirdoshim, quygin meni uz qolimga! uz kulfatim - uz boshim! Lekin menga aniq buldi: zamona bevafor, Oqibati puch ekandir, ishi jabru jafodir

Kungilning tilidan shoir Pushkin siymosini guzal tarzda chizadi:

Nahotki, sen eshitmabsan, ey dunyodan bexabar, Pushkin nomli u zotniki, shoirlarga bosh rahbari ! U Pushkinki, uning suzga oro berish san'atin, har burchakda yuzlab sado olqishlardi kunu tun U Pushkinki, qalamining ostida oq qogoz, Misralarning siyogidan qoraymoqqa shod-rozi Lomonosov jilo berdi she'riyatning uyiga, Pushkin esa sha uyga bulib qoldi chin ega Garchi kirib fatq ayladi Derjavin suz diyorin, Pushkin oddi sha mulkka sultonlik ixtiyerin Ma'rifatning sharobidan Karamzin jom tulatdi, Bu ilim tulgan moy kosasin Pushkin ichib bushatdi Nikolayning dongi ketsa Chinga, Tataristonga, Pushkinning chin fazilati mashhur buldi jahonga

Mirzo Fatali Oxundovning fikricha, ajal yeli uning ruh chirogini uchirdi, bu uliston sahnasida keksa bogbon teshasi bilan niholni kesib tashladi. Ma'nolar xazinasini ketgach esa bu falak ilonxonaga aylandi, Yerda gul emas xor-gikan usdi.

Buyurdilar: yuzi qora bulutdan dul tukildi,

Uning hayot daraxtidan mevalar mul tukildi Uning nihol qomatini bu guliston sahnidan, Keksas bogbon kesib oldi tesha bilan daf'atan Ta'b bulbulin sayratuvchi guncha qalbi chirigan, Endi qarang, bu tuproqdan bosh chikardi xor-tikan

Aliakbar Sobir (1862 - 1911)

Ozarbayjon ma'rifatparvarlari orasida istiqloliy goyalarni baralla aytib chiqqan shoir Aliakbar Sobir 1862 yilda Hamaxada mayda savdogar oilasida tugilgan. Avval eski maktabda, keyinchalik ma'rifatparvar Saidazim Shirvoniy ochgan maktabda tahsil oladi. Umri davomida Aliakbar Eron va urta Osiye shaharlariniy kezib chiqqan. El-ulusning farzanddarini yangi usulda yutish uchun maktab ochgan shoir yituvchilik qiladi. Sungra Ozarboyjonda chop etiladigan gazeta va jurnallarda ishlay boshladi. Avval boshda shoir publitsistik maqolalar yozgan bulsa, sekin-asta Jalil Mamadqulizoda tomonidan ta'sis etilgan "Mullo Nasriddin" Hajviy jurnalida yumoristik chiqishlar qila boshladi, 1905 yilda yozgan "Baynalmilal", "qaygurma" singari utkir siyosiy she'rlarida Aliakbar turli millatlarni dust va inoq, birodar bulib yashash va farovon, ozod yurt uchun kurashish maslaida birlapshshga da'vat etadi.

Asrimiz xoqish etarkan itgafoku ittiquod, Jumlamiz bulsak inoq - shul ezgu niyat-la, murod Ne uchun yuqdir inokdik, nega el kulmaydi shod? Bu vatan avlodida zohir bulib buqzi inod Tushdi armon va musulmonlar aro fisku fasod, Yuqmi bir soqibi davlat, yuqmi bir axli savod? Ey suxanvarlar, bu kunlar bir hidoyat vaktidir, Ulfat-u dustlikka chorlovchi xitobat vaqtdir.

She'rdas mazkur ikki qator qayta - qayta takrorlanadi. Sabab shoir aytmokchi bulgan fikriga yana kuproq urgu beradi. Uningcha, xusumatlarni yuq qilib, sulq tuzish, zulmat va falokatlarni oldini olib, xalqqa xizmat qilish vaqti keldi. Buning uchun birlashish darkor.

Guzgal, ey sen hamshahar xalqingga xizmat vaqtdir,

Chorai sulq axtarib, daf'i xusumat vaktidir

Elga haqqin bildirib, da'fi falokat vaktidir,
Kun kabi yogdu sochib, poymoli zulmat vaktidir
Tozalab yurtning marazdin ayni qimmat vaqtidir,
Sobirol, baynalmilal marshiga navbat vaqtidir
Sharq ogzaki va yozma adabiyotida pand-nasihat shaklida mashhur bulgan mavzularni Aliakbar qissa she'riy hikoyalar tarzida tasvirlaydi. "Tabib bilan bemor"da nafsiga bandi kishini keskin tanqidga olsa, "Keksa bogbon"da odamlarga yaxshilik qilish, uzidan yaxshi nom qoldirish azaliy qadriyat ekanini isbotlaydi.

Chol dedi: - Otalar qoldirgan meros,
qadrlab me vasin yeyishimiz rost
Ekaylik biz kabi yeganlar uchun,
Bizni eslab rahmat deganlar uchun

"Savdogar va qil" hikoyatida Sharqning azaliy falsafasi - ota va ugil munosabatlari, axloqiy tarbiya nizomlari guzal tarzda ifodalangan. Tasvirlanishicha, quli egri, nafsiga bandi savdogar quli bilan birga dukonda ishlardi. Otasining qingir ishlarini kurib katta bulgan ugil otasi yugida dukonning pulidan girdaydi. Otasi bilib qolib uglini uradi. Shunda shoir uz xulosasini qariya tilidan keltiradi:

Nima eksang - olasan shuni,
Hunaringga urgatding buni
Tarbiyaga farzand muqtojdir,
Ota ishi unga bir tojdir
Xoq yaxshiyu, xoq yomon ishlar,
Bari sendan, bil, urganishar!
Sen qalolmi - farzanding halol,
Sendan kurib sar shu nihol

Samad Vurgun (1906 - 1956) va Mehdi Husayn (1909 - 1965)

Ozarbayjon xalqining zabardast shoiri, dramaturgi va jamoat arbobi Samad Yusuf ugli Vekilov Qazax tumaniga qarashli Salaxli qishlogida tutilgan. Uquvchilar seminariyada tahsil olgach, bir necha yil muallimlik qildi. Moskvada oliy ma'lumot olgan. Ijodini she'r yozishdan boshlagan Samad tez orada "Shoirning qasami", "Fonar", "Kungil daftari", "She'rlar", "Tong qushigi" kabi tuplamlarni chop ettirdi. Turli mavzulardagi "Yigirma oltilar", "lim kursisi", "Kolxozchi xotin Basti haqida qissa", "Toliston", "Mugan", "Zayajining orzulari" dostonlari, "Dunyo xotirasi" siyosiy she'rlar tuplami, "Vohif", "Xonlar", "Farhod va Shirin" pesalari Samad Vurgunning mustahkam urnini belgilab berdi. Shoir "Vohif", "Farhod va Shirin" pesalari uchun ikki marta Dalat mukofotiga sazovor bulgan. U 1956 yilda Bakuda vafot etgan Samad Vurhun ijodini talqin etish nihoyatda murakkab. Sabab-u bir tarafdin pguroni barcha shoirlar singari osmon qadar maqtaydi. Ikkinchi tarafdin u nihoyatda dilbar shoir. "Ona haykali" asarini taxdil etgan mazkur fikr uz isbotini topadi.

uylab boq: toshlardan, uz goyalardan
Surat yaratadi bir haykaltarosh
Guyo nafas olar tirik bir inson,
Yashaydi yuz minglab asrga sirdosh

Yashaydi san'atkor, yashaydi san'at -Nasldan - nasllarga beradi salom Oq, ona tabiat, ona tabiat!
Eng buyuk avloding insondir mudom

Mehdi Husayn Ali ugli 1909 yilda qazax tumaniga qarashli Shixli qishlogida uqituvchi oilasida tugilgan. Uning yoshlik yillari Gruzianing shahar va qishloqdarida utgan. Oliy ma'lumotni olgach, 1947 - 1949 yillarda Maskvada kinematografiya institutining rejissyorlik bulimida tahsil olgan. U "Komissar" {1942}, "Tarlon" (1940), "Fantaziya", "Qardoshlik oilasida" kabi unlab hikoyalar, "Sahar", "Uygonish", "Qora goyalar", "Absheron" romani, "Jovonsher", "Intizor", "Nizomiy", "Alanga" kabi dramalarini yozib, ozarboyjon xalqining hayotidagi muhim bosqichlarni keng kulamda aks ettira olgan.

"Uygonish" romanida u ozar dehqonlarining uygonish jarayonini tasvirlasa, "Sahar"da Oktyabr

tuntarishida halok bulgan. 26 nafar bakulik ug'lonlarning fojiasini aks ettiradi. Agar "Tarlon" povesti dehqonlar hayoti haqida hikoya qilsa, "Absheron" romanida ishchilar hayoti mukammal tasvir etilgan. Ayni shu asar davlat mukofotiga sazovor bulgan edi.

Adabiyotlar:

1, Antologiya Azerbayjanskoy poezii. M. 1960 2. G. OETI Azerbayjana. L. 1970 3. Narodnaya poeziya Azerbaydjana. L. 1978 4. Dadam"zade. Azerbaydjanskaya literatura. M. 1979 5. Bertels Ye.A. "Nizami. Tvorcheskiy put poeta". M. 1956 6. Ibragimov M. "Kniga moyey jizni". M. 1980 9- mavzu (2-soat)

ARMAN ADABIYOTI

Reja:

1. Xalq ogzaki ijodi
2. Ovanes Tumanyan
3. Yeghishe Charens
4. Nairi Zaryan

Arman xalqi qadimiy boy madaniyat va adabiyotga ega. Ertak, qushiq, terma, epik doston va afsona, maqol va hikmatli suzlarni uz ichiga olgan arman xalq ogzaki ijodi yozma adabiyot uchun asos manba sanaladi. Turli davrlarda ijod etilgan Artashes va Satenik, Tigran va Ajdaak, Arshak va Hapux, Tarush va Mush, Mokaz Mirzolar tug'risidagi dostonlarning katta tarixiy hamda ma'naviy ahamiyati bor. VIII - X asrlarda arab bosqinchilariga qarshi kurashgan arman xalqining hayotini qahramonlik dostoni "Sosunlik Davud" uz ichiga singdirgan, Arman xalq ogzaki xalq ijodi namunalaridan - XIX-XX asrning taraqqiyparvarlari X. Abovan, P. Prohyan, G. Agayan, A. Isaakyan, O. Tumanyanlar uz asarlarida keng kulamda foydalanishgan.

V asrga kelib armanlarning mustaqil davlat bulib birlashishga intilishlari kuchaygan bir vaqtda adabiy hayotning birmuncha jonlanishi arman tilida yozma adabiyotning paydo bulishiga ehtiyoj tuq'dirdi.

IV asrda (393) mashhur ma'rifatparvar olim - yepiskop Mesrop Mashtok tomonidan arman yozuvining ixtiro qilinishi original va tarjima adabiyotning jadal tarzda rivojlanishiga turtki buldi.

VH-IX asrlarda arab istilochilari zulmida armanlar ezilgan va 886 yildagina ozod bulgan bulsa, XI asr urtalarida Vizantiya bu xalqni mustamlakasiga aylayatirdi. XII asrda Gruziyaning kumagi bilan armanlar Vizantiya va saljuqiy bosqinidan ozod bulishdi, Mustaqil armanga Kilikiya podsholigi urnatildi. XII asrga kelib "grabar" deb ataluvchi qadimgi arman tili ulik tilga aylana borib, shoirlar uz asarlarini "Urta arman tili" deb yuritiladigan tilda yoza boshladilar. XIV asrda Kilikiya davlati yiqitilib, Eron va Turkiya hukumdorlari tarafidan armaniston tuprog'idagi xalq talandi. Ammo armanlar uz ona tilining sofligi va milliy adabiyotining ravnaqi uchun kurashni izchillik bilan davom etgirdi. Bu sogada Ovanes Tulkurans (XIV), Mkrtich Nagosh (XIV), Grigor Axtaramsi (XVI), Naapeg Kuchak (XVI), Nagash Ovnagan (XVIII), Bagdasar Dpir, Sayat Nova singari shoir va adiblarning xizmati katta. XIX asr boshlarida Sharqiy Armanistonni Rossiya bosib oldi. Uch tarafdin ezilgan arman xalqining oxu - nolalalarini arman adabiyotining asoschilaridan biri Xachatur Abovyan uzining "Armaniya yaralardi" asarida tasvirlagan. Gafur Gulom, Uygun, Sharof Rashidov, Zulfiya singari yozuvchilarning asarlari chop utildi. Uzbek kitobxonlari O. Tumanyanning "Anush", Ye. Charensning "Charensdan salom", N. Zaryanning "Atsavan", G. Sevunsning "Teqron" epopeyasi, Kaputikyaning she'riy tuplamidan bahramand bulishdi. Shu barobarida "Farhod va Shirin"ni Mikael Koryun arman tiliga, "Sosunlik Dovud" eposini Maksud Shayxzoda va Gafur Gulom uzbek tiliga tarjima qildilar. hozirda Armaniston milliy markazi tulaqonli faoliyat yuritib, ikki mustaqil davlatning hamkorligini mustahkamlashga harakat qilyapti.

Ovanes Tumanyan (1869 - 1923)

Arman adabiyotining yirik namoyandasi, shoir, nosir va dramaturg Ovanes Lori tumaniga qarashli Dsex qishlogida ruhoniyl oilasida tug'ilgan. Avval Jalologli qishlogida Tegrin Davtyan maktabida, sung Tiflis shahridagi arman liniy seminariyasida tahsil oldi. 1890-yillarda "Murch"

("Bolta") va "Axbyur" ("Buloq") jurnallarida ishladi. Ijodini she'r, masal yozishdan boshlangan Tumanyanning "Mushuk va it", "Maro", "Quyosh va oy", "Lorilik Sako" singari doston, she'r va masallari xalq ogzaki ijodi asarlariga xos motivlar bilan sugorilgandir.

Tiflisdagi adabiyot muhiti Ovanesning ijodiy faoliyatiga kuchli ta'sir QILDI. Bu yerda u atoqli arman yezuvchilaridan Raffi, Shervonzoda, Sundukyan bilan yaqindan tanishadi. Bu tanishuv natijasi ularoq jahon adabiyoti namoyandalari Pushkin, Bayron, Shekspir asarlaridan arman tiliga tarjimalar qildi. Uzi ham

"Artavazd 2", "Shoh Ovanes", "Timkaberd qal'asining zabt etilishi", "Parvona", "Sosunlik Dovud", "Anush" kabi tarixiy dostonlarini yozdi. Aniq haqiqatni tan olish kerakki, Ovanes Tumanyan Oktyabr tuntarishini salbiy qabul qildi. Shuning uchun uni ikki marta qamoqqa olishdi. 1908-1909 yillarda unni Peterburg qamoqxonasiga junatishdi. Shoirning she'rlarida norozilik ohanglari yaqqol kuzga tashlanadi. "Quchchi qushigi"da u xudodan madad istab, nochorlikdan norozi bulsa,

Gadoy keldi surab sadaqa,
Hammasiga pul kerakdir, pul!
Ozgina yer, yuq sariq chaqa,
Gangitmoqda nochorlik nuqul

"Xudoga nido" asarida u Yaratgandan ham, bandasidan norozi buladi. Satrlar mutolaasidan sezish mumkinki, nochorlik, yuqchilik Ovanesning jonidan utgan.

Agar uzing bor bulsang, xudo,
Yaratmagan bulsayat olamni
Kuz yoshini, mash'um qullikni,
Umlarning egovi qamni

Shoir Yaratganga ochiqdan-ochiq murojaat qiladiki, manfur jamiyatdagi nopoklarni, zulmkorlarni yuq qil!

Hularni daf qilolmaysanmi,
Bulsa senda chindan iqtidor
Yo fursati kelmadimikin,
Bulsang uzing buyuk ijodkor!

' "Armanning qaygusi" asarida shoir tubsiz va cheksiz dengizday bepoyon xalqning dardini satrlarda joylaydi,

Armanning qaygusi tubsiz va cheksiz,
Xuddi dengiz kabi bepoyon
Loyqa tulqinlanib turgan shu dengiz,
Qahrda men hasratda hamon
Na u qirgog topar, na dengiz tubin,
Uzidan ham qattoki bezor

Armanga bu jahon tordir bus-butun,
Joy qiynalur nochor, beqaror

Arman qaygusi - ozodlik, shurlik. Millatning rivoji, takomili, farzandlar kamoloti birgina suz ozodlik, istiqlol bilan bogliq.

Kurkam dalalarningning maftuniman azaldai,
Qalbimda zur mehring bor chaqaloqlik maqaldan
Ammo har gal tikilsam gamga tuladi yurak,
Jafokash aziz elim, xunob buladi yurak
Quvgynga duchor bulgan farzandlaring beqisob,

Vayrona qishloqlaring, shaharlaring ham xarob: O, afsus lkam, Kup ma'yus ulkam!

Millatni dushman poymol etgan, gullar sultan, qishlogu shaharlarda yigi-sigi, nola, qushiq va kuylar hasrati tula, zolimlarning nohak, suzlaridan kuloklar kar, kuz yoshlar bulmoq misol oqadi. Ulkaning bagri kurn! Ammo millat batamom lgani yuq., jondan sevuvchi farzandlar ulkani uygotishi kerak. Shu bois shoir xalqqa harata "Uygon, muqaddas ulka" deya murojaat qiladi. U ishonadiki, komil tong etadi, quyosh chiqadi:

Ishonchimiz komildir, payt kelib tong otadi, Uyquda soglom yurak qachongacha yotadi?
Ishonchimiz komildir, kutarganda bosh kuyosh, Keksa Araratadagi har bir giyoq, har bir tosh
Nurni xurram qarshilar hayotdan mamnun bulib, Shoirning yangi qushiq yaratar zavqqa tulib
Saklama sukut, Istiqbolli yurt!

Yegishe Charens (1897 - 1937)

Zabardast arman shoiri Yegishe Sogomonyan Charens Kare shahrida mayda savdogar oilasida tugilgan. Mahalliy rus gimnaziyasida tahsil olgach, 1915 yidda ixtiyoriy ravishda Birinchi jahon urushida qatnashgan. Dashnoklarga qarshi kurashda Bronepoyezdning siyosiy komissari bulgan. Ijodining ilk boskichida "Gamgin qizning uch qushigi", "Moviy osmonli Vatan", "Kamalak" tuplamini nashr etdi. Bu she'rlarda Aleksandrning Blokning ta'siri kuchli edi. Arman adabiyotida Mayakovskiyning zinapoya shaklidagi she'rlarini olib kirgan ham Yegishedir. Charens - hajv ustasi. U "Kavkaz - tomosha". "Nairi mamlakat" komediyalarida mavjud hayotning illatlarini real tasvirlashga harakat qilgan. Xorijga qilgan safar taassurotlari asosida u "Istambul", "Parij komunarlari devori", "Venetsiya elegiyasi" asarlarini yaratadi.

Egishe Charens 40 yoshida 1937 yilda aafot etgan. 1962 yilda uzbek tilida shonrning "Charensdai salom" she'riy tuplami chop etildi.

Nairi Zaryan {1901 - 1957)

Nairi Zaryan (Ayastan Yegiazaryan) Turkiyada Garbiy Arman istonning Van viloyatidagi qarakonis qishlogida kambagal deqqon oilasida tugilgan. Arman kirshni vaqtida ota-onasidan ajralgan Nairi qochoqlarga qushilib, Rossiyaga keladi. 1923 yilda u Yerevan Davlat universitetiga ukishga kiradi. Tahsildan sung Davlat muzeyida, keyinchalik gazeta va jurnallarda ishlag'an. Ijodini 1921 yildan boshlagan shoir qissa fursat ichida "Moviy kanallar ulkasi", "Qal'a", "Jangovar qilich", "Asrlar, quloq osing" singari she'riy tuplamlari, "Ranush", "Xitoy ayoli", "Tatev chuqqisi", "Rushan chuqkisi", "Mangulik raqsi", "Vatan ovozi" kabi dostonlarni yozib, nashrdan chiqardi. qishloq xujaligida ishlovchi deqqonlarning yashash darajasi Nairining "Atsavan" romanida aksini topdi.

Nairi Zaryan "qasos" (1942), "Kuydiruvchi maska", Tuzal Ara" (1946), "Buloq boshida"(1948) singari sahna asarlarini yaratib, arman xalqining uzoq utmishi, hayotini teranroq tasvirlashga harakat qilgan. A.Pushkin, V.Mayakovskiy, Bagritskiy, Yanka Kupala, Samad Vurgun asarlarini arman tiliga original tarzda tarjima qilgan ham Nairidir.

Adabiyotlar:

1.Antologiya armanskoy poezii. Sudrevneyshix vremen do nashix dnei.

M. 1940

2.Alazaya V. Stixi. M. 1958

Z.Zaryan N. Izbranno'e stixi i poemo'. M. 1958

10-mavzu (2-soat)

GRUZIN VA DOGISTON ADABIYOTI

Reja:

1. Xalq ogzaki ijodi
- 2 Shota Rustaveli
3. Ilya Chavchavadze
- 4 Rasul Gamzatov

Miloddan avvalgi ming yillikda paydo bulgan gruzin adabiyoti boy tarixiy manbaga ega. Gruzinlarda yozuv qadimdan mavjud. XI asrgacha ular xutsuri (cherkov yozuvi) deb ataladigan, XI asrdan boshlab mxedruli (fuqaro yozuvi) nomli yezuvlar bilan ish yuritganlar. Gruzin yozma adabiyoti quyidagicha davrlapggiriladi:

1. Qadimgi gruzin adabiyoti
 - a) Ilk davri - V - XI asrlar;
 - 6} Urta davri - XI - XIII asrlar;
 - v) Sunggi davri - XIII - XVIII asrlar
2. XIX asrdan XX asrgacha

3. Hozirgi zamoy adabiyoti

Gruzin xalq ogzaki ijodi qushiq., afsona, ertak, qaxramonlik dostonlari, ballada, maqol va topishmoqlarga juda boy. qadimgi Yunon tarixchisi Ksenofontning yozishicha, gruzinlarda miloddai oldingi IV asrlardayoq askarlar qushiqlarni xor shaklida ijro etganlar. Gruzinlarda Prometeyning muqobili Amirani bulgan va u haqda dostonlar yaratilgan. Gruzin yozma adabiyoti uzining ilk bosqichida XI asrgacha kuproq diniy-cherkov xarakterida bulib, gruzin qabilalarining ijtimoiy mohiyati bilan bogliq edi. Sharq va Garbdan hujum qilib kelgan bosqinchlarga qarshi kurashini uyushtiruvchi yagona kuch cherkov edi. Diniy-cherkov adabiyotining ilk namunalari tarjima asarlari edi. Sekin-asta diniy tashviqotlarga xizmat qiluvchi original asarlar yaratildi. V asrda yozilgan Yakov Surtavelining "JabrdiYda Shushaniki", VI asr boshlarida yaratilgan "Jabrdiyda Yevstafiya Msxeteli", VIII asrda yaratilgan "Jabrdiyda Abo Tbileli", "Nina Kappadokiyskayaning hayoti", IX asrda bitilgan "Grigoriy Xandztelining hayoti" asarlari fikrimiz dalilidir. Gruziya davlati Bunedkor Dovud (XI), Georgiy (XII asr) va Tamara (XII asr)xukmronligi davrida har tamonlama rivojlandi. Diniy-cherkov adabiyoti barobarida dunyoviy adabiyot takomil topdi. qadimgi yunon faylasuflari va fors-tojik adabiyoti namoyandalarining asarlari gruzin tiliga tarjima qilindi.

Uytonish davri, ya'ni XVI-XVIII asrlarda Gruziyada Shota Rustavelining adabiy merosi uchun kurash kuchaydi. Ijtimoiy ongning ilgor vakillari Rustavelining zubayroqlari deb e'lon qilib, uni urganishga chaqirsalar, cherkov-din aqlari, aksincha, uni "kofir"likda aybladilar. Bundam tashkari, sha davr adabiy hayotida Sharq (fors) she'riyati ta'siridan qutilish va xalqchil milliy gruzin adabiyoti uchun kurash ham qizgin edi. Shog Gaymuraz I fors adabiyoti ta'sirini uz ijodida namoyish qilib, "Yusuf va Zulayho", "Layli va Majnun", "Bulbul va gul", "Sham va parvona" dostonlarini gruzin tilida qayta ishlagan bulsa, shoir Archil milliy adabiyot yunalishini targib etishga kirishgan edi, Archil uz fikrlarini "Taymurad va Rustavelining bahsi" didaktik dostoni orkali isbotlashga harakat qildi.

XVII-XVIII asrlarda Gruziya she'riyatida oshuqlik oqimi ta'siri kuchli buldi. Sayat Nova mazkur she'riyat vakili edi. U dehqon oilasida tugilgan. Yoshligidan uzi tuqigan she'rlarni uzi kuyga solib, ozarbayjon, arman va gruzin tillarida ijro etardi. Sayat bir necha vakt Irakliy II saroyida shoir va sozanda bulib ishladi. Saroy aqlining fisqu-fasodiga uchrab 765 yilda podsho dargohidan quviladi. Bu hodisa shoir hayotini tubdan uzgartirdi. She'rlarida ijtimoiy hayotdan nolish, uzlatga chekinish, dunedan voz kechish goyalari tarannum etildi. U dunedan voz kechib monaxlik hayotini tanlaydi. XIX asrning birinchi yarmida Gruziyaning Mitiuleti, Kaxeti, Imereti, Guriya ulkalarida ommaviy dehqonlar Quzgaloni buldi. Zamonining ma'rifatparvarlari A.Chavchavadze, G.Orbeliani, N.Baratashvili, V.Orbeliani, G.Oristavi, SDadashvililar uz asarlarida mavjud holatlarni chizishga harakat qilganlar. Gruziyaning bir butun milliy davlatga birlashuvi utgan XIX asrning bO-70yillariga tugri keladi. Bu davrda ilgor ziyolilar guruhi -"teorgda-leuli"chilar, ya'ni Terek daresini kechib utib, Peterburgda ta'lim olib qaytgan yoshlar guruhi adabiyotga qadam quydi. Ular qatorida Ilya Chavchavadze, Niko Nikoladze, Akakiy Sereteli, Georgiy Seretelilar bor edi. XDC asrning 70-80 yillarida gruzin adabiyotiga "xalq orasiga qarab yurish" goyasi keng targib etila boshlandi. Bu yulda N.Lomouri, Ye.Gabashvili, S.Mgalobishvili, I.Datiashvililar jonbozlik qilishdi.

Gruzin adabiyotining uziga xosligi shundaki, 1921 yil 25 fevralda mamlakatda rasman shuroviy hukumat Urnatildi. Ammo bir-biridan farqli ravishda, zarur bulganda bir-birini inkor kiladigan "Akademik guruh", "Zangori shoxchilar". "Lefchi-futuristlar" kabi adabiy oqimlar faoliyat yuritaverdi. Uz-uzidan mazkur oqimdagi shoir va yozuvchilarning fikru uyi, dunyoqarash, tafakkuri asarlari turlicha edi. Bu gruzin adabiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qildi.

Gruziya xalqining tarixiy tmishi adabiyotda yaratilajak

asarlar uchun manba bulib qoldi. K.Gamsaxurdka "Bunyodkor Dovud",

A.Beliashvili "Besiki", S.Shanshiashvili "Krianisli

Qahramonlari", L.Gotua "Irakliy II", G.Shatberiasvili "Uylar chuqqisi" asarlarini yartishdi.

Uzbek kitobxonlari gruzin adiblarining asarlarini Gafur Gulom, Uygun, Mirtemir, Mirmuqsin, Ramz Bobojonlar tarjimasida qish baxtiga muyassar bulishgan,

Shota Rustaveli (XII asr)

Urta asr gruzin adabiyotining bugok namoyandasi Shota Rustavelining hayoti va ijodi haqida aniq ma'lumotlar yuq. Faqat bizgacha yetib kelgan "Yulbars terisini yopingan paxlavon" nomli asarining kirishida yezilishicha, bu kitobni shoir Gruziya malikalaridan Tamaraga bagashlangan. Shu asosda shoirning XII asrda yashab ijod kilganini aniqlash mumkin. "Yulbars terisini yopingan paxlavon" dostoni Urta asr Sharq adabiyotlarida yaratilgan kup asarlardan uzining teran ifodasi bilan ajralib turadi. Shota Rustavelining birinchi xizmati shundaki, Urta asrda monarxiya davlatini adolatga chakiradi. Ikkinchisi, Vatanni bosqinchilardan ozod qilish goyasiga urgu beradi. Uchinchisi, turli millatlarni yagona goya atrofida birlashishga chaqiradi. Doston qahramonlari - Tariel, Aftandil, faridun mardlik va jasurlik timsoli sifatida gavdalansa, Neston - Darajon singari oqila va mard ayollar bokiralik timsolidir. Ayollarning jamiyatdagi mavqeiga shoir yana-da kuproq urgu beradi. Mazkur doston 1937 yilda nihonlangan Shota Rustavelining 750 yillik yubileyga munosabati bilan juda kup tillarga tarjima qilindi. Shoir dostonning debochasida asar yozilishi haqida quyidagi satrlarni bitgan edi:

Tarielning motamiga kutaraylik biz figon,
Bunday dardga duchor buldi na gadoyu na sulton
Men-ku ismim Rustaveli, iztiroblar kurdim men,
U qadimiy ertaklarni inju kabi terdim men
Asarni ulug gruzin shoirlariga ta'zim bilan tugatgan Shota ularning ruhi poklarini yana bir qadar yodga oladi:

Amironga qasidasin bagishladi Xonelya,
Abdulmasiq shijoatin ulugladi Shovteli
Dilargetni kup tarannum qilgandi Tmogveli,
Tarielni yiglab-yiglab kuyladi Rustaveli
Ilya Chavchavadze (1837 - 1907)

Gruzin klassik adabiyotining yirik vakili Ilya Chavchavadze Kaxegiyaning Kvareli qishlogida knyaz oilasida tutilgan. Avval Tbilisidagi pansionda, keyin gimnaziya tahsil oldi. Sungra Peterburg universitetining xuquq fakultetida hidi. Gruziyaga qaytib kelgach u otasidan qolgan yerlarning asosiy qismini deqqonlarga bulib beradi va 1874 yilda Tbilisita ishga junaydi. Tbilisida xususiy maktab ochib bolalarga tahsil bergan Ilya ma'rifatparvar inson sifatida gazeta va jurnallarni nashr ettiradi, teatrlarning rivojiga kumaklashadi. Gruziya ziyelilaridan tashkil topgan "Pirveli dasi" ("Birinchi guruh") madaniy uchogining boshida Ilya turardi. Talabalik yillaridayoq "Kvareli toglarida" she'ri bilan mashhur bulgan Ilya tez orada mashhur shoir, dramaturg sifatida shuxrat qozondi. Adolatsizlikka qarshi kurashni yoqlagan shoir ketma-ket "qochoq Koko", "Tilanchining hikoyasi" asarlarini chop ettirdi. Vatanparvar shoir 1907 yilda podsho josuslari tomonidan uldirilgan, Ilya Chavchavadze - ozodlik kuychisi. U yurtining ozod bulishi, millatining ravnaq topishini eng oliy baxt deb biladi:

Dune yullarida men ham yulovchi,
Xalqqa ugil qildi meni osmon
Tangriga dust bulsam, buning bor vaji:
Boshlay insonlarni erkinlik tomon
Yulovchiday uzini tasavvur qilgan shoir insonlarni erkinlik tomon boshlashga harakat qiladi:
Toinki, bu xalqning tashvishi, gami-
Menga uz hayqumdan ogir tuyilsin
Toki, gurzinlar dardi, alami -
Erigan ma'danday ruhga quyilsin
Shoirning she'rlari sodda, ixcham, ortiqcha mubolagasiz. Eng muqimi, shoir aytmokchi bulgan goya yaqqol ufurib turadi.
Chakalazor ogista;
"Yasha!" deya shovkinlar
hamda ma'yus tol navda,
Armon bilan jon yiglar

Gul-lolalar ochilgan,
Tog sirti yu qir chaman
Sen ham qachon, ey Vatan,
Chaman bulib gullaysan?

Adabiyotlar:

.Baramidze A. Gamezardashveli D. Gruzinskaya literatura. Tbilisi.

1968

2.Baramidze A. Shota Rustaveli. M. 1966

Z.Aleksandr Chavchavadze. Stixotvereniya. Tbilisi. 1957

4.Sereteli A. Izbranno'e proizvedeniya. Tbilisi. 1960 5.Chikovani S. "Pesn o Davide Guramishvili". M. 1955

.DOGISTON ADABIYO TI

Kavkaz va Kavkazorti xalqlari adabiyeti rivojiga nazar soladigan bulsak azaldan kuhna an'anadarga ega bulgaya xalqlar barobarida nisbatan keyinrok; shakllangan Dogiston adabiyetita kuzimiz tushadi. Klassik adabiyot namoyandalari va zamonining ilqor fikrli kishilarining ilmiyChzadiiy merosini chuqur urgangan mazkur adabiyot namoyandalari ham qissa fursat ichida uz suzlarini ayta olishdi. Uzbek kitobxonlari Sulaymon Stalskiy, Rasul Gamzatovlarning asarlarini zur ishtiyoq bilan mutolaa kilishadi. Dogiston xalq. shoiri Sulaymon Gasanbekov Stalskiy Kasumkent tumaniga qarashli Ashaga-Stal ovulida 1869 yilda tugilgan. Yoshligida ota-onasidan yetim qolgan Sulaymon batraklik qilishga majbur buladi. Xalq qushiqlarini ogzaki yodlab olgan Stalskiy savodsiz bulsa-da, uzi ogzaki she'r va qushiqlar tuqiy boshladi. Rus yozuvchisi Maksim Gorkiy uni "XX asr Gomeri" deb atagan edi. 1900-1919 yillar orasida uning ijtimoiy-siyosiy mavzudagi "Bulbul", "Oqsoqol", "Mullalar", "qozilar", "Samovar", "Rossiya" asarlari mashhur buldi. sha davr farzandi sifatida Sulaymon Oktyabr tuntarishiga katta umid bogladi. Vir qator yaratgan asarlarida' shuroviy hukumatni maqtab, yeru kukka olib chiqib quydi. Ammo asl mohiyatni anglay boshlagach qatti-harakatini zamonaga emas kungliga moslay boshladi. "Dushman dust bulolmaydi", "Bizning kuch", "Yil fasllari", "Vatan haqida uylar" dostonlarida mazkur noroziliklar u ye bu darajada ifodasini topgan. Sulaymon Stalskiy 1937 yilda 66 yeshida vafot etadi.

Rasul Gamzatov

Dogiston shoiri Rasul Gamzatovich Gamzatov Dogistonning Xunzax tumaniga qarashli Sada qishlogida xalq shoiri Gamzat Sadasa oilasida 1923 yilda tugilgan. Dastlabki ta'limni maktabda olgach, oliy ma'lumotni Dogistonda oladi. Bir necha muddat uqituvchilik qiladi. 1945-1950 yillarda Moskvada Maksim Gorkiy nomidagi adabiyot institutida tahsil oladi. Oilaviy muhitda shoir bulib tarbiyalangan Rasul ilk ijodini 1937 yildan boshlagan. qissa fursat ichida u kitobxonlarga "haroratli ishq va kuydiruvchi gazab", "Mening Vatanim", "Bizning bolalar", "Akam qissasi", "Dogiston bahori", "Tugilgan yilim", "Qalbim toglarda" singari unlab she'riy tuplamlarini, "Tog qizi", "Otam bilan suhbat" dostonlarini takdim etdi. Shoir "Tugilgan yilim" she'rlar tuplami uchun 1952 yilda Davlat mukofotiga, "Yuksak yulduzlar" tuplami uchun Shuro davlatining eng oliy mukofotiga sazovor bulgan. Iste'doddi tarjimon sifatida Rasul Gamzatov Pushkin, Lermontov, Mayakovskiy, Tixonov asarlarini avar tiliga tarjima qilgan. U katta jamoat arbobi va yosh adiblarni tarbiyalab yetishtiruvchi murabbiy sifatida ham Kazkaz xalqlari adabiyoti taraqqiyotiga munosib qissa qushib kelmoqda. Shoirning "Yuksak yulduzlar" she'riy tuplamini M.Boboyev 1964 yilda tarjima qilib, uzbek kitobxonlariga taqdim ettan.

Rasul Gamzatov - hayotga, yashashga tashna shoir. U insonlarning kunglidagi kechmishlarini qogozga tushurarkan barcha odamzotga guzal hayot, farovon turmush tilaydi,

Bu dunyodan bir kun ketaman,
Tashnaligim qurqmay, gahlikdan
Toki bu yer aylanar ekan,
Yashar inson shu tashnalikda

Rasul Gamzatov - uzbek kitobxonlariga yaqin dilbar shoir. Uning kungil ipidan tizilgan satrlarda

Shararna hayotning guzal jozibasi ifodalangan. Ayniqsa, shoirning mushtipar onalar haqidagi she'rlari qulma-qul bulib ketgan, desam mubolaqa bulmaydi.

Dil urtanur, dilimda gash bor,

Boshboshdohlik qilgandir asir

Durustgina senga e'tibor -

Qilolmadim, bu emasdir sir

Hayot bu dam bulib girdobday,

Olib ketur komiga solib

Dil siqilur yana paydar-pay,

Onam seni unutdimmi deb

Sen bulsang-chi, qilmasdan ta'na,

Kuz tashlaysan xavotirlanib

Xursinib goh, bildirmay ona,

Artasan kuz yoshing urtanib

Shoirning "Dustlik haqida qissa", "Xanjardagi yozuvlar" asarlari voqeabandligi, ixchamligi, soddaligi bilan kitobxonlar qalbidan munosib joy olgan.

Adabiyotlar:

1 .Antopolskiy. U ochaga poezii. Ocherk tvorchestva R.Gamzatov M.1972

2.Acheev A. Sulaymon Stalskiy. Jizn i tvorchestva. Maxachkala 1963

Z.Ognev V. R.Gamzatov. M. 1964

4.DOGISTON, qurd, osetin, qalmoq. ertaklari. T. 1967

5.Axmadxon Abu Bakir. Darqin qizlari. T. 1974

12-mavzu(2-soat)

III - BOB SHARQIY SLAVYAN VA MOLDOVAN XALQLARI ADABIYOTI

Reja:

1. Ukrain adabiyoti

2. Taras Shevchenko

3. Lesya Ukrainka

Sharqiy Slavyanlar Yevropa va Osiyo qit'alarida yashovchi slavyan xalqlarining turtdan bir qismini tashkil etib, mazkur guruhga kiruvchi rus, ukrain, belorus xalqlarining har biri uziga xos, shu barobarida uzaro juda uxshash tarixiy taraqqiyot yuliga, adabiyet va madaniyat tarixiga ega. Bu xalqlarning ota-bobolari, avlod-

ajdodlari IX asrdayoq davlat bulib uyushgan Kiyev Rusida yashaganlar. Shuning uchun Kiyev Rusidagi xalq ogzaki ijodi va yozma adabiyot ruslarning ham, ukrain va beloruslarning ham adabiy merosi sanaladi. XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida markazlashgan Rusv davlati yuzaga keldi. Mamlakatda feodal munosabatlari rivoji barobarida rus ukrain va beloruslar xalq bulib shakllandilar. XVI asrda mazkur xalqlarda kitob nashr ettirish yulga quyildi, ukrain va belorusda munozaraviy adabiyot tula shakllandi. hattoki, belorus adabiyoti litva xalqining tili va yozuviga ijobiy ta'sir kursatdi.

.UKRAIN ADABIYOTI

X -X asrlardayoq juda boy ogzaki ijod asarlariga va yozma yodgorliklarga ega bulgan qadimgi rus adabiyoti ukraina adabiyotiga kuchli ta'sir kursatdi. Ukrain shoirleri T.Shevchenko, I.Franko, S.Rudamskiy, P.Mirniy, M.Rilskiy, N.Zabilalarning xususan, "Igor jangnomasi" ga qiziqishlari kuchli edi. Ular .bu yodgorliklarni ukrain tiliga tarjima qilganlar. Ukrain adabiyoti tarixi XIV-XV asrlarda ukrain xalqiniyag Sharqiy slavyanlardan ajralib chiqib, shakllanish davridan boshlanadi. Xalq yaratgan qushiq, ertak, duma {katta hajmdagi epik va liroepik}, latifa va rivoyatlarda ommaning asrlar davomidagi orzu-umidlari, bosqinchilarga qarshi olib borgan kurashlari uz aksini tongan. "Tutqunlar", "Ivan Bogusloves", "Xmelnitskiy ta Yearabash" dumalari shular jumlasidandir. Ukrain xalqining XIV-XV asrlarda boshlagan milliy tili va madaniyatini yuzaga keltirishdagi urinin lari polyak shlyaxtalari qarshiligiga uchradi. Natijada XVI-XVIII asrlarda munozaraviy adabiyot (polemicheskaya literatura) paydo bulib, Ivan Vipshnskiy, Mixail

Andrelalar ushbu yunalishda ijod QILISHDI. Munozaraviy adabiyot bilan hamohang tarzda maktab adabiyoti (shkolnaya literatura) ham shakllandi. Ukrain xalqining 1648-1654 yillarda polyak panlariga qarshi olib borgan kurashi Ukrainaning Rossiya bilan birlashuviga olib keldi. E.Slavineskiy, S.Polotskiy, F.Prokopovich kabi ukrain shoirlari Moskvaga kuchib ketishdi. Ukrain adabiyotining XVIII asr ikkinchi yarmidagi ulkan arboblardan biri Grigoriy Skovoroda edi. Uz zamonasining uqimishli, faylasufi bulgan Grigoriy maktab adabiyotiga qarshi chiqib, masal janrini ukrain adabiyotiga olib kirdi. Uning "Xarkov masali" asari 30 ta masalni uz ichiga olib, xalqning manfaatlarini himoya QILDI. Undan keyin bu janrni I.Kotlyarevskiy, G.Kvitka Osnovyanenkolar davom ettirishdi. I.Kotlyarevskiyning "Natalka-Poltavka" asari yangi ukrain dramaturgiyasini boshlab bergan ilk qaldirgoch edi.

XIX asrning birinchi yangi ukrain adabiyotining shakllanishida yangi davr buldi. Taras Grigorevich Shevchenkoning ijodi adabiyotning yorqin sahifalarini tashkil qiladi. N.Dobrolyubov ta'biri bilan aytganda, "Shevchenko suyak-suyagi bilan xalq shoirn edi".

XIX asrning 50-60 yillarida ukrain adabiyoti ravnaqiga Marko Vovchok alohida qissa qushdi. "Xalq hikoyalari", "Rus xalqi hayotidan hikoyalar", "Uch taqdir" asarlarida u uzining ijodiy salohiyatini kursata oldi. Sekin-asta adabiyot olamiga kirib kelgan Ivan Franko "Chuqqilar va tubanliklar", "Vesnyanka", "Quyosh qizitmoqda", "Salqin yaproklar", "Pan hazillari", "Ivan Vishenskiy", "Muso", "Kumirchi", "Lesixin oilasi". "Borislav", "Ikki dust", "Rusalka", "uzi aybdor", "girlangan baxt", "Uqituvchi", Mixail Kotsyubinskiy "Fata Morgana", "Kulgi", "Yulda", "Otlar aybdor emas", "Persona Grata"; Lesya Ukrainka "qanotli qushlar", "Orzu va xayollar", "Aks sado", "Robet Bryus", "qadimgi ertak" asarlarini chop etishdi.

XX asrning 20-yillaridan to 50-yillarigacha ATolovko, Ivan Le, Yu.Smolich, A.Kopilenko, Yu.Yanovskiy, O.Vishnya, A.Shiyan, L.Smilyanskiy, N.Ribak, V.Kucher, S.Tudor, Ya.Golan, P.Kozlanyuk, A.Desyak, O.Gonchar, I.Muratov, M.Stelmaxlar turli mavzularda ijod etib, ijtimoiy hayotni realroq tasvirlashga harakat qildilar.

Ukraina dramaturgiyasi "Diktatura", "Eskadra halokati", "Bogdan Xmelnitskiy", "Platon Krechet", "Svichka tuyi", "Front", "Makar Dubrava", "Ukraina ch llarida", "Tongdagi muhabbat", "Abadiy birga", "Faust va lim" asarlari bilan eng yuqori pogonaga chiqdi. Mazkur asarlarning kupchiligi boshqa tillarga tarjima ham qilingan.

Uzbek - Ukrain adabiy aloqalari ham baquvvat ildizlarga ega. Ukrain adiblarining kupgina asarlarini Gafur Gulom, Hamid Olimjon, Zulfiya uzbekchaga ugirgan bulsa, uzbek adiblarining asarlaridan qardoshlar bahramand bulishgan.

Taras Shevchenko (1814 - 1861)

Ukrain demokratik adabiyotining esoschisi Taras Grigorevich Shevchenko 1814 yilda dexdon oilasida tugilgan. Ota-onasidan yetim qolgan Taras 23 yoshgacha bir pomeschi qulida chuponlik qiladi. Uni 1838 yilda taraqqiyparvar rus rassom va yozuvchilaridan Brillov, Venesianov Jukovskiylar 2500 sum evaziga sotib olib ozod qiladilar. Sunfa Tarasni Peterburgda rassomchilik akademiyasiga qishga yuborishadi. 1840 yilda u uzining ilk asari - "Qibizchi"ni nashr ettirdi. 1847 yilda podsho Nikolay I uni qamoqqa oladi, sungra surgun qiladi. She'r yozish va rayem chizish huquqidan maxrum etiladi. 1857 yilda tutqunlikdan qutilgan Tarasning sogligi ogirlashadi. 1861 yilda 47 yoshida vafot etadi, Uzining "Vasiyat", "Tush", "Uylarim Siz, mening uylarim", "Katerina", "Krepostnoy xotin", "Boyqush", "Gaymadanlar", "Nazar Stodol", "Muzikant", "Rassom", "Kapitan qizi" asarlarida xalqning ozodlik harakatini tasvirleydi. 1840 yilda chop etilgan "Qubizchi" she'riy, tuplamida

xalqning ayanchli ahvoli va qaygusini, "Katerina" dostonida polyak panlarining axloqiy tubanligini, "Gaydamanlar"da panlarga qarshi kutarilgan quzgalon "Uch yil" tuplamida xalqni ozodlikka kurashga chorlagash, "Kazemat", "Xizmatkor xotin", "Varnak" asarlarida uzining

surgundagi hayotini tasvirlaydi.

"Uylarim Siz, mening uylarim" she'rida yozadi:

Uylarim Siz, mening ylarim,

Mendir ado, siz kuydirasiz

Nega qogoz betiga tushib,

Kuz oldimda gamgin turasiz

Uylarim Siz, mening uylarim,

Nega sizni shamol chang kabi

Tuzitmadi chullarga yozib?

Nega hasrat UZ bolasiday

Uldirmadi, tagiga bosib -

Uyqusirab, sizni uylarim?

Shoirning "Vasiyat" she'ri xuddi oxirgi suz tarzida yangrasada, unda bepoyon ukraina diyori, zangori Dneprning mavjlanib oqishi guzal tarzda chiziladi:

Ulsam mening jasadim,

Ukrainaga kumilsin:

Qabrim u keng dalaning

Eng urtasida bulsin

Poyoni yuq ona yer,

Va zangori Dnepr

Kurinib tursin menga,

Viqillab oqqan dare

Bilinib tursin menga!

Lesya Ukrainka (1871 - 1913)

Larisa Petrovna Kosach ziyeli dvoryan oilasida tugilgan. Uning bilim olishi uchun barcha shart - sharoit mavjud edi. Ustiga - ustak ota-onasi ham uqimihli odamlar edi, Larisaning siyosiy dunyoqarashini tugri shakllantirishda S.Merjenskiyning xizmati katta buldi. Ijodini publitsistik maqolalar yezishdan boshlagan Lesya Ukrainka ketma-ket "qushiqdar qanotida", "Uylar va orzular", "Aks sadolar" nomli she'riy tuplamlarini chop ettirib xalqning ozodligini kuylaydi.

Tun borliqni qamragan butun,

Alam chekar kim bulsa bedor!

Uxlaganlar qanday baxtiyor!

Kuzlarimga kelmaydi uyqu

"Kuilarim" she'rida shoira uzi yaratgan kuyiga murojaat qiladiki, nega u janglarda dushmanlarga qarshi yonuvchi pulat emas, keskir shamshir emas, Aslida u suzi va sozini jangga tayyorlayapti.

Ey mening kurashga tayer kuylarim,

Biz halok bulmasmiz behuda hech bir

Balki siz notanish jasur dustlarim,

qulida bularsiz dushmanga shamshir "Marvarid yoshlar", "Tush", "Marvarid gul" she'rlarida shoira insonning eng pokiza tuygularini tasvirlashga intilsa, "Umid" asarida qalbidagi utinchini, armonini kuylashga harakat qilgan. Shoira uchun Vatan soganchi, Vatan tuprogida sunggi suz aytish eng oliy saodatdir.

Baxtim qaro ekan, toleim nigun,

Yolgiz umid bilan yashayman bugun:

Umid - bir kursam Ukrainamni,

Diyorim - munisim, jonim onamni

Zangor Dneprga bir boqar bulsam,

Armonim yuq edi sung mayli, ulsam

Lesya Ukrainka "Shotland qiroli Robert Bryus", "qadimiy sahl",

"Asir", "Yana bir suz", "Kata-kombada", "Buhliqsa", "Masha taronasi"

kabi doston va sahna asarlarida Ukrainaning boy tarixini hamda

usha zamoshshng muhim siyosiy masalalarini kutarib chiqadi.

Uzoq davom etgan kasallikdan sung Lesya Ukrainka 1913 yil Suramida vafot etadi.

Maksim Rilskiy (1895 - 1964)

Atoqli ukrain shoiri va davlat arbobi Maksim Faddeevich Rilskiy Kiyev shahrida ziyoli oilasida tugilgan. Dastlabki ta'limini olgach Kiyev Davlat universitetida kiydi. uz ijodini 1910 yilda chop ettirilgan "Oq otlarda" she'riy tuplami bilan boshlagan shoir she'rlarida "San'at uchun san'at" nazariyasining ta'siri yaqqol seziladi. "Qunshi" she'rida yozadi:

Parvoz et, turqay parvoz,

Ulkam bagrida yayrab

Insonni et sarafroz,

Qushiq aytib - shux sayrab

Vatanga muhabbat, uni ulug'lash, xalqdar orasidagi munosabatlarni yaxshilash goyalari bilan sugorilgan "Yoz", "Ukraina", "Marina", "Dune tonga", "Yorqin qurol" asarlari uchun Maksim Rilskiy Davlat mukofotiga sazovor bulgan.

Qancha kuz yosh tukding katta maydonda,

Qalin urmonlarda tukding qancha jon

Iztirob, ham chekding erksizlik onda,

Va ulib tirilding qayta, onajon!

XX asrning 50-yillarida shoir bir-biridan teran "Kupriklar", "Birodarlik", "Bizning kuch", "Uch yuz yil", "Xalq irodasi" she'riy tuplamlarni chop ettirdi. "Gullar va uzum" she'riy kitobi uchun shoir hukumatning eng oliy mukofotini ham olgan.

Maksim Relskiy mohir tarjimon ham sanaladi. U "Evgeniy Onegin", "Yulbars terisini yopingan pahlavon", "Pan Tadeush" asarlarini ukrain tiliga girib, kitobxonlarga hadya etdi.

Adabiyotlar:

.Gebel V. Korneychuk A.E. Ocherk dramaturgicheskogo tvorchestva. M. 1957

2.Bishkalo S. Maksim Rilskiy. Kiyev. 1962

Z.Lidiya Batqi Aleksandr Deych. T.Shevchenko. Biograficheskiy ocherk. M. 1958

4.Sohidov V. Donolar davrasi. T. 1973

5.Lesya Ukrainka. Tanlangan asarlar. She'rlar. Drama. T. 1972

b.Lesya Ukrainka "Utmish ertagi" T. 1961

7.Shevchenko Taras. ylarim, siz mening uylarim, Lirika. T. 1962

13- mavzu (2-soat)

.BELORUS ADABIYOTI

Reja:

1.Xalq ogzaki ijodi

2. Yakub Kolas.

3. Petrus Brovka

Belorus xalqi kup asrlar davomida san'at-adabiyot sohasida juda boy va xilma-xil adabiy-madaniy merosga egadir. Juda kup belorus ertaklari, afsona va rivoyatlari, lirik va tarixiy qushiq-lari, makrl va hikmatli suzlarida mehnatkash xalqning hayoti, uning orzu-umidlari uz aksini topgan. Belorus adabiyotining ibtidosi Kiyev Rusining madaniyati, yozma adabiyoti va xalq ogzaki ijodiga borib taqaladi. X -X asrlarda Kiyev Rusida yaratilgan asarlarning bir qismi Belorussiya tuprogida yaratilgan, XHI-XIV asrlarda Belorus tuprog-i Buyuk Litva knyazligiga qushilgan bulsada, litvaliklarning uz yozuvi bulmagani uchun knyazlikda davlat tili{ belorus tili hisoblanardi, qonunlar, yilnomalar shu tilda yozilardi.' Ayni pgu tilda boshqa tillardan tarjimalar kupaydi. XVI asrda "Litva statuyey" yaratilib, uch marta nashr ettirildi, XVI asrda Litva knyazligi mustaqilligini yuqotib, Polshaga qushildi. Uz - uzidan ianlarning jabr-zulmi kuchaydi. uz davrining olimi Georgiy Skorina tarjimonlik va nashrlik faoliyatini avj oldirib, mavjud holatni tasvirlashga harakat qilgan. Belorus adabiyotining XVI asr oxiri XVII asr boshlarida yashagan

yirik vakillari Vasiliy Tyapinskiy, Stefan Zizaniy, Afanasiy Filippovich, Simon Budniy, Montiy Karpovich, Simeon Polotskiylar xalq manfaatlarini yoklab, katolik zugumiga qarshi kurashni da'vat kildilar. 1697 yilda Polsha seymi belorus tilida kitob nashr etish, sud, maktab va muassasalarda ish yuritishni man etdi. XIX asrning 20-30 yillarida beloruslar Rossiya bilan birlashgach, adabiy tilda jonlanish sezila boshlandi. Mualliflarni noma'lum bulgan "Eneidaning akasi", "Parnasdagi Taras" asarlari ayni shu davr maqsulidir. Dunin Marsinkovich liberal - dvoryan adabiyoti namoyadasi bulib, mazkur davrda "qishlogi qil" libretto, "Gapon" dostoni, "Seyllar",

"Chumilish" she'riy hikoyalari, "Pan shlyaxtasi", "Sovchilik" pesalarini yozgan edi. 1863 yili dehqonlar quzgoloni barobarida tugilgan publitsistik xalqchil shoir Franshin Bogushevichni yetkazib berdi. Keyinchalik Bogushevich ortidan uning ishlarini Yanka Luchina, Adam Gurinovichlar, Yanka Kupala, Yakub Kolas, Aloiza Tyotka kabilar davom ettirishdi. Eng muhimi, bu adiblar klassik adabiyotning estetik prinsiplariga amal qilganlar. Yanka Kupala Vataniga sadoqat ramzida "Igor jangnomasi" belorus tiliga tarjima qilgan bulsa, Yakub Kolas "Yangi yer", "Simon muzikant" dostonlarini tugalladi.

XX asrning 20-yillarida adabiyot maydoniga K.Krapiva, K. Chorniy, A.Zaritskiy, M.Linkov, shoirlardan A.Aleksandrovich, P.Glebka, P.Brovka, M.Xvedorovich uzlarining goyaviy soglom badiiy jihatdan baquvvat asarlari bilan kirib keldilar. Ya.Movra, A.Yakimovichlar belorus bolalar adabiyoti taraqqiyotiga salmoqli qissa qushdilar. Dramaturgiyada V.Garbatsevich, Ye. Ramonovich, I.Gurskiy, A.Zaritskiy, M.Gromshen singari iste'dod egalari qalam tebratganlar. 1939 yilda harbiy Belorussiyaning Belorussiya davlatiga qushilishi bilan adabiyot olamiga Maksim Tank, F. Pestrax, M.Mashara, A.Kuleshov, P.Panchenko, E.Ognesvet, A.Staxovich, V.Kravchenko kabi yozuvchi va shoirlar kirib keldi.

uzbek-belorus adabiy hamkorligi kundan-kun yangi mohiyat kasb etib borayapti. Belorus yozuvchilarining asarlari Mirtemir, Mirmuqsin, Mamarasul Boboyev, Gofur Gulom, Zulfiya tarjimasida uzbek kitobxonlariga yetkazilgan bulsa, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni, Oybekning "Navoiy", Abdulla Qahqorning "Sinchalak", Sharof Rashidovning "B rondan kuchli" asarlari belorus adiblari tamonidan girilgan.

E.Ognesvet "Salom uzbekiston" she'rida uzbek xalqiga bulgan muhabbatini quyidagicha tasvirlaydi:

Menga atlas kuylak sovga qilibsan,
Shiqqilashi menga shunday tuyuldi:
Shahringda Zulfiya, ynoqlab oqqan,
Shux Solor sharpasi kelganday buldi.

1966 yil may oyida uzbekistonda utkazilgan belorus adabiyoti va san'ati haftaligi bahonasida Yanka Kupala, Yakub Kolas, Kondrat Krapiva, Mikola Avramchish, Anton Balevich, Nini Taras kabi shoirlarning she'riy tuplamlari uzbek tilida chop ettirilgan.

Yakub Kolas(1882-1956)

Konstantin Mixaylovich Mitskevich-Yakub Kolas Baranovich viloyati, Stalbeyskiy tumanida urmonchi oilasida tugilgan. uqituvchilar seminariyasida tahsil olgach, bir necha yil uqituvchilik qildi. Ijodini 1906 yildan boshlagan Yakub 1910 yilda "qaygu qushiqlari" tuplamini nashr etdi. Mazkur tuplamdan joy olgan she'rlarda mamlakatning istiqboli, uning motamsaro holatiga kuproq urgu berilgan.

Daryo, boglar, qurgon, adirlar,

Dala hamda qadrdon urmon

Achchiq qaygu zur hasrat ichra,

Motamsaro sizni kururman

"Yangi yer", "Simon muzikant", "hayot kengligida", "Urushga urush", " uch olamiz", "Er sadosi", " urmonda sud", "qasos" asarlarida Yakub Kolas mamlakatda yuz berayotgan uzgarishlarni tasvirlashga harakat qilgan, 1949 yilda shoir uzining "Balikchining xatasi" asari uchun Davlat mukofotiga sazovor bulgan bulsa, uzining samarali ijodi uchun "Belorussiya xalq shoiri" faxriy unvoniga sazovor bulgan. Yakub Kolas uzbek ijodkorlari bilan yaqindan

munosabatda bulgan. Bir necha marta uzbekistonga mehmon bulgan. " uzbekistonga", "Salor" she'rlarida shoir mehrini yaqqol tuyasiz

Payt yetdi, junaysiz bu chog,
uzbek yeri, azizsan muncha!

Juda ohir qardoshga aytmoq:

Xayr endi, xayr kurguncha!

Xotiramda shahar va boglar -

Kutib olgan yam-yashil libos

Ariqchalar, limmo-lim Salor,

qator teraklarga viqor xos

Petrus Brovka

Petr Ustinovich Brovka Putilkoviche qishlogida 1905 yilda tugilgan. Boshlangich tahsilni olgach, Belorussiya Davlat universitetida ta'lim olgan. Ijodini 1926 yildan boshlagan shoir "1914", "Katerina" asarlarida zahmatkash belorus ayolining siymosini yarata olgan. "Yurak onti"da yozadi:

Juda minnatdorman men qora nondan,
Muzday chashmalarning zilol suvidan !

Yashil urmondanu,

Kum-kuk osmondan

Dala ariklarini tiniq suvidan

Urush davrida Brovka gazetada ishlab turib, "Belorus", "Belorus jangchilariga", "Kastus Kalinovskiy" asarlarini yozdi. Unda Vatan himoyachilari, ularning sadoqati, jasorati uluglanadi, Shoir uzining "Kunlar utib boradi" she'rlar tuplami uchun 1926 yilda Davlat mukofoti laureata bulgan. 1957 yilda "Daryolar tutashganda" romanini tugatish barobarida T.Shevchenko, V.Mayakovskiy, P.Tichina, A.Tvardovskiy singari rus va ukrain shoirlarining asarlarini belorus tiliga ugiradi. uzining tinmay kilgan sa'y-harakati bois Petrus Brovka Belorussiya Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, xalq shoiri unvoniga sazovor bulgan.

"Uy" she'rida Petrus Brovka shoir bilan chashma orasidagi munozarani tasvirlab, bulok, tilidan shoirga tugrirogi, uziga quyidagicha nasihat beradi:

-Xalqning muhabbatini,
qozonmoqchi bulsang sen
Mening tiniqligimga,
hayron bulmagin, urtoq
Men yer sizib utgandan,
Xalq qalbidan sizib ut
Xalq dilidan tib,
Sung " uzingga dadil boq!

Adabiyotlar:

.Yakub Kolas. Zamin ovozi. She'rlar, T, 1983

2.Yakub Kolas. Talash bobo. Povest. T. 1952

Z.Yanka Kupala. Erk qushigi, She'rlar vadostn, T. 1983

4.Maksim Takk. Kuldagi oy, She'rlar. Pozmalar. T. 1962

14-mavzu (2-soat)

. MOLDOVAN ADABIYOTI

Reja:

1. Xalq ogzaki ijodi

2. Yemilian Bukov

3.Andrey Lupan

Maldoviya va Ruminiya hududida yashab kelayotgan moldovan xalqining qadimiy milliy adabiyoti mavjud. Mazkur xalqning tili va adabiyotiga milodiy II-III asrlarda yunon tili va

adabiyotining ta'siri kuchli buldi. 1918-1940 yillar orasida Moldoviya Rumin boyarlari zulmi ostida qolib ketdi. Valaxlar va moldovanlar yaratgan mavsum-marosim qushlari, ertaklari bilan slavyan xalqlari folklor motiv va syujetlariing xshashligi bu xalqlarning uzoq zamonlardan zaro yaqin iktisodiy - madaniy aloqada bulganini tasdiqlaydi. Xalq yaratgan qushiq va ertaklarda Fet-Frumos va Ilyana-Kosnyazyana singari tadbirkor, dono, jismonan baqquvat qahramonlar obrazi yaratilgan bulsa, hikmatli suz va maqollarda xalqning qadimy hayot tajribasi va falsafasi uz aksini topgam. Chuponlar hayotiga bagishlangan "Mioritsa", qasoskor gayduklaraing mardligini tasvirlovchi "Pahlavon Gruya Grozavan", "Gurya va Novak"

"Donchila", "Bujor", "Kordyanu" haqidagi balladalar xalq orasida juda mashhurdir. XII-XIII asrlarda moldavan yerlari Kiyev-Volinskiy knyazligi ixtiyoriga utdi. XIV asrlarda Valaxiya va Moldoviya mustaqil knyazini tashkil topadi. Ayni shu davrda moldavan-valax adabiyotiga asos solinib, "Avliyo va jafokash Ioan Noviy" diniy asari yaratildi. Asar muallifi Grigoriy Simlok, Mitropolit Varlaam, Dasifeylar cherkov adabiyotining namoyondalari edilar. XVII asrda

Dunay buyi knyazliklarida gullagan urta asr adabiyoti Ureke, Miron Kostin, Nekulche kabi yilnomachilardan tashqari, Nikolay Milesku Spafariy, Dmitiriy Kantemirga uxshash donishmand yozuvchilarni ham yetishtirdi. 1812 yilda Bessarabiya Rossiya tarkibiga qushilgach, moldavan adiblari va ziyolilari G.Derjavin, I.Krilov, A.Pushkin, M.Lermantov asarlaridan bahramand bulishdi. hattoki, A.Pushkin Bessarabiyada uch yil yashagan. Shuning natijasi ularoq, maktablarda ona tili qitila boshlandi. Ilk teatr namoyishlari utkazildi. "Rumin bolarisi" gazetasi nashr

ettirila boshlandi. 1840-1860 yillarda hozirgi zamon moldovan adabiy tili va adabiyotini yaratish kurash avj oldi. Bunda V.Aleksandr, K.Negrutsi, A.Russolarning sa'y-harakati bejiz qolmadi. Birgina Vasile Aleksandri avval Yassida, keyinchalik Parijda tib, matematika va huquq fanlarini urganishi barobarida adabiyot bilan shutullandi. U 1848 yildagi t ntarishda katnashib yutqizgach, Garbiy Yevropa mamlakatlarini kezib chikadi, "Moldaviya bilan xayrlashuv", "Ruminiyaning uygonishi", "Gayduk qushigi", "qaldirgoch qissasi", "Sibir yulida", "Vir tilla pul tarixi", "Sinzyana va Pepelya", "Ovidiy", "Blanduziy chashmasi" asarlarida Vasile xalqning ozodlikka bulgan intilishlarini tasvirlashga harakat qilgan va xalq vakillarining siymosini chizishga intilgan.

XX asrning 60-yillarigacha moldovan adabiyotida D.Milev, M.Andresku, T.Malay, I.Kann, I.Lebedev, Ye.Bukov, N.Kostenko, B.Istru, P.Kruchenyuk, F.Ponomar, L.Varskiy, A.Lutan, Grigoriy Adam, A.Gujel, V.Roshka, Yu.Barjanskiy, A.Busuyok, I.Krutsular barakali ijod qilishdi. Shu davrda yaratilgan "Poritse bobo", "Tongda", "Oltmish ikki yarim", "Sayohatchilar". "Yurtimiz", "Ikki maktub", "Kurash", "Galaba", "Ikki dunyo", "urmon qizi", "Tomulesa kudugi yonida", "Posbon", "Nildan Bonngacha", "Poxorona qushigi", "Karpatda baqor", "Ozoddik haykali", "Ruet shahri" kabi asarlarda ijtimoiy hayotning turli masalalari uz ifodasini topgan. Bundan tashqari, "Evgeniy Onegin", "Lik chavandoz", "Poltava", "Lulilar" kabi kuplab asarlar Moldovan tiliga girildi.

Moldovan dramaturgiyasi rivojida Ye.Bukovning "qaynoq Dunay", I. Drutsening "Kasa Marg", L.Barskiyning "Kuyov", L.Koryanuning "Mening baxtim", "Muhabbat soyasi" asarlari alohida urni bulsa, hikoyachilikda ziddiyatli holatlar kupaydi. Huro davlatini madh etuvchi hikoyalar barobarida xalqning real hayotini tasvirlovchi asarlar ham yozildi. I.Drutsening "Odamlarni soginib", "Yuzma-yuz", "Bizining xonadonda" asarlari fikrimiz dalili bula oladi.

Yemilian Bukov

Moldovan adabiyotining yirik arboblardan Yemilian Nesterovich Bukov Bessarabiyaning janubidagi Yangi Kiliya shahrida 1909 yilda bogbon oilasida tugilgan. Kishinyovdagi litseyda uqigach, Buxarest universitetining falsafa fakultetida tahsil olgan. Taraqqiyparvar rumin jurnallari bilan hamkorlik qilib, uz maqolalarida V.Mayakovskiy ijodini targib etgan. Xalqning kelajagiga ishonch goyasi shoirning "Unumli mehnat", "quyosh suzi", "Xitoy" tuplamlariga kirgan she'rlarida uz ifodasini topgan. Moldovan xalkini ozod kurish-shoirning maqsadi. U

"Zanjining duosi" she'rida bu goyani guzal tarzda tasvirlaydi. Asar qora zanjining Ollohga iltijosi bilan boshlanadi. Tasvirlanishicha, zanjining yakkayu yagona Zayresjon k-'mli qizi oq tanli janobning tayogi ostida vafot etadi. Iltifoting tutmagil darig, Ey xudoyim, mendek qulingga Men qing demay, iltijo qilib, Boshim eggan edim yuliyagga Mening xujam - oq tanli janob, Oppoq kun-u, oq, bulutdush oq Shunday ekan, axir neg:- u - Sen tangrining sevgan bandasi - Buldi mening yagona qizim - Zayresjonning shum k> pandasih! Uning qamchisidan Zayresjon, Shakarkamish nixrlsimon Shart kesilib tag-tugi bilan, Kuz ungimda jon berdi-ku, jon! Zanji barcha kulfatlarni Xudodan kuradi, shakkoklik qilib jamiyatdagi nafratini ham unga bildiradi. Zulm tiqi yetdi suyakka, Noilojdan yondim, hayqirdim Gunohkorman, osiy banG'-angman Zanjining eng sunggi jang-imti-urnga da'vati aslida shoirning suzi, armoni, tinchidir. Da'vat etgum zanji avG' edin, Eng sunggi janu, zur i:ch'tiqonga! Bayroq qilib qutlug qushnimiz, Kursataman jumla ja-nga! Emilian Bukov birin-ketin "Mening Moldovyam", "Dnestrda bahor", "Mening Vatanim", "She'rlar" she'riy tuplami, "Reut shahri" she'riy romani, "Tugyonli Dunay" dramalarini yozdi. SHoirning asarlari kup tillarga tarjima qilingan.

Andrey Lupan

Moldovan adabiyotining yirik arboblardan biri Andrey Lupan Rezin tumaniga qarashli Mixuleni qishlogida 1912 yilda tugilgan. Bessarabiyada ozodlik urnatilgach, u qishloq xujalik institutida tahsil oladi, Urush yillarida avval u temiryulchilar batalyonida, keyin Penza va Kuybishev shaharlaridagi harbiy ob'ektlarida, Kuznesk metallurgiya zavodida ishlagan.

Andrey Lupan shoir va dramaturg sifatida mashxur. Ijodini 1932 yildan boshlagan shoir tez fursat ichida "She'rlar", "Unitalmas kun", "Mamnuniyat qushiqlari", "qaqqaha va gunoh" tuplamlarini nashr etdi.

Kuhna tarix qonuni,

Azaldan ayon

Doim umid ketidan,

Intilar inson

Bircha suzu ijodlar,

Hikmatlar aro

Har kim zga keragin,

Izlar doimo

Moddrvan dostonchiligini "Unutilgan qishloq.", "Yuzma-yuz", "Yangi kuz" asarlari bilan boyitgan Andrey Lupan uz kitobxonlariga A.Pushkin, N.Nekrasov, V.Mayakovskiy asarlarini tarjima qilib berdi. Uzbek kitobxonlari esa shoir asarlarini Erkin Vohidov tarjimasida mutolaa qilishga muvaffak, bulishgan.

Adabiyotlar:

1.Istoriya moldavskoy literaturo'. M. 1963

2.Vartichan I., Vasilenko I., Levit F., Popovich K., "Iz kulturnogo i literaturnogo naslediya moldavska naroda". Kishinyov. 1969.

15-mavzu

VOLGA VA URALBUYI XALQLARI ADABIYOTI

Reja:

- 1.Ettita milliy adabiyot haqida
2. Tatar adabiyoti
3. Abdulla Tuqay
- 4.Musa Jalil
- 5.Majid Gofuriy
- 6 Sayfi Qudash
- 7 Chuvash adabiyoti
8. Semyon Elger

Bu guruhga bir-biridan xiyla farq qiladigan yettita milliy adabiyot kiradi. Ulardan boshqird, tatar va chuvash adabiyatlari turkiy tilda suzlashuvchi xalqlarning adabiyoti bulib, mordva, mari, udmurd va komi adabiyatlari ugro-fin tizimidagi tilda suzlashuvchi xalqlarga tegishlidir. Shunga qaramay, bu xalqlarning adabiyoti va madaniyatida ayrim mushtarak qollar, uxshash an'analar bor. Ayniqsa, tatar va boshqird adabiyatlari urtasida zaro aloqa kuchli. Bu ikki qushni xalq madaniyati urtasida shu darajada yaqinlik borki, M.Gafuriy, S.Qudash, Sh.Bobich, A.Tagirov, D.Yuliy kabi yozuvchilar ham tatar, ham boshqird adabiyotini vakillari hisoblanadi.

Qozon shahri Volga daryosi b yidagi eng qadimiy madaniyat markazlaridan. Bu shahar faqat qadimiy va boy tatar milliy adabiyotininggina emas, umuman. Volga buyi xalqdarining uziga xos adabiyoti va madaniyatining ham markazi edya. Masalan, kupgina yozuvchi va shoirlar qozonda tahsil olib, tatar klassik adabiyoti ta'siri ostida ijod qila boshlaganlar. hattoki, Mari xalqining ilk gazetasi ham shu shaharda chiqa boshlagan. Tatar adabiyotidan farqi ularoq, udmurd, komi, mordva, mari adabiyatlari asosan 1917 yildan keyin shakllana boshlandi.

TATAR ADABIYOTI

Tatar xalqining uziga xos milliy madaniyati va adabiyoti tarixi bor. Qozon tatarlarining IX asrlarda shakllangan qadimgi yozma adabiyoti, asosan, diniy mazmunga ega edi. Bu adabiyotning bizgacha yetib kelgan namunalaridan shoir Galining "Yusuf va Zulayho", Mahmud Bulgoriyning "Nahj ul-farodis", Muhammadyorning "Tuhfai mardon", "Nuri Sodur" asarlarini kursatish mumkin. XIX asrgacha tatar adabiyetiga fors va arab adabiyotining ta'siri kuchli edi.

Shoirlardan Gali, Muhammadyor, Mavla qoliy, Utiz Imoniy, qandoliy, Kurmanshiy, Okmullalarning ijodida Sharq. adabiyotiga payvandlik yaqqol seziladi. XIX asrgacha tatar adabiyotida she'riyat ustunlik qilgan bulsa, XVIII asrda "Sayohatnoma"lar yezish rasm bulgan edi. Ismoyil Oganing "Hindiston va Arabistonga sayohat" asari fikrimiz isbotidir, 1804 yilda Qozon universitetining tashkil topishi, yangi turdagi tipografiya va rus teatrining ishlay boshlashi ma'rifatparvarlarning kupayishiga asos buldi. hozirgi zamon tatar adabiy tilining asoschisi, olim va adib Qayum Nosiriy, Z.Bigeev, G.Ilyosiy, Abdulla T qaylar shu davrning mahsuli edilar.

XX asr boshlarida adabiyot maydoniga kirgan G.Kamol, O.Ibrohimov, Sh.Kamol, G.Ma'rufiy, K.Najmiy, M.Mahsud, M.J.alil, Q.Toqtosh, Ya.Karimlar mavjud ijtimoiy hayotni tasvirlashga harakat qildilar. Mazkur davrda "Deklomatsiyalar" tuplami, "qizil gullar", "Yangi odamlar", "Sahro qizn", "Teran tomirlar", "Yorqin suqmoq", "Junatilmagan xatlar", "Agidel", "Bizning hamqishloq", "Guzallikning tugilishi", "Komit", "Ettinchi pech" asarlari yaratildi. Urush davr- da frontda va front ortida tatar yozuvchilaridan Muso Jalil, N.Bayan, R.Ilyos, O.Qutguylar barakali ijod qilishdi. Ayniqsa. uzbek kitobxonlari Muso Jalilning "Moabit daftari" tuplami bilan yaqindan tanish. Tatar adiblari tomonidan sunggi yigirma- uttiz yil ichida yaratilgan "Nomus", "Bahor shabadalari", "Unitilmas yillar", "Oddiy odamlar", "Qozinur", "qishloq. ustidagi yulduzlar", "Rahmat urtoq", "Sahro qugaiqi", "Katta yulda" asarlar uzbek va boshqa xalq-ar tillariga tarjima qilingan,

Abdulla Tuqay (1886 - 1913)

Tatar adabiyotining asoschilaridan biri Abdulla Muhammadgorifovich Tuqayev qozon gubernasiga qarashli qushlauch qitlohida dindor oilasida tugilgan, Ora-onadan yetim qolgach Uralsk shahridagi madrasada yangi va eski usulda ta'lim olgan. Shu sabab bulsa kerak Pushkin va Krilov asarlarini tarjima qildi handa shular ta'sirida she'rlar yoza boshladmlar. Ilk she'rlari "Ozodlik", "Tekinxurlarga", "Davlat dumasi"da ozodlik uchun da'vat etish goyasi kunlidir. 1907 yilda qozonga kuch-zb kelgan shoir Tukay tatar ziyolilaridan Quspyn Yamashev, dramaturg G.Kamol, Gofur Qulaqmedovlar bilal yaqindan tanitkib, "Shurali", "qush otlar", "Ona yurtga", "Pichan bozori yoki yat-i Kisek bash" dostonlarini yozadi. Turli ijtim .iy masalalarni .asvirlashga intilgan Abdulla bir she'rida yozadi:

Men kuylayman, turgan yerim sor bulsa ham,
qurqmayman sevgan xalqim ut-.tar bulsa ham
Kukrak kerib turadirman, mvnga millat,
Bu kun miG'.tildan klar otar bulsa ham

Abdulla Tuqay "Xalq orzusi", "Tatar qizlariga", "Taqqirlangan uzbek qiziga" asarlarida xotin-qizlar obrazini birinchnlardan bulib tasvirlagan bulsa, bir turkum she'rlarida milliy tilning sofligini saqlashga intildi.

Ey aziz til, ey guzal til, ota-onamning tili, Dunyoda kup narsa bildim sen ona til orqali Avvalo, bu til bilan onam beshikda kuylagan, Sung uzun tunlar buyi buvim hikoyat suylagan

1911-1912 yillar orasida Abdulla Tuqay Astraxan, Ufa, Peterburg shaharlariga sayohat qilib, safar taassurotlari asosida "Zulm", "Kuz shamollari", "Mujikka nima kerak?", "qishloq madrasasi" asarlarini yozadi. Abdulla Tuqayning asarlari kup tillarga tarjima qilingan.

Musa Jalil (1906 - 1944)

Tatar xalqining zabardast shoiri Musa Jalilov Orenburg gubernasiga qarashli Mustafo qishlogida tugilgan. Dastlab Xusayniya madrasasida tahsil olgach, 1931 yilda Moskva Davlat universitetining adabiyot fakultetida uqiya. Tatar tilida chop etiladigan "Kichkina", "Inqilob bolasi" jurnallarida muharrirlik qildn. Vatan urushiga qatnashgan shoir 1944 yilda qattiq yarador bulib, asrga tushadi. Berlindagi Shpandov lagerida nemislar tomonidan qatl qilingan.

Ijodini 1919 yildan boshlagan Musa Tatariston Yozuvchilar uyushmasining raisi bulib ishlagan. Uning "Moabit daftari" tuplamiga kirgan she'rlari barchaning diliga yaqin.

Senga mendan xabar bersalar,

"Musa ldi endi", - desalar

Yuq, ishonma, jonim!

Bu suzni -

Dustlar aytmas, meni sevsalar

Tuproq kumar tanni kumolmas,

Utli qushiq tulgan kunglimni

"Ulim" deyish mumkinmi axir,

Engib ulgan bunday ulimni?

Musa Jalilga 1956 yilda oliy mukofot berilgan bulsa, uning she'rlari kup tillarga tarjima qilinib, qushiq qilib kuylangan. Bir umr qotillarga tiz chukmaslik goyasi bilan yashagan Musa Jalil haqida opera ham yaratilgan,

Sendaylarning mingtang urniga,

Afsus, otdim yuztangni - bu kam

Qaytib borgach uzr surayman,

Men xalqimdan puniqg uchun ham

Adabiyotlar:

1,Abdulla Tuqay. Tanlangan asarlar. T. 1961

2.Nurillin I. Put k zerlosti. Kazan 1971

3.Istoriya tatarskoy literaturo'. M. 1965

4.Musa Jalil. qushiqclarim. She'rlar. T. 1982

5.Fotiq Amirxon. Fatqulla Hazrat. Povest. T. 1962

BOSHQIRD ADABIYOTI

Boshqird adabiyoti juda yosh adabiyotlardan sanaladi. XVIII-XIX asrlarda yashab ijod etgan yozuvchilar asarlarini kitobiy turkiy tilda, XX asrda esa tatar tilida yaratganlar. Xalq ogzaki ijodida rang-barang janrlarda yaratilgan asarlar bor. Kubairlar (dostonlar), tarixiy qushiq, baytlar, ertak va rivoyatlarda xalqning qaxramona kurashi hamda halol yashash darajasi uz ifodasini topgan. XIX asrda yashagan Oqmulla faqat tatar va qozoq shoiri bulib qolmay, boshqird shoiri ham edi. Xalq shoiri Salavat Yulayev birinchi boshqird shoiridir. Boshqird adabiyotining asoschisi Majid Gafuriy, yozuvchilar Sh.Babich, S.Qudash, A-Tagirov, D.Yultiylar kupincha tatar tilida ijod etganlar. XX asrning 20-yillarida boshqird adabiyotiga G.Xayriy, G.Amontoy, M.Tojiy, A.Karnay kabi yosh adiblar qadam quydi. Ayni shu davrda "Don fabrikasi", "Saxrodagi chiroqlar", "Sibay", "Ayxilu", "Maktub", "hujum", "qon", "Dalalardagi alanga" kabi asarlar yaratildi. Vatan urushi yillarida boshqird adiblaridan Ali Karnay, Sagit Myftoxov, Husayn Kunakboy, Nizom Kabir, N.Bekboy, Q.Karim, G.Amiriylar bir qullarida qurol, birida qalam bilan urushga kirganlar. "Uglim, fashistni uldir!", "qalligingning xatlari", "Mening hamqishlogim", "Imasboy" kabi asarlar urush yillarining salnomasiga aylandi.

Boshqird dramaturgiyasi jiddiy yuksalish sari yuz tutdi. I.Abdullinning "Viz yana uchrashamiz" dramasi, "Bojalar" komediyasi, M.Karimning "Yakka qayin", "qizning qirlanishi", "Aytilmagan qushiq" pesalari K.Mergenning "Shahar tongi", B.Beleboyning "Salavat" dramalarida boshqird xalqining utmishi va boshdan kechirganlari uz ifodasini topgan.

Uzbek kitobxonlari Majid Gafuriy, Sayfi Qudash, D.Yuliy, Mustay Karimlarning nasriy va she'riy asarlarini uz tillarida qishga muyassar bulganlar.

Majid Gafuriy (1880 - 1934)

Boshqird va tatar xalqlarinyang ulkan shoiri Gabdulmajid Nurganiyevich Gafuriy Sterli-Tamak uyezdining Yelem-Karapova qishlogida maktab uqituvchisi oilasida tugilgan. Ota onasi yoshligida vafot etgach, u qishloqma-qishloq yurib tirikchilik utkazishga majbur buladi. Boshqird xalq ogzaki ijodi va Sharq mumtoz adabiyotini chuqur urgangan Majid Gafuriy 1902 yildan boshlab tatar tilida she'r yoza boshladi. Ijodining ilk davrida "Yosh umrim", "Millatga muhabbat", "Faqirlikda utgan hayot", "Sibir temir yuli" singari she'riy tuplami va dostonlarini chop ettirdi. Mazkur asarlarda asosan ma'rifatparvarlik goyalarini targib etiladi,

Hurriyatning qushi tutdi, dustlar, bugun,

Pora-pora edi yurak, buldi butun

Zulmat urnin egalladi oxir ziyo,

Utmishlarda qolib ketdi krp - qora tun

Shoirning fikricha, bu dunyoda ozod kishi haqiqat izlaydi. hayotdan norozi bulib noshukurlik qilgan odamda ozodlikka intilish bulmaydi.

Haqiqatdir, bu dunyoda yuq chinakam shod kishi,

Bu falakning tirnogidan mutlaqo ozod kishi

Chin jasorat qarshisida bormi kuch tiz chukmagan?

Quzgal yana, talpin yana, hali fursat utmagan!

Majid Gafuriyning "Tatar yigitiga" she'ri shuro davrida mazkur mafkurani targib etgan asar deya talqin etilgan edi. Vir uqiganda she'rdan shunday ma'no uqasiz. Ustiga-ustak, she'r 1920 yilda yozilgan. Aslida shoir bir tatar yigitiga murojaat etish asnosida butun boshli millatni haflat uyqusidan uygotmoqchi va qushyorlikka da'vat qilmoqchi.

Vaqt yetdi, yigit! Tirik bulsang,

Uygon, sakrab uchqur otga min!

Kuryapsanmi Edil sohilida,

Alvon-alvon tongning otganin?

Vaqmu qurqish sendan yiroq bulsin,

Er titratib qizgin jangga kir

Shiddat bilan yengan yuragingdan,

"Biznikidir jahon!" deb qayqir

Majid Gafuriyning "qari Botirning uylari", "Tantanali bayram", "Ishchi", "Turmush bosqichlari",

"Taqqirlanganlar" asarlarida ikki qardosh xalq - tatar va boshqirdlarning hayoti, tashvishu kuvonchlari real tasvirlangan.

Sayfi Qudash (1894 - 1953)

Uz tolei va qurligini hammayoqqa ovoza qilib asarlar yezgan boshqird shoiralaridan biri Sayfi Fattoqovich Ufa yaqinidagi Klyashevo qishlogida tugilgan, Dastlabki tahsilini madrasada olgach Sayfi rus tuzem maktabida tahsilni davom ettiradi. 1913-1914 yillarda qozogistonning shahar va qishloqlarida muallimlik qildi. Ilk asarlarini tatar tilida yozgan Sayfi Qudash she'rlarida Abdulla Tuqay va Gabdulla Ma'rufiylarning ta'siri kuchli edi.

Yangi kuchlar birla tuldim,

Kuzlarimda yondi nur

Yangi hislar birla tuldim,

QUSHDI kuksimda gurur

Turma, zindonlarda yetgan,

Barcha tutuqunlarga ayt:

Keldi deb aytgin, zulmning,

Zanjirin uzmoqqa payt!

Sayfi Qudash uzining "Respublika kuylaydi" she'riy tuplami, "qush qayin" she'riy romani, "Vaxt qonuni", "Uchrashuv", "Muhabbat va gazab" dostonlari, "Don chullarida" ocherki, "Bahorga peshvoz chiqqanda" povestlarida boshqirdlarning tarixiga, urush davridagi mashaqqatlariga nazar soladi.

Uz yurtimning xizmat frontida,

Qilga qalam tutganim kuyi

Posbon bulib xalqim boyligiga,

Turajakman bir umr buyi

Sayfi Qudash uzbek kitobxonlariga yaqin shoir. Uzbekistonga qilgan safarlarida guzal yurtimizning shoiru adiblari bilan yaqindan dustona munosabatlar urnatildi. Ayniqsa, shoirning Gafur Gulomga atalgan she'rlari kimishli.

Tong jilmayib menga shu nafas,

nur taratdi yangi ayyomga

Dedi: "Tonpshng kurkin olib bor,

Shoir dusting Gafur Gulomga! Sayfi qudashning asarlari bir necha tilga tarjima qilingan.

Adabiyotlar:

1.Istoriya bashkirkoy literaturo'. M. 1977

XBikchintayev Anvar. qorasoy. T. 1977

3.Sayfi Kudash. Tanlangan asarlar. T. 1954

4.Bikchintayev Anvar. Jannat va'da qilmayman. Roman. G.Gulom nomidagi nashriyot. 1969

ChUVASH ADABIYOTI

Chuvashlarning ota-bobolari Volga va Kama daryolarining urta va goqori sohillarida yashab kelganlar. Chuvash yozuvining paydo bulishi va milliy adabiyotining tugilishi XIX asrning ikkinchi yarmiga tugri keladi. XVI-XVIII asrlar davomida chor xukumati Volga buyida yashovchi xalqlarga ta'sir utkazish maqsadida zur berib cherkov yezuvi va diniy adabiyotni joriy etgan edi. Xalq savodsizligicha qolaverdi. Rus demokrat-yozuvchilari ta'siri ostida I.Yakolev, I.Ivanov, M.Fedorov, I.Yurkin, M.Akimov, P.Semyonov singari atoqli arboblari yetishib chikdi. Nisbatan yaqinda paydo bulgan chuvash adabiyotida uch bosqich mavjud edi: avvalo, ijtimoiy-siyosiy masalalarga yul-yulakay tuxtalib, mavjud hayotni tanqidiy nigohda kurish. Ikkinchidan, xalqparvarlik va ommaviylikka uzga bulgan bosqich. Uchinchisi, shuroga berilgan soxtaparastlardir. 1906 yilda chuvash tilida ilk gazeta "qilpar" ("Xabar") chika boshlab, uz atrofiga ziyolilarni tuplay boshladi. Publitsistik ocherk, feleton, fuqarolik lirikasi, doston, drama kabi yangi-yangi janrlarda asar yaratilish barobarida rus yozuvchilari M.Saltikov - Shchedrin, V.Korolenko, ATorkiylarning asarlari chuvash tiliga tarjima qilindi. 1905 yildan boshlangan siyosiy ta'qib oqibatida shoir

P.Semyonov qamoqqa olindi, M.Shelebi Sibirga kuchib ketdi, M-Akimovning asarlari chop etilmay qoldi, "qilpar" gazetasi yopildi.

Yigirmanchi yilning ikkinchi yarmida iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy kutarilish buldi. "Kanash" gazetasi, "qopqon" hajviy jurnali chop etila boshlandi. Ayni shu davrda G.Alendeyning "Kolchak bulgan joylarda", Maksimov-Koshkinning "Pashmaloq dum", "Oqlar bilan jang", I.Efimovning "Kolchak", F.Pavlovning "Sudda>>. "Bevakt ulim", "Ikki kuch" asarlari yaratildi. 1930-1940 yillar orasida chuvash adabiyetiga M.Shumilov, Ya.Uxay, I.Ivnik, A.Talvir, I.T Utash, A.Esxel, A.Talvir, N.Ayzman, V.Alger kabi shoir va yozuvchilar yangi ovoz bulib kirishib, bir-biridan baquvvat "Magnit togi", "Urush kunlari", "Tong otarda", "Muchar", "Sadur va Ilem", "Oq. qilingan avlod", "Aydar", "hayot simfoniyasi", "Kujar" kabi asarlarni yaratishdi. Chuvash dramaturgiyasida, ayniqsa, Pavel Osipovning alohida xizmatlari bor, 1941-1945 yillarda bir qism chuvash yozuvchilari frontga junab, uz yurtlari shon-shuxrati uchun kurashgan bulsalar, bir tuda adibu shoirlar front ortida javlon urishdi. Bu davrda P.Xuzangay "U tirik", "Vatan qizi" dostonini, K.Turxan "Yakson qilingan qishloq", F.Uyarning "Akramov yaqinida" romanini, N.Ayzman "Liza Korotkova" dramasini yaratishdi. Sunggi yillarda chuvash bolalar adabiyotini shakllantirish, unga xalq; ogzaki ijodining qadimiy motivlarini olib kirish shu asnoda yangi avlod kishilarining ma'naviy qiyofasini tugri ustirish jarayoiiga alohida ahamiyat berilmokda. Agar shuro davrida A.Talvirning "Bolalik", A.ALGINING "hamqishloqlar" povestida mazkur jarayonning ba'zi bir jixatlari ifodalangan bulsa, 1980 yildan keyin yaratilgan L.Agakovning "Mening kichkintoy dustlarim", V.Davidovning "Yosh avlod", Ye.Evstafevning "qahramonning ugli", P.Xuzangayning " urmon kuylaydi" asarlarida bolalar va usmirlar hayoti real tarzda tasvirlanadi. uzbek shoir va yozuvchilarining asarlaridan chuvash kitobxonlari 70-80 yillar orasida bahramand bulishdi. Chuvash adabiyoti namoyandalarining asarlarini esa qasos shoirimiz Erkin Vohidov uzbekchagan ugirgan.

Semyon Elger (1894 - 1966)

Chuvash adabiyotining asoschilaridan biri Semyon Vasilevich Elger 1894 yilda Yadrinsk uyezdingin Toysinsk volostiga qarashli Bolshiye Abakasi qishlogida tutilgan. U boshlangich ma'lumotni qishlogida olgach, bir necha yil deqqonchilik qildi. Birinchi jahon urushida qatnashib, yaralandi va asir tushdi. Bir necha yil chet mamlakatlarda darbadar yurgach qishlogiga qaytadi. Uzoq vaqt davolanadi, sungra qozon shahrida kattalar uchun ochilgan kursda uqib, uz qishlogida uqituvchilik qiladi.

Semyon Elger uz ijodini 28 yeshida boshladi. Uning "Yosh kiyin" she'ri 1922 yilda chop etilgan. Shundan keyin birin-ketin asarlar uz muxlislarini topa boshladi. Semyon Elger 1923 yilda yozgan "Zulm ostida", dostonida uzining qishlogi, undagi hayotni tasvirlashga harakat qilgan.

Vir zamonlar Sura buyida,
Urmon ichra kuzlardan yiroq
Bular edi bir-biriga yondosh,
Unutilgan un ikki qishloq
Baraka yuq edi ekindan,
har yon edi urmon va botkr?
Don eksalar, badbaxt zaminda,
Odam buyi chikardi qiyo?

1933-1936 yillar orasida yozilgan "Urush kunlari" tarixiy memuari, 1938 yilda yozilgan "Eski qishloqda", 1940 yilda bitilgan "Tong otarda" asarlarida Elger Birinchi jahon urushida boshidan kechirgan voqealarni tasvirlaydi. U 1936 yilda yozgan "Fashizmga ULIM" pesasi, chuvash xalqining sodiq farzandi Ivan Smirnovga bagishlab 1940 yilda bitgan "U mangu tirik" dostoni uchun Chuvashiston Anonom Respublikasi xalq, shoiri degan faxriy unvonga sazovor buldi, Semyon El'gerning "Zulm ostida" she'riy tuplamini Erkin Vohidov uzbek kitobxonlariga havola etgan.

Adabiyotlar:

1.Sirotkin M.Ya. Ocherki dorevlyusionno'y chuvashskoy literaturo'.
Cheboksoro'. 1967

V-BOBBOLTIQBUIYI XALQLARI ADABIYOTI

Reja:

1. Latish adabiyoti
2. Yan Raynis
3. Litva adabiyoti
4. Kristionas Donelaytis
5. Eston adabiyoti
6. Yuxan Smuul

Boltiqlik dengiz sohillarida yashovchi latish va eston xalqlari qadim zamonlardan buyan uzaro iktisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bulib kelmoqdalar. Bu xalqlarning tili bir-biridan farq qilishiga qaramay, ularning ogzaki ijodida ham, yozma klassik adabiyotida ham mushtarak hodisalar, uxi ash an'analar kuzga tashlanadi. Bu yaqinlik va uxshashlik bir xil geografik sharoitga ham bogliqdir. Latviya, Litva va Estoniya adabiyotlari ham bir vaqtda shakllangan. Shuning uchun ham bu adabiyotlarda yoritilgan muhim ijtimoiy masalalar va hayotiy voqealar mohiyati e'tibori bilan bir-biriga juda yaqin turadi. Masalan, eston ma'rifatparvari F.Kreysvald tuzgan eston xalq epik dostonlari tuplamida ham, latish adibi A.Shimpurning "Lachplexis" nomli epik poemisida ham Boltiqlik buyi xalqdarining bosqinchini nemis ritsarlariga qarshi olib borgan kurashi aks ettirilgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida inqilob Garbiy Yevropadan Rossiyaga kuchadi. Bu Boltiqlik buyi xalqlari hayotiga ham ta'sir qiladi. Aytish mumkinki, rus adabiyoti va madaniyati bilan hamkorlikka tamal toshi quyilgandi. Rus adiblarning goyaviy jihatdan baquvvat asarlari mazkur xalqlarga havola etildi-

.LATISH ADABIYOTI

Latish xalqi juda murakkab tarixiy taraqqiyot yulini bosib utgan. Nemis istilochilari zulmi ostida azob chekkan xalq asrlar davomida uz milliy tili va milliy adabiyotining sofligini saqlash uchun kurashib kelgan. hozirgi latishlarning pruslar va litvaliklarga qon-qardosh bulgan otalarlari IX asrga kelib uttni slavyan qabilalari bilan d etona munosabatda bulib kelganlar. Nemis bosqinchilarining ketma-ket hujumi natijasida latish xalqi XII asrdan boshlab qullik iskanjasiga tushdi. "Madaniyat tarqatish" iyemis cherkovi ixtiyoriga tgan sababli XVI asrning oxirigacha Boltiqlik buyi mamlakatlarida mahalliy xalq tilida bironta ham kitob nashr qilinmadi. Shuning natijasi laroq, latish xalqining shakllanish jarayoni 500-600 yil orqaga surildi. XIX asr urtalarigacha xalq ogzaki ijodi latish ma'naviy hayotidagi yagona adabiy yodgorlik edi, Ogzaki ijodda yetakchi mavqe egallagan qushiq (dayn)larda ijtimoiy tengsizlik goyasi keng targib etilgan. Shuning uchun baron va pastorlar xalq ogzaki ijodi asarlarining tarqalishiga tusqinlik qilib kelganlar. By qarshilik XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar - latish milliy adabiyotining paydo bulish davrigacha davom etdi, Feodal va boyarlarga qarshi kurashgan adib, mutafakkir, jamoat arbobi Garlib Merkel uz dunyoqarashi bilan garb ma'rifatparvari Jan Jak Russoga yaqin turadi. Uning 1796 yilda chop etilgan "Latishlar" kitobi nemis mustamlakachilariga qarshi qilgan aybnomaday jarangladi. Merkel mazkur asarila tasvirleydiki, cherkov va din xalqni qul qilish qurolidir. Garchand asar nemis tilida yozilgan bulishiga qaramay kulda kuchirilib, tarjimalar shaklida xalq orasiga tarqatildi. 1816-1819 yillarda Boltiqlik buyi yerlarida krepostnoy tuzumi bekor qilingan bulsa-da, dehqonlarning huquqsizligi, qashshoqligi tugatilmadi. Latish ziyolilari pamflet va hajviy maktublarida pastorlarni ayovsiz tanqid qilishdi, Dehqonlarning ahvoli kuproq mladolatishlar harakatining ilgor vakillari Yu.Aluan, K.Veldemar, K.Baron, A.Spagislarning ijtimoiy-siyosiy va adabiy ma'rifatparvarlik faoliyatida uz ifodasini topdi. Yuriy Aluan shoir va publitsist sifatida "qushiqchilar" tuplamini latish tilida ilk bor nashr qilingan bulsa, 1868 yili uning tashabbusi bilan xalq teatri tashkil etildi. Rus yozuvchisi N.Gogolning an'alarinni rivojlantirgan aka-uka Raynis va Matis Kaudzitlar "Tanobchilar zamoni" kabi asarlarini tartib berishdi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab latish adabiyotida Rudolf Blauman, Yan Porus,

Vaydenbaum, Fr.Rozin, P.Stuchka, Aspaziya, E.Treymanis, Zvanputis, Persiyetis, Doku Atis, Ezeriyetis, Yan Raynislar barakali ijod qilishdi.

Bir haqiqatni tan olish kerakki, Latviya mamlakati hududi bosqinchlar uchun poligon vazifasini utadi. 1934 yilda bu yerda] fashistik tartib-intizom urnatildi. Olti oy mobaynida latish I ziyolilari kitobxonlar bilan erkin muomala qilish, real hayotni tasvirlovchi asarlar yozish imkoniyatidan butunlay mahrum bulishdi. Yashirincha ravishda Vayvarning "Zindondan onaga xat", Lemanisning ' "Ona", A Serafime vichning "Temir oqim" asarlari kuldan-qulga utib tarqatildi. 1940 yildan keyin R.Pelshe, V.Knorin, P.Viksne, R.Eydeman, LPeplis, S.Bergis, O.Rixter, E.Salenyek kabi shoir va yozuvchilar badiiy janrlarni yangi-yangi mazmundor asarlar bilan boyitdilar. Urush boshlangach ABalodis, J.Griva, P.Sile, F.Luks, A.Imermanis singari unlab ijodkorlar kullarida qurol olib jang QILISH barobarida "Latish ukchisi" nomli gazetani chop etishga muvaffaq bulishdi. Vatanparvar shoir Ya.Sudrabkali yozgan edi: Ulug muz dengizida, baland Pomir togida, Daugava vodiysi, Dnepr qirgogida Xalqlar yashar metindek mustaxkam oilada, Latish ukchisi otgan uq singari beomon Siynamizda jush urgan qahru gazab vulqoni

Urush davrida yaratilgan "Keksa Kruzening ugillari", "Olamzordagi uycha", "Klave Burnis", "Kelajak bunyodkorlari", "K kat yer", "Spartak", "Kelinchak" kabi asarlar "Sinya" va "Latviyas strelnis" gazetalarida chop etildi. Urush tugagach matbuotchilik ishlari birdan jonlandi. "Karogs", "Literatura unmaksla", "Berniba", "Sovet Latviyasi xotin-qizlari" kabi gazeta va jurnallar uz sahifalarida Ya.Sudrabkali, V.Luks, A-Grigulis, F.Rokpelnis, Yu.Vanag, A.Balodislarning ijodlaridan namunalar berib bordi. Latish dramaturgiyasida teran, goyaviy jihatdan baquvvat "Galaba", " Uqituvchi Straume", "Sopol va chinni", "Nihobli lampochkalar", "qayta tugilgan Vatan", "Rechnoy qishlogida bahor", "Otashqalb odam", "Vaxt izlovchi Datse" asarlari yaratilgan bulsa, kino olamida "Yan Raynis", "Zangori kullar vodiysida", "Kema dengizga yul oldi", "Soldat shineli", "Yuldagi soyalar" filmlari tamoshabinlarga havola etildi.

Yan Raynis (1865 - 1928)

Buyuk latish shoiri Yan Pliyekshan Raynis Kurlyand gubernasiga qarashli Varslavani xutorida tugilgan. Avval nemis maktabida, keyinroq gimnaziyasida uqigan Yan oliy tahsilni Peterburg universitetida tahsil olgan. Ayni shu vaqtda u rus adiblari A.Pushkin, M.Lermontov, N.Gogol, M.Saltikov-Shchedrin, A.Chexov asarlarini hunt bilan mutolaa qildi. Keyiichalik A.Pushkinning "Boris Godunov" dramasini latish tiliga gorgan. Ijodini 15 yoshida boshlagan Yan Raynis "Diyenas lapa" demokrati gazetasi muharrirlik qilgan. Chor oxrankasi tomonidan u inqilobiy goyalarni tarkatgani uchun qamoqqa olingan. qamoqda Yan Pushkin va Gete asarlarini uz tiliga tarjima qiladi. 1898 yilda u Pskovga, sung Lyapsk gubernasiga surgun qilinadi. Surgun vaktida 1903 yilda "Moviy tunning uzak, sharpalari" he'riy tuplamini yozadi 1905 yilda Yan majbur bulib Shveysariyaga kuchib utadi. Birinchi jahon urushi davrida Yan Raynis "Ozod Rossiyada ozod Latviya" shiorini urtaga tashlab, uz yurtidan bosqinchi nemis baronlarini kuvib chiqarish kerak degan goyani olga suradi. 1920 yilda u qadrdon Latviyasiga qaytadi. Rus va latish xalq ogzaki ijodi hamda mumtoz adabiyot an'alarini uz she'riyati magziga singdirgan Yan Raynis ta'qib va kamsitish, qamoq va surgunga qaramay tugri yuldan qaytmadi. Surgundan qaytibog "Olov va tun" pesasini yozadi. Latish dramaturgiyasi rivojida Raynisning urni alohida, Uning "Indulis va Ariya" tragediyasi latish xalqining XIII asrda nemis bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashidan hikoya qilsa, xalq qushiqlari asosida yaratilgan "Esaver. shamol" pesasi mehnatkash xalqning utmishdagi hayoti tasviriga bagishlangan.

Elday jilolangan yangi, soz damlar, Kelmas, keltirmasa uni odamlar Kimki bossin desa ulkan ish olga, Butuncha dam berib ultirmas qulga

Adabiyotlar:

1.Istoriya latishskoy literaturo'. T. Riga. 1971 2-Yan Raynis. Oltin tulpor (ertak). T. 1989 Z.V.Latsis. Vatanni qumsab. T. 1961 4,V.Latsis. Baliqchi ugli. T. 1958 5.V.Latsis. Yangi qirgoq sari. T. 1956

.LITVA ADABIYOTI

Yozma adabiyotning ilk namunalari XIV asrda paydo bulgan. Dastlabki Litva yilnomalari XIV-

XVI asrlarda yuzaga kelgan. Mazkur yilnomalarda naql etilgan xilma-xil rivoyatlar keyinchalik badiiy adabiyotda uz ifodasini topgan. Litva tilida birinchi kitob Martin Majvidas tomonidan 1547 yilda chop etilgan. XVI asrning oxyari XVII asrning boshlarida Litvada liniy adabiyot taraqqiy etdi. Bu adabiyotning kuzga kuringan vakillari M.Dauksha, I.Bretkunas, K.Shirvidaslar injilni litva tiliga tarjima qilib, birinchi lugatni tartib berishgan. XVIIbXVIII asrlarda litva adabiyoti Litva va Sharqiy Prussiyada rivojlangan. Atoqli shoir K.Donelaitis uz masalalari, ayniqsa, "Yil fasllari" dostoni bilan demokrati yunalishdagi litva adabiyotiga asos solgan. Pomepgchik va ksendzlarni hajv qiluvchi asarlar xalq ogzaki ijodida qutlab yaratildi. Shoir A.Strazdas shu asnoda "qarga", "Dominikasga xitob", "Aniktchay daraxtzori" asarlarini yozib, xalq orasida mashhur buldi. XIX asrning 80-90 yillarida lotin yozuvi asosida ish yuritaditan "Aushra" ("Tong"), "Varpas" ("qungiroq") singari gazetalar chop etila

boshlandi. Mazkur gazetalar atrofiga V.Kudirka, I.Machyuli-Mayronis, P.Vaysaytis kabi yozuvchilar jam bulishdi. 1919 yilda Garbiy Yevropa mamlakatlari, AQSh, Polsha davlati Litvani tuliq mustamlakaga aylantirishdi, 1920 yilda Kaunasda ishchi - dehqon va soldatlarning quzgaloni bulib utdi. 1940 yilda Litvada shuro hukumati urnatildi. Bu voqealarning barchasi I.Blyunas, I.Ioveras, B.Vargilas, K.Yasyukaytis kabi yozuvchilarning asarida uz ifodasini topgan. Shu barobarida ma'rifatparvar ziyolilar A.Pushkin, N.Gogol, L.Tolstoy, A.Chexov, T.Shevchenko, Ivan Franko, Yanka Kupala asarlarini xalq orasiga yoyishga harakat qilindi. Ularga "Vilnis" ("Tulqin") gazetasi yaqindan kumak berdi. "Temirchi", "Mehnat armiyasi", "Ishsiz", "qadoq qullarga", "Batrak qushigi" singari asarlari bilan shuhrat qozongan ziyoli Yanonisning tashabbusi bilan "Piyesa" {"haqiqat"}, "Balsas" {"Ovoz"} vaqtli nashrlari adabiyot rivojiga ulkan qissa qushdi. 30-yillarda adabiyot maydoniga yosh antifashist yozuvchilar K.Karsakas, P.Sivirka, Solomeya Neris, A.Benslova, I.Shimkuslar kirib keldi. Ular yaratgan "Frank Kurk", "Ona yer", "Ch kkan tosh", "Turtovlonga", "Pyotr I", "Lidiya Mursiya", "Vatan, ma'shuqa va ona", "Salom, hayot" asarlarida litva xalqdshing hayoti uz ifodasini topgan. 1940-1950yillar orasida litva adabiyotida she'riyat yetakchi mavqeni egalladi. Solomeya Neris, V.Montvila, L.Gira, P.Sivirka, A-Gritsyuslar tarixiy mavzularga ham murojaat qilishdi. Urushdan sung litva adabiyotida hikoya janri shiddat bilan rivoj topdi. "qasoskor qul", "Sotqin", "Yulduz", "Dustlik", "Oq yugichqa", "Rosyanka gullaganda", "Ota", "Maktub keldi", "Rizq beruvchi yer", "Burondan sung" hikoyalarida turli ijtimoiy tabaqa kishilarining turfa hayoti uz aksini toptan. Rus adiblari ta'sirida sunggi yillarda "Temirchi Ignotas haqiqati", "Aka-ukalar", "Tongotarda", "Arafa" singari badiiy jihatdan yetuk romanlar yaratildi. uzbek kitobxonlari litva adiblarining asarlarini Q.Saloq, T.Fattoq tarjimasidan qishga muyassar bulishgan.

Kristionas Donelaitis (1713 - 1780)

Litva badiiy adabiyotning ulkan namoyandalaridan biri Donelaitis Sharqiy Prussiyaning Lazdinyay qishlogida tugilgan, Kyongsbergdagi maktabda dastlabki tahsilni olgach, oliy ma'lumotni Universitetda oldi. Avval uqituvchilik, 1473 yildan umrining oxirigacha pastorlik vazifasida ishlagan. Donelaitisdan bizgacha olti masal, ikki she'r hamda "Yil fasllari" dostoni yetib kelgan. "Maqtanchok dub", "Buri-sud" masalalarida dehqonlarning ogir hayoti qalamga olinsa, "Yil fasllari"da turt faslning uziga xosligi mavjud ijtimoiy hayot bilan boglab tahlil etiladi:

Kukdan quyosh nur tukadi, isinadi buz turpoq, Keksa qishning saltanati qulashini kuzat, bog! Ortda krldi ayoz tunlar, qanoat yozdi navbahor, Erib bitdi uz- uzidan onda-sonda qolgan qor "Bahor quvonchlari", "Yoz mehnatlari", "Kuz ne'matlari", "Qish tashvihlari" deb atalgan turt bobni uz ichiga olgan dostonda shoir tabiat manzaralariga millat fojealarini vobasta etadi. Qish fasli haqida yozadi:

Sen ey, egar ustidagi tanqa burun, magrur bosh, Mazlumlarning kuzlaridan okizasan buncha yosh? Kecha-kunduz shurliklarni quymaysan uz quliga, shalardek tugmaganmi seni ham bir volida?

Shoiring aytmoqchi bulgan dard-uchun aslida qish fasli ramzdir. U xalqni tezroq chilla izqirininidan qutilishini istaydi:

Har urnini topar bir kun, yangrar jushqin sadolar, Ozodlikka chiqar yillab yuk kutargan gadolar

haqiqatning hukmi bilan yuqarladi zulmlar, Mazlumlarga baxt kuladi, jarga qular zolimlar Bir umr inson bulib yashash lozimligini uqtirgan Donelaytisning mazkur dostoni Sharq adabiyotidagi munozaraviy adabiyot namunalarini yodga soladi. Sh ro davrida Kristionas Donelaytisning 250 yillik yubileyi katta shodiyona bilan nishonlangan. Uning masal va she'rlari turli tillarga tarjima qilingan.

Adabiyotlar:

.Lankutis Yones. Ponorama litovskoy literaturo'. Vilnyus. 1975

2.Istoriya litovskoy literaturo'. M. 1971

Z.Litva hikoyalari. T. 1952

4.Yuazas Boltushis. Uqubatli yullarim. Roman. T. 1977

ESTON ADABIYOTI

Estonlarning qabila bulib shakllanishi miloddan avvalgi ming yillikka tugri keladi. X-XI asarlarda sharkiy - janubdagi yerlar Kiyev knyazligiga qushilgan vaqtlarda Estoniyada dehqonchilik va chorvachilik bilan bir qatorda hunarmandchilik taraqqiy eta boshladi. Kolivan va Tartu singari savdo markazlari paydo buldi. Biroq nemis, shved va daniya bosqinchlari bu taraqqiyotga tutqinlik qildi. XIII-XV asrlarda Lenbut va Vyachko boshchiligidagi xalq quzgaloni besamar ketdi. XVIII asr boshlarida Estoniya Rossiya tarkybga kushildi. XIX asrda eston milliy tili shakllana boshlandi. Shuro hukumati 1917-1918-1919 yillarida Estoniyada uz davlatini ;urnatishga harakat qildi. Ammo maqsad ruyobga chiqmadi. Adabiyotning ilk namunalari eston tilida XVII asr urtalarida paydo bulgan. Ungacha cherkov adabiyoti mavjud edi. Eston tilida birinchi kalendar 1713 yilda, "Injil" 1739 yilda, she'r va hikoyalar tuplami XIX asr boshlarida chop etilgan. Birinchi eston yozuvchisi K.Peterson uz odalarida Vatan va ona tili sofligi goyasini kuylagan bulsa, ma'rifatparvar F.Felman milliy til va adabiyotga kurashishni tarqib etgan edi. Felmanning ishini F.Kreysvald davom ettirdi.

XIX asr oxiri XX acp boshlarida E.Bornxee "qasoskor" tarixiy povesti, Eduard Vilde "Ayoiz mamlakati" psixologik romani, "Temir qullar" dostoni, E.Syargava "Bir qiz tarixi", "Yordam", Liyv "Soya", "Alvasitining qizi" asarlarini bitib, eston xalqining tarixiy hayotini tasvirlashgan. XX asrning 20-yillarida eston adabiyotining vakillari g- X.Pegel'man, Yu.Lilianbax,. V.Myodler, V.Buk, E.Aadu, O.Myunterlar "Hoop eesti" ("Yosh Estoniya") adabiy uyushma atrofiga jipslashishdi. Mazkur uyushma pguro hukumati urnatilgach, oppozitsiyaga utdi. Ammo shurolar tazyikni "qaddi a'lo"siga yetkazgach, uz jonlarini saqlash uchun "Kommunizm yulida" jurnali tashkil etilgan, yirik adib A.Tommsaare esa "haqiqat va huquq" romanini yozgan edi. 1941-1945 yillarda I.Barbarus "qurollangan qushinlar", M.Raud "Jangovar suz", I.Semper "Jim turolmayman", D.Vayrand "Chugday yongan osmon ostida", R.Parve "Soldat qalbi", Yu.Smuul "Dahshatli yoshlik" asarlarini yozib, eston glonlarining qahramonliklarini madh etadilar.

1950-1980 yillar orasida yaratilgan "Koordida nur", "Shamollar soxili", "Qurgondagi hayot", "Shagollar", " Un besh qadam", "Kurash davom etadi", "Er va xalq", "Dadil burilish", "Qizil chinnigul", "Vijdon", "Hu kunlar tongi", "Anketa", "Muz kitobi" asarlari kupchilikka ma'lum bulib, kupchiligi sahnalashtirilgan, badiiy filmlar olingan. Yu.Smuulning "Muz kitobi" eng oliy mukofotga sazovor bulgan edi.

Yuxan Smuul

Baliqchi oilasida 1922 yilda tavallud topgan. Eston adabiyotining yirik vakili Yuxan Smuul uz asarlari bilan 1960 yilda eng oliy mukofotga sazovor bulgan adibdir. Ota-onasining kambagalligi tufayli uqishini tutatolmagan Yuxan otasiga yordamchilik qila boshladi, U bir she'rida shunday yozadi:

Botib ketdi kukning yarqiroq oyi,
Qichqiradi tongni qutlab xurozlar
Butun sohil buylab turini yoyib,
Baliqchilar kuni oltin sep yozar
Boladay begubor, sulim subqidam,
Tulqinlar tebranan yaqin-yiroqda
Baliqchi yigitlar bulib shay, bardam,

Qayiq-larin haydab ketar qirgoqdan

Urush boshlangach shoir Uralga harbiy zavodlar qurilishiga junatiladi. Ayni shu damda ilk ijod namunalari dunyo yuzini kurdi. 1946 yildan 1953 yilgacha Yuxanning "Ogir yoshlik", "Olma daraxti gullasin", "Men komsomolman", "Koguva qishloganing qizil karvoni", "Yarvesullik yigitlar brigadasi", "Estoniya dostoni", "Buron bolasi" asarlari chop etildi. sha davr nasrining guzal namunalari hisoblangan "Murka dengizchi" povesti, "Sigidate qishlogidan maktublar" ocherki, "Muz kitobi" romani Yuxan Smuulga katta shuhrat keltirdi.

Yuxan lirik shoir sifatida uzining urush davridagi sarguzashtlarini tasvirlab, guzal she'rlar bitgan. "Antraktidada dafn marosimi"da dustini yukrtgan, muz kryalar orasida yuragi muzga aylangan shoir siymosi gavdalanadi.

Qalin kiyimlarga burkangan yusun,

Muz koyalar aro turdik biz yirok

Bilardim neligin yuqtirmoq dustni,

Ne bulishin bunda bilmasdim biroq

Eston adabiyoti va san'atini rivojlantirishdagi xizmatlarini hisobga olib hukumat unga 1955 yilda Estoniyada xizmat kursatgan yozuvchi faxriy unvonini berdi. Ayni shu yildan boshlab u Estoniya yozuvchilari uyushmasi raisi lavozimida ishladi.

Antraktidada, muz makbarasida,

Marhumlar adabiy qolur barhayot

Bu qabrni kurib muz orasida:

- Bu ulardan biri! - der uzoq avlod

Yuxan Smuul asarlari uzbek kitobxonlariga 1960 yildan boshlab tanishtira boshlandi. Ularni atokli shoirimiz Jumaniyoz Jabborov uzbek tiliga ugirgan.

Adabiyotlar:

1.Ocherk istorii estonskoy literaturo'. M. 1976

2.Mauer M. Estonskaya literaturo'. Rekomendatelno'y ukazatel literaturo'. M, 1975

4.Yuxan Smuul. Proza. M. 1985